

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА ТИББИЙ ТАЪЛИМ БҮЙИЧА  
ЎҚУВ-УСЛУБ ИДОРАСИ

\*\*\*\*\*

САМАРҚАНД ДАВЛАТ ТИББИЁТ ИНСТИТУТИ



**МУСТАКИЛЛИК ВА  
ИНСОН ФАЛСАФАСИ**

*Тиббиёт институти талабалари учун ўқув қўлланма*

*Самарқанд - 2004*

**Tuzuvchi:**  
**Samarqand Davlat tibbiyot instituti, falsafa va**  
**huquqshunoslik kafedrasi dotsenti**  
**D.YU.YULDASHEVA**

**Taqrizchi:**  
**1. Falsafa fanlari doktori, professor F.S.Soliyeva**  
**2. Falsafa fanlari doktori, professor U.Obilov**

## INSONIYAT ISTIQBOLI

### 1. Xalq orzusi - milliy g`oya ko`zgusi

Har bir o`zbekistonlikning buyuk orzusi - ozod va obod Vatanda yashash va munosib turmush kechirish, o`z salohiyatini yuzaga chiqarish, dunyoda savob ishlar qilib o`tish, o`zidan dog` emas, bog` qoldirish, deya olamiz. Bu orzularning barini umumlashtirilib, qisqacha ifodalansa - Buyuk O`zbekiston. Bu orzuga yetishmoq oson emas, lekin mumkin. Buning uchun bir tomonidan har bir o`zbekistonlik uni o`z orzusi deb hisoblashi va shunga yarasha fikrlashi, mehnat qilishi lozim. Davlat ham xar bir o`zbekistonlikning orzusiga sherik bo`lishini, uning amalga oshishi uchun shart-sharoit yaratishi, kishining shaxsiy manfaatini hurmat qilishi, hisobga olishi uni mamlakat manfaatiga qarshi qo`ymasdan, unga qurbon qilmasdan balki u bilan uyg`unlashtirishi kerak. Mustaqillik yillarda mamlakatimiz bilan birga xalqimiz ham yuksaldi, uning ongi o`sdi, dunyoqarashi o`zgardi va boyidi. O`zlikni anglash aslida o`zini yaxlit millat deb hisoblashdan, tub milliy manfaatlarini tobora chuqurroq anglab, o`z orzularini xalq bilan uyg`un amalga oshirishga intilishdan hamda bu maqsadga kuch-g`ayratini, aql-zakovatini, irodasini yo`naltirishdan iborat.

Bugun bizning jamiyatimiz mustaqillik yillarda orttirgan taraqqiyot tajribasini tahlil qilib, umumlashtirib, milliy mafkura konsepsiyasini yaratdi. Endi u amaliy dasturga aylantirilmoqda.

Milliy mafkura O`zbekistonda shakllanayotgan fuqaroviylar jamiyat mafkurasidir. Bu tushunchadagi "milliy" sifatlashi etnik mansublikni bildirmaydi, balki mamlakatga, uning yaxlit jamiyatiga mansubligini ifodalaydi. Ya'ni u "milliy istiqlol", "milliy yalpi ichki mahsulot", "milliy xavfsizlik", "milliy gerb", "milliy bayroq" kabi tushunchalardagi mazmunga ega. Va bunday talqindan mamlakatning har bir fuqarosi, har bir oila, demak, butun jamiyat manfaatdor.

Xalq ongiga milliy g`oya qanchalik chuqur singsa, uning o`zligini anglashi, ichki mushtarakligi, millati, tili va dinidan qat`iy nazar, o`zini yagona xalq - o`zbekistonlik deb his qilishi shunchalik kuchayadi. Buning uchun u juda oddiy xalqning kundalik tafakkuriga mos, turmushiga bevosita bog`langan shaklda ifodalanshi lozim. Milliy g`oyaga faqat ilmiy-falsafiy ta`rif berish bilan cheklanish va tahlil qilish kamlik qiladi. U millatning orzusini aks ettiradigan ibora ko`rinishida bo`lgani ma'qulroq. Bu nuqtai nazardan milliy g`oyaning mazmun-mohiyati xalqning orzusi intilishlaridan iborat. Orzu shakllanishi uchun milliy ong yetukligi bilan bir qatorda milliy iroda ham zarur. Zero, ular bir-biri bilan chambarchas bog`liq hodisalardir. Tevarak-atrofdagi dunyoni anglash jarayonida inson tomonidan qo`llaniladigan belgi vositalaridan biri va shunga o`xshash boshqa narsalar.

Dunyodagi hamma mafkuralar asosida ramzlar mavjud. Ularning mohiyati va tarkibiy qismlarinitushunib yetgandagina mafkuraning haqiqiy mazmunini anglash mumkin. Har qanday timsol moddiy va ma'naviy, xayoliy va hayotiy haqiqatlarni o`zida aks ettiradi. Shu bois falsafiy tushuncha moddiy va ma'naviy hayot o`rtasida o`ziga xos ko`prik vazifasini o`taydi.

Moddiy va ma'naviy madaniyat hamisha yonma-yon, birga rivojlanadi. Toki inson, jamiyat bor ekan, ular ham mavjuddir.

Tarixda muayyan me'morlik obidasida o`z aksini topgan timsollar muhim ahamiyat kasb etgan. Ular davlat hayotida alohida o`rin to`tgani. Masalan, Eyfel minorasi, Buyuk Xitoy devori, Moskva Kreml, Vashingtondagagi "Oq uy", Hindistondagi "Tojmahal" o`z mamlakatlarining timsoliga aylanib ketgan. Bunday g`urur-iftixon timsollari bizning mamlakatimizda ham ko`p.

Dunyo xalqlar, millatlar paydo bo`lishi bilan ularning kuch-qudrati, mushtarak maqsad-muddaolari ifodasi sifatida davlatchilik vujudga kelgan. Davlatning ijtimoiy-siyosiy vazifasi, taraqqiyot tamoyillari uning timsollarida aks etadi. Ular xalqning milliy qadriyatları, turmush falsafasi, orzu-umidlarini mujassam qilgani bois jamiyatning har bir a'zosi uchun aziz va muqaddas hisoblanadi. Zero, davlat timsollarining asrlardan buyon siyosat, tarix va madaniyatning uzviy bir bo`lagi o`laroq, mamlakatlar taqdirida muhim o`rin tutib kelayotgani bejiz emas. Ular xamisha mustaqillik, tenglik, adolat ifodasi bo`lib, davlat va xalqning tabiatini va niyatidan dalolat berib turadi.

Vatanimiz istiqlolga erishgandan so`ng o`z davlat ramzlariga ega bo`ldi. Ular xalq hohish-irodasini aks ettiruvchi qonun hujjatlari bilan tasdiqlandi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 5-moddasida O`zbekiston Respublikasi o`z davlat timsollari - bayroq, gerb va madhiyaga ega ekani ta'kidlanadi.

Ular barcha yurtdoshlarimizga ma'lum bo`lgan asosiy davlat timsollari bo`lib, har biri davlatning umumbashariy qadriyatlar ruhida muayyan g`oyasini ifodalaydi. Sirasini aytganda, siyosiy timsollarning hammasi – milliy valyuta, pochta markalari, davlat mukofotlari ham shular jumlasiga kiradi -davlatchilikning tizim yaratuvchi omillaridan hisoblanadi. Shu bois davlat ramzları vatandoshlarimiz uchun g`urur-iftixor manbaidir, ularga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo`lish har birimizning siyosiy madaniyatimizdan, yuksak fuqarolik ma'naviyatimizdan dalolat beradi. Bugungi kunda mustaqil davlatimiz timsollari asosida tarbiyalangan yangi avlod voyaga yetmoqda. Bu avlod o`zligini teran anglagan, vatanparvarlik, fidoyilik, milliy g`urur kabi ezgu va oliyanob fazilatlarga ega bo`lgan avloddir. Shu jihatdan qaraganda, har bir davlatning o`ziga xos siyosiy ramzlarini yaratishga intilishi bejiz emas. Ular, ayniqsa, milliy davlatchilikni tiklash, jamiyat poydevorini mustahkamlash, huquqiy demokratik davlatchilikka xos bo`lgan hayot tamoyillarini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda milliy mafkurani shakllan tirish jarayoni borayotgan bugungi kunda siyosiy ramzlarning ahamiyati yanada ortishi muqarrar. Chunki davlat timsollari muayyan narsa-hodisaning oddiy tasviri yoki belgisi emas.

Ular o`zida davrlar, zamonlar o`tish bilan boyib, rivojlanib boradigan ulkan falsafiy mazmunni aks ettiradi. Mustaqillikning dastlabki yillarda poytaxtimizdagı Milliy bog`da qad rostlagan A.Navoiy yodgorligi, Motamsaro ona haykali ham bugungi kunda o`ziga xos timsolga aylanib qoldi. Kelajakda bunday timsollar yanada ko`payadi. Ular yagona mezon-yuksak ma'no-mazmun va yorqin ifoda asosida yaratilishi lozim.

Yana shu yillardan boshlab milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizga mos tantanali marosim ramzları ham shakllanadi. Ular yil sayin alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu tufayli ham yiliga ikki bor 21-mart va 1-sentabrda milliy bayram tantanalarini o`tkaziladi.

Siyosiy ramzlarning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular faqat odamlarning ongiga emas, balki his-tuyg`ulariga ham ta'sir etadi. Ular har-xil ijtimoiy milliy belgi - xususiyatlarni bir maxrajga jamlab, xalqning tasavvuri uchun qulay bo`lgan shaklda namoyon etadi. Bu muayyan siyosiy ma'lumotlarni o`zlashtirishi va yanada murakkabroq siyosiy jarayonlarga tayyorgarlik ko`rilishining dastlabki bosqichidir. Siyosiy ramzlar, obrazli qilib aytganda, siyosat tili, uning mujassam ifodasidir.

Ayni paytda, siyosat o`ziga xos san'at bo`lgani uchun siyosiy ramzlar ham san'at qonunlariga bo`ysunadi. Ular o`zaro bog`liq holda bir-birini to`ldirib turadi. Faqat ularni mohirlik bilan birlashtira olish zarur. Taraqqiyot yuksalishi, milliy mafkura shakllanishi natijasida davlat timsollari yanada boyidi, ularning sirasida yangi voqelik, yangi zaruratni aks etuvchi hollar qo`shiladi.

Tarixning burlish davrini ma'naviy kamolotning jamiyat taraqqiyoti uchun bo`lgan ahamiyati juda ham as qotadi. Hozirda O`zbekiston o`tish davrini boshdan kechirmoqda. Bu jarayon tub ma'noda milliy tiklanishdir. Har qanday yaxshi rejalar ham insonning aql-idroki, mehnati natijasida amalga oshadi. Barcha fuqarolar jamiyat, davlat, millat oldida turgan dolzarb vazifalarni bilishi, ularni amalga oshirishga ongli, fidokorona muayyan mafkuraviy e'tiqod va manfaatdorlik bilan yondashishi ma'naviyatdir.

Jamiyat ma'naviy kamolotini ta'minlash uchun birinchi navbatda ma'naviyatning mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga oid bo`lgan ilmiy-nazariy muammolarni yaxshi bilib olmoq kerak. Bu borada sobiq ittifoq davridagidek quruq shiorlar, mavsumiy tadbirlar bilan amaliy natijalarga erishib bo`lmaydi. Ma'naviyatning mohiyati, tarixiy taraqqiyotning o`tish davridagi hal qiluvchi ahamiyati ilmiy adabiyotlarda chuqur, mukammal yoritib berilmoqda.

Ma'naviyatning mohiyati va jamiyat taraqqiyoti uchun bo`lgan ahamiyati masalasi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, akademik Islom Karimovning asarlarida, maqola va nutqlarida mukammal hozirgi kunning dolzarb masalalari bilan bog`lab yoritib berildi. Yurtboshimiz ma'naviyat va ma'rifatning tub nazariy va amaliy muammolariga bog`liq bo`lgan ellikdan ortiq muhim masalani o`rtaga qo`yadi. Ilm-fan, amaliy faoliyati uchun katta ahamiyatga ega bo`lgan bu muammolarning asosiy yo`nalishlari haqida qisqacha to`xtalish mumkin.

Birinchidan, ma'naviyatning genezisi - ijtimoiy, irsiy ildizlari. Ma'naviyat faqat insonga xos bo`lgan xususiyatdir. Ma'naviyat bilan tutash bo`lgandagina odam farzandi Inson degan buyuk va sharafli nomga tuyassar bo`ladi. Lekin ma'naviyat insonning tug`ma xususiyati emas. U – hayot tajribasi natijasidagina shakllanadi va rivojlanadi. Insonda ma'naviyatni egallashga imkon beradigan, irsiyat qonunlari bilan belgilangan tug`ma imkoniyatlar ham bor albatta. Lekin bu tug`ma imkoniyatlar mehnat, hayot tajribasi, jamoatchilik bilan aloqalar asosida sayqal topib, e'tiqodga va ruhiy mohiyatga aylanib inson ongida va qalbida chuqur o`rnashadi. Shu sababli I.Karimov ma'naviyatning ijtimoiy mohiyati ustida to`xtab, u "insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o`giti bilan singadi" degan chuqur falsafiy fikrlarni oldinga suradi.

Ikkinchidan, I.Karimov ma'naviyat insonga xos bo`lgan ichki ruhiy holatgina emas, balki jamiyat, millat, shaxs taraqqiyoti va kamolotining asosiy omili ekanini ham ko`rsatib o`tdi. Inson aqli, qo`li bilan nimaiki qilmasin uning zamirida, ongida fikr, tushuncha, bilim, iste'dod, qobiliyat sifatida shakllangan ma'naviyat yotadi. Eng barkamol naqqosh gul chizayotgan qo`lining har bir harakatini bosh miya nazorat qiladi. Shu o`rinda ma'naviyat tajriba, amaliy malaka, tafakkur inikosi shaklida namoyon bo`ladi.

Uchinchidan, shaxs ma'naviyati millat, davlat, jamiyat ma'naviyatining ko`rtagi, bir bo`lagidir. Shaxs ma'naviy kamoloti odamlar o`rtasidagi ko`p qirrali munosabatlar, jamiyat hayotida sharoit va imkoniyatlar asosida shakllanadi. Ma'naviyat insonning, xalqning, davlatning, falsafiy tahlil etishning yuksak ifodasıdir.

To`rtinchidan, ma'naviyat odamlar orasidagi yuksak axloq-odob normalari, huquqiy mezonlar, mafkuraviy e'tiqodga asoslangan adolatli, insonparvarlik, halollik, baynalmilalchilik bilan sug`orilgan munosabatlarning ham asosidir. Jamiyatda inson insonsiz yashay olmaydi.

Odamlar bilan hamkorlikka, hamjihatlikka, muloqotga intilish ehtiyoji ham ma'naviyatdir. Ma'naviyat insonning shunday yetuk fazilatiki u kishilarda o`zaro muloqotga ehtiyoj tug`diradi. Har bir shaxs o`z hayoti va taqdirini boshqalarsiz tasavvur eta olmasligi ham ma'naviyatdir. Xudbinlikning har qanday shakli ham ma'naviyatning mezonlaridan chekinishdir. Inson faoliyatida ma'naviyat mezonlaridan chekinish hollari bo`lsa-da, u hech qachon o`z hayotida ma'naviyatni butunlay inkor eta olmaydi. "Inson, - deb yozadi I.Karimov, - o`zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o`ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi".

Beshinchidan, Prezident I.Karimov asarlarida oldinga surilgan chuqur falsafiy-nazariy g`oyalardan yana biri ma'naviyatning cheksizligi masalasıdir. Ma'naviyatning mohiyati, qirrali, rivojlanish imkoniyatlari shunchalik kattaki, uni ulchab ham poyoniga yetib ham bo`lmaydi. Jamiyat taraqqiyoti oldinga qarab boruvchi cheksiz jarayon bo`lganligi sababli uning asosiy tarkibiy qismi bo`lgan ma'naviy kamolot ham uzlusiz davom etaveradi.

Oltinchidan, I.Karimov ko`rsatib o`tganidek, ma'naviy kamolot ma'naviy ehtiyoj bilan bog`liqidir. Ma'naviy kamolotga intilish – insoniylik mohiyati bilan bog`langan fazilatidir. Bilim amaliyot taraqqiyotining har bir bosqichi, rivojlanishning oxirgi nuqtasi bo`la olmaydi. Ma'naviy kamolotning har bir bosqichi aniq davrining o`ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatini yaratadi. Sahrodagi sayyoh har doim chanqovini bosish uchun buloq izlaganidek inson ham necha-necha azoblar, qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi. Har bir shaxs ma'naviy ehtiyojini qondirishini biz hohlaganimizcha emas, balki asosan o`zi bilganicha amalga oshiradi. 1. Jamiyat taraqqiyotini oldindan ko`ra bilish - inson oqilona faoliyatini zarur sharti.

Jamiyatni ilmiy bilish va boshqarishda unda sodir bo`layotgan jarayonlar taraqqiyotining oqibatini oldindan ko`ra bilish katta ahamiyat kasb etadi.

Bashorat qilish nima? Inson hayotida hali ro`y bermagan, fan uchun hozircha noma'lum hisoblangan, imkoniyat tariqasidagina mavjud bo`lgan biron bir ijtimoiy-siyosiy voqeа yoki xodisaning kelajakda qanday ro`y berishini, uning holati, rivojlanish qonunlari va oqibatlarini muayyan ilmiy dalillar, nazariy xulosalar va ma'lumotlarga asoslangan holda oldindan aytib berish - bashorat qilishdir.

Inson faqat orkaga, o`tmishga qarab yashay olmaydi, balki o`tmish avlodlar tomonidan yaratilgan barcha ilmiy bilimlarni chuqur o`rganish va o`zlashtirish, ularga ijodiy va tanqidiy yondoshish asosida kelajakni oldindan ko`rishga, tuxtovsiz ilgarilab borishga harakat qiladi. O`tmishni tarixini bilmasdan turib kelajakni bilish, olg`a rivojlanish mumkin emas.

Kelajakka umidvorlik bilan qarash, bugun bilmagan narsa va hodisani ertaga mukammal bilishga intilish, orqaga emas, oldinga, kelajakka tomon harakat qilish -insонning eng muhim fazilatlaridan bo`lib hisoblanadi.

Inson o`zining kelajagini taxmin va gumonlarga asoslanib emas, balki fan va amaliyotning chuqur ilmiy xulosalariga asoslanib bilib oladi. Fan va amaliyot kelajakni oldindan ko`rishning eng ishonchli qurolidir. Inson fan yordamida dunyoni ilmiy asosda biladi, undan maqsadga muvofiq tarzda foydalanadi. Biron-bir narsadan foydalanish uchun avvalo usha narsa va hodisani bilish, atroflicha o`rganish kerak bo`ladi.

Ilmiy oldindan ko`rish tabiat va jamiyatning bilib olinmagan qonunlarini, noma'lum bo`lgan vahali yuzaga chiqmagan xodisalari sohasiga joriy etilishiga asoslanadi. Ilmiy oldindan ko`rishda muqarrar ravishda kelajakdagи voqealar va ularning muddatlari xususida taxminiy farazlarning elementlari bo`ladi.

Ilmiy bashorat to`g`riligining mezoni-amaliyotdir. Ijtimoiy hayot hodisalarini oldindan bilish, rejalashtirish, programmalashtirish, loyixalashtirish, boshqarish nazariyalari bilan o`zaro aloqadorlikda amalga oshiriladi.

Jamiyat taraqqiyoti qonunlarning oldindan ko`ra bilishning ekstrapolyatsiya [muayyan bir sharoitda ro`y beradigan qonuniyatlarni hozirgi davr va kelajakka bog`lash], tarixiy analogiya [o`tmish hodisalariga qarab xulosa chiqarish], ijtimoiy hodisalarni kompyuter orqali namunalashtirish, kelajak hodisalarini tasvirlash, eksperimental baholash [tarixiy ilmiy tajribaga asoslangan ishlarga] baho berish singari asosiy usullari mavjud. Bularning hammasi birgalikda jamiyat taraqqiyotini oldindan ko`rishga imkon beradi.

Mavjud vogelik, mamlakatimizda, jahon miqyosida muntazam ravishda sodir bo`lib turgan hodisa va jarayonlar, jahon fani va texnikasining, inson aql-idroki va tafakkurning hayratomuz darajada tuxtovsiz rivojlanib borayotganligini, hozirgi zamon ilmiy-texnika yutuqlari insoniyatning kelajagi haqida mukammal ilmiy xulosalar chiqarish uchun boy material bermoqda. Mamlakatimizning kelajagi haqida aniq reja lar ishlab chiqish, ularni amalga oshirishning eng oqilona va maqsadga muvofiq yo`llarini belgilab olish uchun xalq bilan maslahatlashish, uning fikriga qulq solish, madadiga suyanish, uning talab-istikclarini bajarish zarurligini hayotning o`zi ko`rsatib turibdi.

2. Jahon taraqqiyotining hozirgi davrdagi o`ziga xos xususiyatlari. Yer yuzidagi davlatlar va xalqlar o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik va hamkorlikning yuksalib borishi jahon taraqqiyoti hozirgi bosqichining o`ziga xos xususiyatidir. Boshqacha aytganda, keng qamrovli integratsiya-(lotincha so`z bo`lib, to`ldirish, yaqinlashish ma'nosida ishlataladi)-butun hozirgi olamshumul jarayon bo`lib, har bir xalq va davlatning porloq istiqboli umuminsoniy sivilizatsiya yo`lidagi barcha kuch-xarakatlarini birlashtirishga ko`maklashadi.

Dunyodagi ko`pchilik mamlakatlar va xalqlar o`zlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyot darajalarining har xilligi, rivojlanishning turlicha bosqichlarida ekanliklarini, hatto mafkuraviy qarashlardagi farqlarga qaramasdan o`zaro yaqinlashmoqdalar.

"Jahon miqyosidagi umumiyl taraqqiyot, odamlar dunyoqarashlarining `zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlari rivojlanishi va uning odamzod hayotiga ta'siri davlatlar va xalqlar o`rtasida o`zaro birlashishga intilishni kuchaytirmoqda. Ayni vaqtida

milliy xususiyatlar va an'anlarni siyosiy va ma'naviy merosni saqlab qolish tamoyillari ham yaqqol sezilmoqda"1.

1 Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolning asosiy tamoyillari. T., 1995, 59-bet

Dunyo miqyosida ruy berayotgan har xil qiyinchilik va murakkabliklar, ko`tilmaganda paydo bo`lib qolayotgan muammolar, ayniqsa, urush xavfi, sayyoramizdagi tarixi, madaniyati, dini, tili, taqdiri, siyosati va mafkurasi har xil bo`lgan xalqlar va mamlakatlarni o`zaro yaqinlashuvlarini hayotiy zaruriyatga aylantirdi. Bugungi kunda, uchinchi ming yillik arafasida odamlar tarixda birinchi marta o`z taqdirlarini sayyoramiz bo`yicha birligini, boshqa xalqlar va millatlardan ajratilmasligini chuqur his qilmoqdalar. Umuman olganda hozirga paytda jahon mamlakatlari va xalqlari oldida ham milliy, mintaqaviy, ham umumbashariy muommalar bilan ayni bir paytning o`zida shug`ullanish zaruriyatni tug`ilyapti. Bu vazifa va muommalarini hal etish uchun taraqqiyotning turli bosqichida turgan, rivojlanish darajasi turlicha bo`lgan davlatlar o`rtasida o`zaro ishonch, umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarga chuqur xurmat va e'tiqod suv bilan havodek zarur.

Insoniyatni qiziqtirib kelayotgan umumbashariy, milliy va mintaqaviy va boshqa muommalarini ilgaridek ixtiloftar yo`li bilan hal qilib bo`lmaydi. Shu jixatdan qaraganda ixtiloftar emas, sog`lom kuchlarni birlashtirish, qarama-qarshiliklarning birliga yuzaga kelgan muammolarni hal qilishning muhim omili ekanligini jahon taraqqiyotining xozirgi bosqichi ko`rsatib va amalda isbotlab turibdi. Shuning bilan bir qatorda jahonda mulkiy tengsizlik-sanoati rivojlangan mamlakatlар bilan rivojlanayotgan mamlakatlар o`rtasidagi tafovut va ziddiyatlar kuchaymoqda.

Qisqa vaqt ichida respublikamiz ko`pgina nufuzli xalqaro tashkilotlarga xususan BMT ga, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Yevropa qayta tiklash va taraqqiyot banki, Iqtisodiy hamkorlik Tashkiloti va boshqa shu kabi mashhur xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarga qabul qilindi.

3. Hozirgi zamon umumbashariy muammolar, ularni hal qilish yo`llari va istiqbollari. Umumbashariy muammolar mazmunan boy va chuqurligi, qamrovining kengligi, butun insoniyat hayotiga taalluqliligi, milliy, regional chegaralar bilan cheklanib qolmaganligi va boshqa qator xususiyatlarga ko`ra ayrim xalq va millatga, alohida bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga bevosita tegishli bo`lgan muammolardan keskin farq qiladi. Umumbashariy muammolar insoniyatning hozirgi davri uchungina emas, balki kelajakdagи hayotiy manfaatlari uchun ham juda muhim va katta ahamiyatga ega. Hozirgi zamon umumbashariy muammolari-bu insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog`liq bo`lgan eng muhim va asosiy muammolardir.

Qurrai zaminning barcha qit'alari, mamlakatlari va regionlarida yashayotgan milliardlab kishilarga, umuminsoniyatga umumiyoq aloqador bo`lgan bunday muammolar son-sanoqsizdir. Ulardan eng asosiyla ri -Yer yuzida tinchlikni saqlash, qurollanish poygasini tuxtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, xavfli kasalliklarni oldini olish va ekologak muammolarni hal etishdan iborat. Umumbashariy muammolarga, yangi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyot darajasini oshirish, aholining qashshoqlik va savodsizligiga bardam berish, sanoat xom-ashyosi, energiya manbalari va oziq-ovqat bilan ta'minlash, koinotni va jahon okeani manbalarini o`zlashtirishrga bog`liq bo`lgan muammolar kiradi. Qayd qilib o`tilgan umumbashariy muammolarni mazmuni va xususiyatiga ko`ra uchta yirik guruxga ajratish mumkin. Birinchi guruxga jahon termoyadro urushining oldini olish, Yer yuzidagi xalqlar ijtimoiy taraqqiyoti uchun tinchlikni saqlash, rivojlanayotgan mamlakatlarda mavjud kamchiliklarni tugatish va yangi xalqaro iqtisodiy tartibni o`rnatish kabi muammolar kiradi. Atrof-muhitni falokatli ifloslanishdan saqlab qolish, insoniyatni yoqilg`i, xom-ashyo, oziq-ovqat bilan ta'minlash, jahon okeani manbalarini va koinotni o`zlashtirish singari umumbashariy muammolar ikkinchi guruxni tashkil etadi. Nihoyat uchinchisi, ilmiy-texnika inqilobi salbiy oqibatlarning oldini olish sog`liqni saqlash, savodsizlikka qarshi ko`rashish singari muhim hayotiy muammolardan iborat.

Umumbashariy, umuminsoniy ahamiyatga ega bo`lgan muammolar bir-biridan ajralib qolgan emas, balki uzviy bog`lanishda va o`zaro aloqadorlikdadir.

Ulardan birining hal qilinishi ikkinchisi va uchinchingizining ham hal qilishiga yo`l ochadi. Hozir dunyoda ilgarigi davlatlardagiga nisbatan yadro quroli va ularni tashish moslamalari ancha ko`pdir. AQSH bilan sobiq sho`ro xududidagi yadro qurollarining talofat kuchi 60 ming megatonnnani tashkil qiladi.

Olimlarning taxminicha, agar urush boshlanib, yadro qurollari qullaniladigan bo`lsa, bu holda faqat 12 ming megatonnagacha quvvatidan foydalaniladi. Solishtirish uchun ko`rsatish mumkinki, ikkinchi jahon urushida qo`llanilgan barcha portlatish qurollarining umumiy quvvati atigi 6 megatonnnani tashkil qiladi. Boshqacha aytganda, yadroviy urush bo`ladigan bo`lsa bunda portlash kuchi besh yil davom etgan ikkinchi jahon urushidagi nisbatan ikki ming barobar ko`p bo`lib, u faqat bir yoki ikki kunda yuz beradi.

Termoyadro qurollarining uchta texnik xususiyati insoniyatni, sivilizatsiyani katta xavf-xatar ostiga qo`yadi. Termoyadro quroli katta talofat kuchiga ega. Agar oddiy kuch megatonna quvvatiga ega bo`lgan yadroviy qurol qo`llanilsa, Xirosimadagiga nisbatan yong`in maydoni 150 marotaba ko`p, talofat maydoni esa 30 marotabagacha ko`p bo`ladi. Termoyadro quroldidan foydalanish mumkinligini insonning genotip sifatidagi hamda insoniyat sivilizatsiyasining mavjudligi katta xavf-xatar ostiga qo`ymoqda. Dunyoda insonnng biologik tur sifatida yashashga bevosita xavf-xatar mavjud1. Demak butun insoniyat oldida turgan umumbashariy muammolar – termoyadro qurolining qo`llanishi va insoniyatning atom yong`ini natijasida xalo-

1 Saxarov A.D. Taraqqiyot, tinch-totuv yashash va ijodiy erkinlik haqida uylar. 1990 yil, 2-son, 5-bet.  
katga duchor bo`lishi xavfini bartaraf etishdan iborat. Hozirgi paytda tinchlikni astoydil saqlash va mustahkamlashdan ko`ra zarur va muhimroq vazifa yuq. Tinchlik bo`lmasa taraqqiyot ham tarixning o`zi ham bo`lmaydi, zero tinchlik insoniyat turmushining tub shartidir.

Yer yuzida qurollanish poygasi uchun milliardlab dollar sarflanmoqda. Ayni paytda xar bir kishi boshiga 3,5 tonnaga yaqin portlavchi modda to`g`ri keladi. Har yili dunyoda xarbiy maqsad uchun qariyb 1 trillion dollar sarf etilmoqda. Iqtisodiyotni xarbiylashtirish sodir bo`lmoqda. Bu esa eng o`tkir ijtimoiy masalalarni, umumbashariy muammolarni hal qilishga tug`anoq bo`lmoqda. Agar harbiy maqsadlar uchun ishlayotilayotgan bu mablag`lar mehnatkashlarning ijtimoiy ehtiyojlarini, sihat-salomatligini ta'minlashga sarflansa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Sayyoramiz miqyosida xarbiy qurollar ishlab chiqarish atigi bir hafta tuxtatilsa, insoniyat uchun bu tadbir xafatasiga 15 milliard dollardan ziyod fonda keltirgan bo`lar edi. Keltirib o`tilgan dalilar urush va tinchlik muammosi hozirga zamonning har qanday umumbashariy muammosini ijobjiy va oqilona yechishning zarur sharti va asosi ekanligini ochiq-oydin ko`rsatib turibdi. Shuni e'tiborga olgan holda hozirgi kunda mintaqada barqarorlik va milliy xavfsizlik kafolatlarini shart-sharoitlarini aniqlash va ta'minlash g`oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz e'tirof etgandek, biz davlatlarni tinch-totuv yashash xalqaro maslahatlarni hal qilishda kuch ishlatmaslik, tahdid qilmaslik tamoyilini tashqi siyosatimizga asos qilib oлganmiz. O`zbekiston muddati 1995 yilga o`zaytirilishi lozim bo`lgan yadro qurolini tarqatmaslik to`g`risidagi shartnomani, yadro qurolini yo`q qilib tashlash to`g`risidaga shartnomaga aylantirish tarafdir. Shuningdek, biz xuddi kimyoviy qurollar bo`yicha qabul qilingan shartnomaga kabi biologik qurollarni ham ta'qiqlash to`g`risidaga shartnomaga qabul qilinishi tarafdir. Bu O`zbekiston tinchliksevar mamlakat ekanligini yaqqol dalilidir.

Dunyo aholisining tuxtovsiz ko`payib borayotganligi hozirgi davrning eng muhim xususiyatlaridan bo`lib hisoblanadi. Shu kecha-kunduzda sayyoramiz aholisi soatiga 6000, minutiga 100-120, sekundiga 2 kishiga ko`paymoqda.

Dunyo bo`yicha kundalik usish o`rta hisobda 275 kishiga to`g`ri keladi. Jahon aholisi xar yili o`rta xisobida 60 millionga ko`paymoqda. Dunyo aholisining kelajakdagagi o`sish ko`rsatgichlari haqida nima deyish mumkin? Faylasuvlar, sotsiologlar, demograflar 2000 yillarda jahon aholisining soni 6 milliardga, 2025 yillarga borib esa 8 milliardga yetishini taxmin qilmoqdalar. Hozirgi davrda butun insoniyatning oldida turgan yana bir muxim muammo - bu, qashshoqlikni tugatishdir. XX asrning hozirgi bosqichida-fan va texnika gurkirab

rivojlanayotgan, koinot o`zlashtirilayotgan davrda uzoq, yillar davomida mustamlakachilik hukmronligi ostida kelgan mamlakatlardagi 1 milliarddan ko`proq aholi oziq-ovqat yetmishmasligi, yashash uy-sharoitning yuqligi, tabobat xizmatining yomonligi tufayli qashshoqlikda hayot kechirmoqdalar. Natijada kishilarning o`rtacha umri bu mamlakatlarda AQSH, Yaponiya, Italiya, Fransiya, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlaridagiga qaraganda kamida 20 yil kam bo`lmoqda.

Keyinga 10 yilliklar mobaynida "uchinchi dunyo" deb atalgan mamlakatlarda qashshoqlik shu qadar keng yoyilgan va shu qadar kuchayganki, bu insoniyat uchun sharmandalikdan boshqa narsa emas.

Inson hayotini saqlashda hozirgi paytda barcha mamlakatlarda keng tarqalib ketayotgan kasalliklar bilan kurashish, uning oldini olish dam katta ahamiyat kasb etadi. Fan-tehnika rivojlanishi bilan bir qatorda hozirgi ko`p joylarda yurak va qon-tomir kasalliklari, rak, SPID, narkomaniya va shu kabi kasalliklar avj olib ketayapti. Bu o`z navbatida insoniyatning kuch quvvatlarining to`plab, fan yutuqlaridan foydalanib, yuqorida ko`rsatilgan kasalliklarni yo`q qilish yo`llarini aniqlab olishni talab qilmoqda. Bu borada BMT jumladan, Butunjahon Sog`liqni saqlash Tashkiloti (VOZ)ning faoliyatini yanada jonlashtirish katta ahamiyatga egadir.

Xalqaro terrorizm, korrupsiyaga qarshi kurash larni kuchaytirish, nashavandlik, alkogolizm, xatarli kasalliklarning (SPID, rak va hokazolar) oldini olish, ularni tarqalib ketishiga yo`l qo`ymaslik, shuningdek, maorif va ijtimoiy ta'minot, madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlardan oqilona foydalanish kabi muammolar ham jahon mamlakatlarining oldida to`rgan umumbashariy muammolaridir.

Dunyodagi barcha mamlakatlarga taalluqli bo`lgan umumbashariy muammolardan yana biri-insoniyatning energiyaga nisbatan tuxtovsiz o`sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish yo`llarini izlab topishdan iboratdir. Energiya xom-ashyosi masalasi shuning uchun ham jahon ahamiyatiga ega bo`lgan muammolardir, inson usiz hayot kechira olmaydi. Energiya insoniyat uchun uta zarur xisoblangan materiallarni, tabiat yaratmagan moddiy buyumlarni ishlab chiqarish va yaratish imkoniyatini beradi. Demak, energiyasiz inson taraqqiyotini tasavvur kilib bulmaydi. Tabiat energiyaga boy. Fan yutuqlariga suyangan holda shuni aytish mumkin, tabiiy energiya manbalari kumir, neft, yonuvchi slanes, gaz va boshqa tabiat boyliklari yer bag`rida har qancha ko`p bo`lgani bilan bitmas - tunganmas manba emas. Shuning uchun Respublikamizda ham ulardan oqilona, tejab-tergab foydalanish lozim.

Tabiat va undagi barcha boyliklar insoniyatning beباھو xazinasidir. Tabiat-muqaddas bir dargoh, inson ko`z ochib ko`rgan dunyodir. Biz yashab, nafas olib, kun kechirib turgan tabiat hamma-hammaning – butun insoniyatning umumiyligini qarorgohi, umumiyligini, umumiyligini maskanidir. Tabiat va uning boyliklarini ko`z qorachig`iday saqlash umuminsoniyatning eng muqaddas burchidir.

Umuminsoniyat oldida turgan yana bir muhim muammo - bu irqchilik, millatchilik, fashistik totalitar tizimlar davfi avj olib ketishiga yo`l qo`ymaslikdir. Irqchilik, millatchilik avj olib davlatlarda inson huquqlari va erkinliklari muqarrar ravishda cheklanadi, totalitar sistema barpo etiladi, natijada ruhiy, vijdon erkinligi oyoq osti qilinadi, inson hayotining o`zi xavf ostida qoladi. Gitlerizm, stalinizm tizimlarining oqibatida necha millionlab kishilar halok bo`ldi. Natijada jamiyatimizning rivojlanishi bir necha yil orqaga surilib ketdi.

Hozir mamlakatlar o`rtasida yangicha munosabatlar rivojlanmoqda, ular demokratiya, oshkoraliq, insonning huquq va erkinliklari ta'minlashga qaratilgan. Mamlakatlar o`rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy aloqalarning rivojlanishi ham ana shu umuminsoniy manfaatlari qo`llab-quvvatlashga bog`liq bo`lib qolmoqda.

Hozirgi zamondagi mamlakatlarning bir-biridan farqi, ularning taraqqiy darajasi xususiyatlari, eng avvalo, insoniyatning huquq va erkinliklari qanday darajada himoya qilinayotganligi, demokratik jarayonining rivojlanishi bilan belgilanmoqda. Ular o`rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy aloqalarning rivojlanish istiqboli ham ana shular bilan uzviy bog`liqdir.

Hozirgi zamон fan-texnikasida bir-biriga tubdan qarama-qarshi bo`lgan ikki xil imkoniyat-Yeryuzidagi jamiki jonli mavjudodni batamom qirib tashlash hamda insoniyat manfaatlari uchun xizmat qilish imkoniyatlari mavjud. Ana shu imkoniyatlarning qaysi biridan foydalanish masalasi fan-texnika inqilobining o`ziga emas, balki ijtimoiy tuzumning xususiyatiga, fan-texnika yutuqlaridan oqilona foydalanishga bevosita bog`liqdir.

Fan-texnika inqilobidan kelib chiqadigan juda katta moddiy va ma'naviy istiqbollar har qancha muhim va zarur bo`lsa-da, insoniyat taqdirini hal etolmaydi.

Ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy sohalarda tub o`zgarishlar yuz bermasa fan-texnika inqilobi insoniyatga baxt keltirmaydi. Uning insoniyat kelajagi uchun qudratli kuch sifatida ta'sir ko`rsatishi ko`p jihatdan odamlarning axloqiy, madaniy-ma'naviy yetuklik darajasiga, umuminsoniy qadriyatlarni qanchalik xurmat qilishi va qadrlashiga ham bog`liq.

Ayrim mamlakatlar va xalqlargina emas, balki butun insoniyat ham yuqumli kasalliklarni yo`qotish, boshqa kasalliklarni kamaytirish, quyosh, shamol energiyasining, yer osti issiqligini inson uchun xizmat qildirish, atom energiyasini sanoatda, transportda, qurilishda, tabobatda qo`ullash, suv toshqinliklarni oldidan bilish va mutlaqo zararsizlantirishdan manfaatdordirkni, bularning birontasini xam ilm-fan, texnika va madaniyat yordamisiz amalga oshirib bo`lmaydi. Olimlar yerda ma'lum bo`lgan barcha moddalarni, hatto eng murakab moddalarni-oqsil moddalarni, shuningdek, tabiatda ma'lum bo`lmagan olmosdan ham qattiq utga chidamli, volfram va osmiydan ham qiyin eriydigan, ipakdan ham silliq, rezinadan ham egiluvchan moddalarni zavodlarda tayyorlash ustida bosh qotirmoqdalar.

Inson fandan insonni umrini o`zaytirish, hayvonlar va o`simliklarni yangi turlarini yetishtirish, xalq xujaligi uchun ko`proq, go`sht, sut, jun, g`alla, meva, tola, yog`och va boshqa narsalarni olish yo`llarini topish, noqulay rayonlarni, botqoqliklarni, tog`larni, chullarni, changalzolarni, tundrani, dengiz tubini o`zlashtirish yo`llarni ochib berish, shamol va xaroratni tartibga solib turish, bulutlarni siljitish, yomg`irni va ochiq havoni, qorni va issiqlikni istagan tarzda idora qilish mexanizmlarini oldindan belgilab berishni kutib turibdi.

Insonning betinim aql-idroki va tafakkurning tabiat kuchlarini o`ziga xizmat qildirishga, uning butun sirlarini bilib olishga intilishlarining chegarasi yo`q va bo`lishi ham mumkin emas. Odamzod aqli tabiatda ko`p ajoyib-g`aroyib narsalarni kashf etgan va hali yana ko`p narsalarni kashf etadi.

O`tmish bilan hozirgi kun va kelajak o`rtasida vorislik mavjud. Kishilar o`z maqsadlaridan kelib chiqib, o`tmishdan qolgan moddiy va ma'naviy boyliklarga, ilm-fan yutuqlariga suyangan holda o`z oldiga yanada murakkab vazifalarni qo`yadilar va ularni hal etishga intiladilar. Tarix doimo olg`a qarab taraqqiy etib turadigan betuxtov uzlusiz va obyek tiv jarayondir.

Aytib o`tilgan umumbashariy, umumjaxon muammolar juda ko`p va xilma-xil, keng miqyosli va uta murakkab ekanligi, ayni paytda ulardan xar birining insoniyatning bugungi va ertangi xayoti, jahon sivilizatsiyasining, qolaversa, sayyoramizning ham taqdiri uchun naqadar muhim va zarurliga o`z-o`zidan ko`rinib turibdi.

O`zbekistan Respublikasi Markaziy Osiyodagi, shuningdek Mustaqil Davlatlar xamdo`stligidagi, dunyodagi boshqa davlatlar bilan birgalikda kuch-g`ayrat sarflab XX asrning 2 yarmida ayniqsa keskinlashib va butun insoniyat uchun g`oyat muhim bo`lgan umumbashariy muammolarni xal etishda faol ishtirot etmoqda. 4. Inson va insoniyat, ular taqdirining mushtarakligi.

Xar bir insonning baxt-saodati, uning kelajak hayoti butun insoniyatning taqdiri bilan uzviy bog`liqdir. Inson biologik va ijtimoiy omillarning majmuidir. Jamiyat biologik omillarning insonni kamol toptirishdagi ahamiyatini yanada oshirishga qodir emas. Lekin Insonni mukammallashtirishga asosiy o`rin tutadigan ijtimoiy omillar rolini oshirish mumkin.

Ayni paytda barcha xalqlar uchun munosib, chinakam insoniy turmushning moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarini yaratish, sayyoramizdaga hayotni ta'minlash, uning boyliklariga,

avvalo, eng katta boylik-insonning o`ziga, uning imkoniyatlariga, avaylab munosabatda bo`lish - davrimizning dolzarb muammolariga aylanib qolganlari bejiz emas.

Inson taqdirining butun insoniyat istiqboli bilan mushtarak ekanligi xalqimiz ongiga singib ketgan. Shuning uchun ham ular mintaqamizdagi qo`shni mamlakatlar bilan bir qatorda jahon xalqlari bilan xam yaxshi qo`shnichilik va o`zaro xurmat-izzatda bo`lishga doimo intilib kelganlar. O`zbeklar azal-azaldan kuhna Turkiston zaminida qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, qirg`izlar bilan yelkama-yelka, bir tanu bir jon, aka-uka, do`st-birodar, qon-qondosh bo`lib yashamoqda.

Hamkorlikda yashash, hamkorlikda mehnat va ijod qilish, hamkorlikda kurashish, bir-birini qo`llab-quvvatlash, yaxshi kunlarda ham, og`ir paytlarda ham birgalikda bo`lish ularning hammasiga xos umumiy fazilatdir. Bu ularga avlodlar merosi, tarixdan xos xususiyatdir. Buni Umumiyl chegaralargina emas, til va urf-odatlar, an'analarining yaqinligi, dini va dilining birligi, madaniyati va turmush tarzining maishiy hayoti va ishlab chiqarish faoliyatlarining deyarli bir xil ekashshgi belgilab bergen.

Bir necha ming yillardan beri yagona bir xududda o`zaro do`stlik va hamkorlikda yashab kelgan o`zbek, tojik, qozoq va qirg`izlar sobiq shuro tizimi davrida bir-birlaridan deyarli ajratib tashlangan, iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqa ishlari uzib qo`yilgan edi. Shuning uchun ham ular o`zaro uzoqlashib qolishgandi. O`zbekiston, Qozog`iston, Tojikiston, Qirg`iziston, Turkmaniston singari qardosh Respublikalar o`z o`rtasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar Markaz ijozatisiz amalga oshmasdi.

O`zbeklar, qozoq, qirg`izlar va boshqa turkiy xalqlar o`rtasida azaliy do`stlik va qardoshlikning iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqadorlikning yo`lga qo`yilganligi, yangi bosqichga kirganligi mustaqillikning buyuk samarasidir. Prezidentlar va hukumat boshliqlarining Toshkent, Olmati, Bishkek, Ashxaboddagi uchrashuvlarida Markaziy Osiyo xalqdari hayotiga oid ko`pgina iqtisodiy, madaniy-siyosiy muammolar muhokama qilinib, ularni hal qilish yo`llari, moliyaviy asoslari belgilab olinganligi va hozirdanoq ularning amaliy natijalari sezilayotganligi diqqatga sazovordir.

Prezidentlar mamlakatlarimiz o`rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy va ijtimoiy soxalarda mustahkam hamkorlik qilish uchun maqbul shart-sharoit yaratib berishga har tomonlama kumaklashishga tayyor ekanligini, buyuk ajdodlarimizdan qolgan boy merosni bundan keyin boyitish va boylikdan mamlakatlarimizdagi mavjud iqtisodiy salohiyatni yanada yuksaltirish yo`lida foydalanishga amaliy ishlar bilan kumaklashamiz, deb bayon qildilar.

Biz bir-birimiz bilan hamda boshqa mamlakatlar bilan ham ikki tomonlama, ham ko`p tomonlama, ham teng huquqli va o`zaro foydali hamkorlik qilishga tayyor ekanligimiz, mamlakatlarimizda xalqlarimizning gullab-yashnashi va ravnaq topishiga erishishning asosi bo`lish bu tamoyillarga og`ishmay amal qilishimizni ta'kidlaymiz.

Istiqlol Markaziy Osiyo millatlari uchun bahamjihat bo`lib jahon hamjamiyatiga qo`shilib demokratik tamoyillarga asoslangan, xar tomonlama rivojlangan, kelajagi buyuk davlatni barpo etish uchun barcha imkoniyatni yaratib berdi. Uni qo`ldan boy bermay olg`a sari siljish-barchamizning muqaddas, sharafli burchimizdir.

Mintaqaviy va jahon iqtisodiyotiga qo`shilishda davlatlararo munosabatlarni, shuningdek Markaziy Osiyo va Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, tabiiy, moddiy qadriyatlarimizni birga baham ko`rish katta ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil Davlat hamdustligini tashkil qiluvchi mamlakatlar bilan bevosita va ko`p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish-O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yunalishlaridan biridir. Shuni alohida qayd etish joizki, O`zbekiston MDX sheriklari bilan uz munosabatlarini ko`p tomonlama davlatlararo va hukumatlararo shartnomalar hamda bitimlar doirasida xam, shuningdek, to`g`ridan-tug`ri ikki tomonlama muloqotlar, o`zaro manfaatli savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni o`rnatish tarafdiridir.

Xalqimizning boy va rang-barang madaniy-ma'nnaviy qadriyatlari ham jahon hamjamiyatiga qo`shilishda katta ahamiyat kasb etadi. Ko`p asrlar davomida shakllanib mazkur

xalqning ruxiy boyligi ning, urf-odatlari, an'analarini uz ichiga mujassamlashtirgan ma'naviyat ayni vaqtida umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismini tashkil etadi va shu tariqa u jahondagi barcha xalqlarni ma'naviy boyligi ham bo`lib hisoblanadi. Yuksak milliy madaniyat, ma'naviyat hamma vaqt jahon xalqlarini bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita bo`lib kelgan va xozir ham shunday bo`lib qolmoqda. "Yuksak ma'naviylik - tub va muqarrar o`zgarishlarning chinakam demokratizmni qaror toptirish hamda bozor iqtisodiyotiga ma'rifatli yo`l bilan kirib borishning asosidir" -deydi I.Karimov<sup>1</sup>.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o`z doirasida chegaralanib qolmasdan, boshqa xalqlar tomonidan tuplagan qadriyatlardan oqilona foydalangan taqdirdagina taraqqiyot yo`liga tusha oladi. Buni biz uz hayotimizdan yaqqol kurib turibmiz.

## XAZRATI INSON

Inson - oliy mavjudot. Hayotining mazmuni inson borlig`idagi o`zaro qarama-qarshi ikki qutb - ong va tafakkur orqali belgilanishi barchamizga ma'lum.

Ong - bilish, aql, ma'rifat, izlanuvchanlik hosilasidir. Ong cheksiz erkinliklar manbai, xissiyotsiz ijod - kashfiyot va ixtiolar omildir. U kelajakka, taraqqiyotga yo`nalgan.

Prezidentimizning inson huquqlari, mulkdorlarning huquqiy himoyasiga doir farmonlari, shu masalalarga daxldor qonunlar mamlakatimizning Xazrati Inson shaxsiy huquq va burchlari sohasida yangi bosqichga, yangi muvozanat yuksakligiga kutarilgandan darak beradi.

Demak, bizda shu tariqa jism, ya`ni inson uchligining tayanch nuqtasi mustahkamlanmoqda. Odamlar uzligini, dunyodagi o`z o`rnini anglayapti.

---

I.A.Karimov. O`zbekistan iqtisodiy isloxtolarning chuqurlashtirish yo`lida. Toshkent, 1995,266-bet.

Ham barqarorlik, ham barkamollik omili sanalgan Xazrati Inson uchligi bo`lmish ong - jism, rux, jamiyat hayotidan mustaxkam o`rin olmoqda.

Binobarin, Vatanimizda tom ma'nodagi yuzlab, minglab xazrati insonlar paydo bo`lishiga shart -sharoit, muxit yaratilmoqda. Yurtboshimiz bejiz, "Jamiyatimiz mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo`lish oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch -omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g`ayrat manbai bo`lishi lozim", deb ta'kidlamagan. Bunday mafkura jamiyat manfaat-lari bilan oddiy inson manfaatlarini uyg`unlashtiradi, odamlarni chekka kutblar tahlididan asraydi, mustaxkam tayanch nuqtalariga chorlaydi.

Sir emaski, XX asrda xalqlarning iqtisodiy jixatdangina emas, balki ma'naviy, falsafiy jixatdan ham yaqinlashishi ko`zga tashlanmoqda. Bu jarayonda, tabiiyki xazrati inson g`oyasiga munosabat ham o`zgaradi, unga insonning haqiqiy ma'naviy -jismoniy imkoniyatlari zaminidan turib qarash boshlandi.

Ma'lumki, Sharq va G`arb Uyg`onish davri falsafasi, adabiyotida insonni ulug`lash g`oyasi kuchli va yorqin aks etgan. Bu g`oya zamirida odamzod o`z asliyati - yaratuvchisiga munosib bo`lmog`i lozim, shunda olam - atrof -muxit ham odamga munosib bo`ladi degan ma'nolar yotadi.

Vatanimiz davlatchiligi yangidan shakllanayotgan zamonda har bir vatanparvar o`zbekning hayolidan mustaqil yurtimning bulajak komil fuqorosi qanday inson bo`ladi degan fikr utadi. Aslida, dunyoda mutlaqo mukammal va benuqson narsaning uzi yo`q. Yagona komil zot - Olloh. Har bir zamonning talabi, kishining xalq, vatan oldidagi burchi taqozo etadigan darajadagi insoniy mukamallik ham mavjud.

Bugungi kunda biz -mustaqil yurt fuqarolari uchun uz tili va milliy tafakkuri asosida dunyo miqyosida fikr yuritadigan, xalqiga, Vataniga fidoiy inson milliy timsol, barkamol shaxs bo`lib ko`rinadi.

Mulohazalardan ayon bo`lmoqdaki, insoniy komillikning ikki jixati bor, birinchisi - botiniy, ma'naviy; ikkinchisi -zoxiriy, ijtimoiy faoliyatga doir. Bu xikmat xazrat Baxruddin Naqshbandiyning "Dil -ba yoru dast -ba kor" degan shiorida, ayniqra, yorqin aks ettirgandir.

Bugun yurtimizdagi tarbiya ham, mafkura ham milliy ruh, shu jumladan inson falsafasi ham, milliy qadriyatlar asosiga kuchmoqda. Chunki asta -sekin qaror topayotgan erkin munosabatlar shaxs kamolotiga keng yul ochadi. Buyuk shoir bobomiz Alisher Navoiy xazratlari "Farxod va Shirin" dostonida Farxodning fazilatlarini sharxlar ekan, uni "O`zi poku ko`zi pok" deya ta'rif etadi. Farxod -ul zot tasavvuridagi komillik timsoli. O`zi poklik - ruhiy gavharsofli, boyta'kidlaganimizdek, dastlab odam bolalarining barchasiga xos etdi. Ammo ko`zni va so`zni poklamoq ko`pdan-ko`p sa'y-harakat, muayyan tarbiyaviy muhitni talab etadiki, unga barcha ham muvoffaq bulavermaydi. Uzi pok bo`lgan, yaxshilik va ezgulikdan boshqa narsani uylamaydigan xalqimiz bugun mustaqil taraqqiyot yo`lidan dadil borayotgani kungilga quvonch bag`ishlaydi. Binobarin, uning dili ham, ko`zi ham, so`zi ham kun sayin poklanib bormoqda.

### **INSON FALSAFASI**

Falsafada inson muammosi, uning asosiy jihatlari

1. Inson ongi, ma'naviyati, dunyoqarashini shakllantirish falsafaning asosiy vazifasi Voxelikning eng umumiy qoidalarini inson ongida aks ettirib haqiqatga erishishning asosiy maqsadi - inson dunyoqarashini, falsafiy tafakkurlash madaniyatini shakllantirib, uni ma'naviy yetuk, fozil va fidoyi inson etib kamol toptirishdir.

Inson uchun qayg`urish, komil insonning dunyo qarashini shakllantirish, uning erkin bo`lishi, ozod va hur yashashi, madaniy-ma'naviy, axloqiy jihatdan kamol topishi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yuksak darajada e'zozlanishi va hurmat qilinishi zarurligi haqidagi g`oya falsafaning hech qachon eskirmaydigan va ahamiyatini aslo yuqotmaydigan asosiy masalasidir. Jamiyat tarixida juda ko`plab keskin o`zgarishlar, tub burilishlar bo`lib, xilma-xil g`oyalar, qarashlar, ta'limotlar o`zgarib, yangilanib turgan bo`lsa-da, inson mohiyati muammosi, uning odob-axloq ma'naviyati masalasi hech qachon faylasuflar diqqat e'tiboridan chetda qolgan emas.

Ayniqsa, insonning ichki dunyosi, kayfiyatları, qiziqishlari, ruhiy izardorlari masalasi faylasuflarni azal-azaldan qiziqtirib kelgan va tashvishga solgan. Inson mohiyati, uning hayotdagi o'rni va qadr-qimmati, iymon-e'tiqodi, odob-axloq masalasiga Sharq faylasuflari tomonidan alohida e'tibor berilganligiga, dunyoning oliv mavjudoti, duru gavhari hisoblangan odamzod haqida Qur'oni karim va Hadisi sharifda bayon etilgan bebahoh fikrlar, dasturiy yo`l-yo`riqlar asos bo`lib xizmat qilganligini ta'kidlash lozim.

Qur'onda, biz inson zotini mukarram qilib yaratdik va yer yuzida pok narsalardan rizqlantirdik, yerda, suvda yuradigan qilib, vaqtlarini yaratib berdik va o`zimiz ham qilgan ko`pgina narsalarimizdan afzal qilib qo`ydik, degan oyat bor. Shu oyatga binoan Ollohnning butun olamni yaratishdan maqsadi Inson bo`lib, u hamma mavjudot ichida tengi yo`qdir, eng afzalidir. Qur'on ta'limotiga binoan inson Ollohnning yer yuzidagi xalifasi, ya'ni o`rinbosaridir. Bu insonni juda ulug`laydigan martabadir. Bundan tashqari "yashirin xazina" bo`lgan Olloh taolo ilmu hikmatining bir qismini inson qalbiga joylagan, ya'ni inson "yashirin xazina"ni saqlovchi xazinadordir.

Inson jamiki mahluqotning, olamning gultoji, Ollohnning Yerdagi halifasi ekan, demak, unda Ol loh sifatlari bo`lishi mantiqiy holdir. Butun borliqning ko`rki va sharafi bo`lgan insonda odamiylikning hamma ajoyib jihatlari mavjud. Inson boshqa jamiki narsalardan mumtoz, hamma mahluqtlardan eng ulug`idir.

Inson ulkan izzat va hurmatga loyiqidir. Navoiy o`zining "Vaqfiya" asarida, "Butun osmon va osmondagi jami narsalar, butun yer yuzi va yer yuzidagi jami narsalar, hamma dengizlar va unda mavjud bo`lgan hamma narsalar, hamma mamlakatlar va ularda bor jami ne'matlar - bari, eng yaxshi narsalar inson uchun, uning baxt-saodati uchun yaratilgan, bularning jami - insonga xizmat qilmog'i kerak" deb yozgan edi.

Inson dunyoda eng murakkab, oliv mavjudot, tabiatning yuksak mahsuloti, hayot gulidir. Insonning buyuk va bebaholigi aql-idrok va tafakkurga ega bo`lganligidadir. Aql-idrok sohibi bo`lganligi uchun u real dunyodagi voqealarni biladi, ilmu-tafakkuri, dahosi, mehnati, salohiyoti bilan dunyonи boshqaradi. Insonda buyuk mutafakkirlarimiz ta'kidlaganlaridek, beba ho marvarid -aql-zakovat mavjud. Unda tabiat va jamiyatning sir-asrorlarini va yuksak cho`qqilarini bilish qobiliyati jamuljamdir.

Falsafa fani oliv mavjudot bo`lgan insonning mohiyatini ochish, ichki dunyosi, odob-axloqi, orzu-intilishlari, ma'naviyatini bilib olish va undan tegishli xulosalar chiqarishga katta yordam beradi. Falsafa fani insonning ichki ma'naviy dunyosi, uning qiziqishlari, e'tiqodi, tushunchalari ming yillar mobaynida shakllanadi, ongida mustahkamlanib boradi, deb ko`rsatadi. Shunga ko`ra siyosiy, ijtimoiy munosabatlardagi tub o`zgarishlarning mahsuli bo`lgan inson ongidagi o`zgarishlar birmuncha murakkabroq bo`lib ma'lum vaqt ichida yuz beradi. Obyektiv olamda sodir bo`lgan yoki bo`layotgan hodisalar, ularning umumlashmalari asosida inson tushunchalari, ongi, fikri shakllanadi. Inson ruhiy dunyosini o`zgartirish yo`lida bo`lgan zo`rliklar, tazyiqlar so`zsiz ravishda ichki, yashirin qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Falsafa fanida belgilab berilganidek, insonning qiziqishlari, talab va ehtiyojlar, shaxsiy manfaatlарини zaruriy ravishda e'tiborga olmasdan, ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini ko`rmasdan turib, odamlarning kuch-qudratidan va imkoniyatlaridan unumli, oqilona foydalanib bo`lmaydi.

Har qanday jamiyat odamlarning, oddiy kishilarning talab va ehtiyojlarini qondirish masalasi bo`yicha amaliy tadbirlarni ko`rgan taqdirda eng murakkab muammolarni bemalol hal qila oladi. Jamiyat manfaati bilan alohida inson va alohida shaxs manfaati o`rtasidagi mutanosiblik bo`zilib, ular o`rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelib, inson va uning manfaatlari e'tibordan chetda qolib ketgudek bo`lsa, jamiyat taraqqiyotini hatto tasavvur ham qilib bo`lmaydi.

Ulkan ijtimoiy-tarixiy vazifalarni hal etishda intizom, qat'iylik, talabchanlik va qatyiy intizom ularga ko`rsatiladigan mehr-shafqat va e'tibor bilan qo'shib olib borilishi kerak. Insonlarni yuqorida beriladigan qarorlar va ko`rsatmalarni shunchaki ijro etuvchi irodasiz va tuyg`usiz temir robotlar deb tushunmaslik lozim. Har bir insonda or-nomus, nafso niyatini yerga uradigan, uning maqsad va niyatları, talab-ehtiyojlarini bayon etilishiga yo`l qo`yilmaydigan darajada bo`lsa, bu muqarrar ravishda ishonchszlikka, umidsizlikka olib keladi, insonning ijodiy faoliyatini, mustaqilligini susaytiradi. Bundan jamiyat, xalq, millat katta zarar ko`radi.

Inson mavjud ekan, uning shaxsiy manfaatlari ham albatta mavjud bo`ladi. Har bir inson jamiyatdagi boshqa odamlar bilan birga umumiyl bo`lgan manfaatlarga egadir va ayni zamonda, uning o`ta shaxsiy, faqat o`zigagina xos bo`lgan talab-istiklari, qiziqishlari ham bor. Jahon falsafasining tarkibiy qismi bo`lgan Sharq falsafasida insonda ikki qarama-qarshi asos: modda va ruh mavjudligi alohida ta'kidlanadi. Ana shu ikki asos inson vujudida mutanosib bo`lishi, biri ustuvorlik qilib, boshqasi orqada qolib ketmasligi kerak. Agar shu tartib bo`zilib moddiylik ruhdan ustun kelib, ruh jism qo`liga aylanib, unga xizmat qilgudek bo`lsa, unda inson amaliy fazilatlari keyinga surib tashlanadi. Aksincha, ruhiy-ma'naviy tomonlari taraqqiy etgan insonlarda aqlu-zakovat, insofu-diyonat, odobu-axloq, ilmu-ma'rifat, mol-dunyoga berilish, hayvoniy nafslarga qo`l bo`lish singari xato va nuqsonlardan ustuvorlik qiladi. Ruhiy-ma'naviy jihat - insonni inson qiladigan, uning hayotini guzallashtiradigan fazilatlardir.

Ma'nан, ruhan, axloqan kamol topgan inson, nafsning qo`liga aylanib qolmaydi, ta'magirlik qilmaydi, yeb-ichishni, boylik to`plashni hayotningmazmuni, yashashdan maqsad deb tushunmaydi. Bunday inson olam sir-asrorlaridan xabardor bo`ladi, o`zi va o`zgalarni xurmat qiladi, qadrlaydi, o`zligini anglab yetadi, milliy tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlarini yuksak darajada e'zozlaydi, ular bilan faxrlanadi. Ruhiy-ma'naviy boylik insonni behad go`zallashtiradi va ayni paytda uni yomon xislatlardan qutqaradi, noto`g`ri yo`ldan qaytarib to`g`ri yo`lga boshlaydi, adolat uchun kurashishiga, xalq yo`lida kamarbasta bo`lishiga da'vat etadi.

Inson vujudi, amaliy faoliyati, fe'l -atvorida ruhiy-ma'naviy tomonlar keyinga surib tashlanib, bema'ni hislar va nafs lazzatlariga berilishi g`oliblik qilsa, unday inson nafs tuzog`iga ilingan, nafsi esa uning eng xatarli dushmani, ichidagi g`animiga aylangan bo`ladi. Agar nafs to`xtovsiz rivojlanib boraversa, unga vaqtida qarshilik qilinmasa, u kishini kundan-kunga to`g`ri yo`ldan ozdiraveradi, rasvoi-jahon qiladi. Hoja Ahmad Yassaviy ta'biricha, "nafs yo`liga kirgan kishi rasvo bo`lur, yo`ldan ozib, toyib, tuzib gumroh bo`lur. Yotsa, tursa shayton bilan hamroh bo`lur..."

Nafsiga erk bergan kishi, sharq musulmon falsafasida qayd etilishicha, behisob azob-uqubat, kulfatlarga giriftor bo`ladi. Nafsga erk berib, mol-dunyo to`plashga berilib ketgan, o`zgalarni uylamaydigan, boshqalar tashvishi bilan kuyib yonmaydigan odam odamiylikdan chiqishi natijasida el-yurt e'tiboridan chetda qoladi. Nafs hakim bo`lgan kungillardan ruhma'naviyat chekinadi. Kungil butunlay nafs diyo riga aylanadi. Bu kungil hech kimga yaxshilik keltirmaydi. Barcha razilliklari zuravonliklar, barcha insofsizliklari makru hiylalar va oqibatsizliklar, bularning hammasi nafs tufaylidir, nafs bandasi bo`lib qolishning oqibatidir. Nafs - hiylakorlikning, quvlik - shaytonlikning, uchiga chiqqan makkorlikning asosidir.

Odamni oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlash mumkinu, ammo nafsiga erk bergan, ochofat kishining ko`zini mol-dunyoga tuydirib bo`lmaydi. Hadisi sharifda aytilishicha, "Insonning bir vodiylari tula molu dunyo berilsa, u ikkinchi vodiyning ham berilishini hohlaydi. Ikkinchidan keyin uchin-chisini va hokazo, uning nafsi tuymaydi. Insonning ko`zini faqat tuproq (qabr tuprog`i) tuydiradi... Bandaning molu dunyoga qo`ygan hirsi ikki och bo`rining quy podasiga qilgan tajovuzidan ko`ra zararliroqdir. Zero, bu bilan uz dini-iymoniga putur yetkazadi".

Insonni ma'naviy, axloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib fazilatlardan biri - halol, pokiza yashash, birovlarining xaqiga zarracha bo`lsada hiyonat qilmaslikdan iboratdir. "Turkiston mulkinining shayxul mashoyixi" Hoja Ahmad Yassaviy e'tiqodicha, "Xaq yo`liga kirib bo`lmas pok bo`lmasdan".

Halol bilan haromni farqlash, faqat o`z mehnati evaziga tirikchilik qilish, harom - harishdan jirkanish, haromxurlikni eng katta gunohi azim va ahloqsizlik deb bilish - bular Sharq faylasuflarining eng muhim g`oyalaridan bo`lib hisoblanadi. Sharqning buyuk faylasuflari, birinchi navbatda diniy al- lomalar, shayxlar, sufiylar halol yeb ichib, pokiza yashashni targ`ibot, tashviqot etibgina qolmasdan, bu masalada o`zлari shaxsan namuna ham bo`lganlar. Ilmiy va diniy allomalar harom taomni yoqtirmaganlar, ko`plari hatto shoxu amirlarning tuhfasini ham qabul qilmaganlar va boy-amaldorlarning mol-mulkini harom deb e`lon qilganlar. Qo`lidan ish keladigan har bir olimu-fuzalo, sufiyu-shayx foydali mehnat bilan shug`ullangan, faqat o`z mehnati bilan topilgan nonni halol deb bilishgan. Masalan, Ahmad Yassaviy dehqon bo`lgan, Shayx Ibrohim Ozariy g`isht teruvchi, Shayx Bannon hammollik qilgan, Shayx Abulhasan duradgorlik bilan shug`ullangan, Bahovuddin Naqshband kimxobga gul naqshlagan, Bahovuddinning piri Sayd Kulol kulolchilik qilgan va paxsa urgan. Shayxlar va ulamolar atrofidagi darveshlar, shogirdu muridlar ham birgalashib qurg`on qurbanlar, vaqf yerlarni ishlaganlar, bog`dorchilik, chuponlik bilan shug`ullanganlar. Ularning hammasi tasavvuf falsafasining "luqmai halol" qoidasiga qat`iy amal qilganlar.

Falsafa borliqning umumiy rivojlanish qonuniyatlarini o`rganib, kishilarda olam haqida yaxlit ilmiy tasavvur, dunyoqarash hosil qiladi. Falsafiy dunyoqarash kishilarga insonni qurshab turgan moddiy olamda ruy berayotgan xilma-xil hodisa va jarayonlar mohiyatini bilib olishda katta yordam beradi. Falsafiy dunyoqarashga ega bo`lgan inson o`ziga ishonib topshirilgan vazifaga ko`r-ko`rona ravishda emas, balki ongli va ijodiy yondashadi, aql-idrokasosida ish ko`radi, jamiyat, xalq va millat oldidagi burchi va mas'uliyati nimadan iboratligini chuqur his etadi, o`tmish avlod-ajdodlari bilan faxrlanadi, milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlar, sharqona odob-axloq va madaniyatni tiklash va rivojlantirish o`zining sharaflı vazifasi ekanligini tushunib yetadi. Falsafiy bilimli va dunyoqarashi rivojlangan inson hech qachon milliy manfaatlar qobig`ida uralib qolmaydi. Milliy qadriyatlar bilan kifoyalanib, jahon madaniyati, boshqa xalqlarning ma'naviy boyliklarini o`rganishdan butunlay voz kechish mumkin emas. Dunyodagi

biror xalq o`z milliy madaniyati boyliklari doirasidangina rivojlnana olmaydi. Milliy xudbinlik yo`lidan borish hech kimga naf keltirgan emas. Milliy manfaat, milliy madaniyat qobig`ida cheklanib qolgan inson uzini ham, xalqini ham to`la kamol topish imkoniyatidan maxrum qiladi. Faqat milliy madaniyatlardan, ularning imkoniyatlaridan boshqa narsani ko`ra olmaslik g`oyatda xatarlidir.

Falsafiy dunyoqarash va madaniyatga ega bo`lgan inson milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlarni bir-biridan o`zaro ajratib tashlamaydi, ularni dialektik birlikda olib qaraydi. Shu sababli ana shu birlik, o`zaro boyish hisobigagina jahon xalqlarining madaniyatları, umuminsoniy qadriyatlar rivojlanishi mumkin. Falsafa fani insonning ma'naviyatiga ega ekanligiga ham alohida e'tibor beradi. Ma'naviyat insonning asosiy fazilatlaridan bo`lib hisoblanadi. Ma'naviyat Prezidentimiz aytganla ridek, "taqdirning ehsoni" insonning to`g`ma xususiyati emas. Ma'naviyat faqat insonga xos xususiyatdir. Ma'naviyatga ega bo`lganligi tufayligina odam farzandi inson degan buyuk va sharafli nomga tuyassardir. Insonni inson qilgan asosiy fazilat yeb-ichishi, surriyot qoldirishi, tabiiy extiyojlarini qondirishida emas, balki mehnat qilishi, aql-idrok va tafakkurga ega bo`lishi, fikrlay olishi, madaniyat va ma'naviyat sohibi bo`lganligidadir.

Sirdan qaraganda iqtisodiyot bilan ma'naviyatning o`zaro aloqasi yo`qday bo`lib ko`rinishi mumkin. Aslida esa buning tamomila teskarisidir. Jamiyat hayotida iqtisodiyotsiz ma'naviyat, ma'naviyatsiz iqtisodiyot yo`q. Ma'naviyat va iqtisodiyot bir-birini hech qachon inkor etmaydi, balki bir-birini o`zaro qo`llab-qo`ltiqlaydi, biridan ikkinchisi ta'sirlanadi. "Biz iqtisodiy unglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni, -deydi I.A.Karimov, - ma'naviy unglanish, ma'naviy poklanish harakatlari bilan tamomila uyg`un bo`lishini istaymiz. Siyosatimizni shunga qarata quramiz va uni to`la tadbiq etamiz. Odamlarimiz omilkor, salohiyatli, oqibatli, halol va ijtimoiy maydonlarda sobit turadigan bulsinlar".

Insonda ma'naviyat asosida yashash va faoliyat ko`rsatishgina emas, balki shu bilan birga uni egallah, rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyati va iste'dodi ham mavjuddir. Ma'naviyat o`z-o`zidan paydo ham bo`lmaydi, rivojlanmaydi ham. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar ugiti bilan birga singadi. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo`l bilan mehnat qilishi kerak. Ma'naviyat insonning hayot tajribasi, mehnati, bilimi, axloq va odobi, avlodlar tajribasi asosida shakllanib boradi. Ma'naviyat insonning o`z xalqi tarixini, uning madaniyatiga vazifalarini chuqurroq bilish va tushunib yetishiga yordamlashadi.

---

#### Karimov I.A. Vatan sajdagox, kabi mukaddasdir.

Inson ma'naviyatsiz yashay olmaydi. Ma'naviyat alohida bir inson uchungina emas, jamiki odamlar uchun ham, xalq, elat va millat uchun ham, jamiyat taraqqiyoti uchun ham o`ta zarur va muhimdir. Ma'naviyatsiz inson bo`limganidek, ma'naviy yetuk, axloqan pok va mukammal insonlarsiz jamiyat va millat ham bo`lmaydi.

Ma'naviyat insonga xos bo`lgan ichki ruhiy holatgina emas, balki jamiyat, davlat, millat taraqqiyotining ham asosiy omillaridan biridir. "Ma'naviyat, - deydi I.A.Karimov, - insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning, kuch-qudratidir. U yo`q joyda hech qachon baxt -saodat bo`lmaydi". Inson ma'naviyati jamiyat, davlat va millat ma'naviyati bilan uzviy aloqadordir. Inson va jamiyat ma'naviyati mohiyat jihatidan yaqin bo`lib, bir-birini o`zaro boyitsa va to`ldirsada, lekin ular aynan teng emas. Inson ma'naviyati millat, davlat va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismidir, xolos. Insonning ma'naviyati, shaxsning ma'naviy kamolotijamiyatda mavjud bo`lgan ko`p qirrali munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy imkoniyat va shart-sharoitlar asosida shakllanadi va amalga oshadi. Millat va mamlakatning madaniy-ma'naviy taraqqiyoti inson ma'naviy kamolotiga asos bo`ladi.

Ma'naviyat insonga suv va havodek zarur. Ma'naviyatning bu jihatlari I.A.Karimovning qo`yidagi so`zlarida o`zining yaqqol ifodasini topgan:

"Saxrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog`ini bosadi.

Xuddi shuningdek inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi. Yer, oila, ota-onas, bolalar, qarindosh-urug`lar, quni-qushnilar, xalq mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga xurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik - ma'naviyatning ma'nosi ana shunday keng". Ma'naviyat insonga muayyan maqsad, kelajakka ishonch bilan borish uchun katta umid, kuch va qudrat baxsh etadi. Jamiyatning, davlat, xalq va millatning, jamiyat a'zosi bo`lgan inson shaxsining ma'naviyatga bo`lgan ehtiyoji shu qadar katta va benihoyatki, uni hech qachon ikkinchi o`ringa surib qo`yish ham, shuningdek, ma'naviyat masalasiga iqtisodiy muammolarni hal qilib bo`lgandan keyin o`tish mumkin, deb uylash ham, tamomila xatodir. Darhakikat, ma'naviyatga intilish inson uchun moddiy ne'matlarni o`zlashtirish, yeyish, ichish, kiyinishinga nisbatan ham muhimroqdir.

Ma'naviyat barqaror bo`lmagan joyda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va iste'mol qilish madaniyati yuksak bo`lmaydi. Dunyoga kelishdan maqsad yeb-ichish, qorin tuydirib, boylik orttirishdan iboratdir, deb hisoblagan odam yuksak ma'naviyat sohibi bo`la olmaydi. Ma'naviy qashshoq bo`lgan odam tuq, farovon, madaniy turmush kechirish me'yorlarini ham bilmaydi. Ma'naviyati yetuk insonlar kelajakni oldindan ko`rishga, qiyinchiliklarni yengishga, og`ir sharoitda ham yuksak maqsadni oldinga qo`yib, uni iymon va e'tiqod bilan yengishga qodir bo`ladilar.

Ma'naviyat insonning o`zligini anglab olishda unga yordam beradi. O`zligini anglagan insongina, o`zligini anglagan millatgina, kuchli davlat, adolatli jamiyat barpo eta oladi. Milliy jihatdan o`zligini tanigan inson millatini, Vatanini, uning o`tmish tarixini, adabiyoti, san'ati va madaniyatini bilib oladi. O`zligini anglagan inson, o`zligini anglagan millat ulug` ajdodlarining aqlo-zakovati va ularning hayotbaxsh meroslariga munosib bo`lishga harakat qiladi, Vatanini o`zgacha mehr bilan sevadi, u bilan cheksiz faxrlanadi, yurtim deb, elim deb yashaydi. Ma'naviyat inson hayotini go`zallashtiradi, turmushga mazmun va mohiyat bag`ishlaydi. Yuksak ma'naviyat va madaniyat sohibi bo`lgan insonning qalbi pok, so`zi bilan ishi bir bo`ladi. Inson ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi shakllanishi, talab-ehtiyojlarining qondirilishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va harakteriga bevosi ta bog`liq. Jamiat qanday bo`lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui bo`lgan inson hamunga mos bo`ladi. Demak, insonning inson sifatida shakllanishi, o`zini namoyon qilishi, ma'naviy kamoloti, qobiliyati va iste'dodini ruyobga chiqarishi uchun jamiyat o`zining barcha jabhalarida insoniyashmog'i lozim.

Tarix saboqdaridan shu narsa aniq va ravshanki, qaysibir davlat yoki jamiyat o`zining moddiy boyliklariga ishonib, asosiy e'tiborini faqat uni ko`paytirishga qaratib, xalqning madaniyatini, insonning ma'naviy extiyojlari rivojlanishini uylamas ekan, u albatta, inqirozga yuz tutadi.

Mustaqil O`zbekiston Respublikasi e'lon qilingan birinchi qadamlaridanoq insonning odob-axloqi, bilimi, dunyoqarashi, ma'naviyati rivojiga katta ahamiyat berilganligi uning kelajagi buyuk ekanligiga yaqqol dalildir. Ma'navii kamolot, bilim, odob-axloq, iymon-e'tiqod, falsafiy dunyoqarash inson uchun ham, jamiyat uchun ham bebaho boylikdir.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish -uning g`oyaviy-madaniy yuksalishining omili Inson huquqlari va erkinliklar ko`p qirrali muammo bo`lib, uz ichiga kishilarning fuqarolik, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari va erkinliklarini qamrab oladi.

Kishilarning fuqarolik huquq va erkinliklari ustida so`z yuritganimizda shuni e'tiborga olishimiz kerakki, xalqimiz tarixida birinchi marta O`zbekiston Respublikasi xududida yagona fuqarolik uni ko`zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so`zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

O`zbekiston Respublikasi fuqarosi O`zbekiston Respublikasi xududida bir joydan ikkinchi joyga ko`chish, O`zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir.

Har kim fikrlash, so`z va e`tiqod qilish, uzi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. Amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo`lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolariga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo`lgan xujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xoxlagan dinga e`tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e`tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo`l qo`yilmaydi.

Konstitutsiyada hozirga davr talabidan kelib chiqib har bir insonning siyosiy huquqlari to`la-to`kis va atroficha ochib berilgan. Unga muvofiq O`zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o`z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o`zini o`zi boshqarish, referendumlar o`tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo`li bilan amalgalash oshiriladi.

Jamiyatimizda iqtisodiy va boshqa sohalarda ro`y berayotgan jarayonlarni, jumladan, bozor munosabatiga o`tish qonuniyatlarini hisobga olgan holda, unda har bir insonning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari aniq ko`rsatib berilgan.

Har bir shaxs mulkdor bo`lishga haqli. Bankka qo`yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishslash va qonunda ko`rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir.

Barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqt va haq to`lanadigan mehnat ta'tilning muddati qonun bilan belgilanadi.

Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo`qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo`lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam va boshqa turlarning miqdori rasman belgilab qo`yilgan tirikchilik uchun za-rur eng kam miqdordan oz bo`lishi mumkin emas.

Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiyligi ta'limga olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir. Har kimga ilmiy, texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g`amxo`rlik qiladi.

Konstitutsiyaning yana bir afzallik tomoni shundan iboratki, unda insonning barcha huquq va erkinliklari atroficha ochib berilishi bilan birga u inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yo`llari, kafolatlari aniq ko`rsatib qo`yilgan.

Konstitutsiyada har bir shaxsga o`z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g`ayriqonuniy hatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi, deb ta'kidlanadi. Unda voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg`iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar, degan muhim qoidalar ham mavjuddir.

Aytib o`tilgan inson huquqlari va erkinliklari uning inson sifatida yashashining zarur sharti, tabiiy ehtiyojlaridir. Insonning inson sifatidagi ana shu va boshqa tabiiy ehtiyojlar, huquqlari, erkinliklari bug`ib qo`yimasligi kerak. Shu narsani afsus bilan aytish mumkinki, jahoning ayrim mamlakatlarida mazlum ommaning insoniy huquqlari va erkinliklarini chegaralab qo`yish, poymol qilish hamon davom etmoqda. Milliy, diniy kamsitishlar, irqchilik, ba`zi bir xalqlar va mamlakatlarning tili, urf-odatlari, tarixi, madaniy meroslari, milliy qadriyatlarini nazar-pisand qilmaslik, ularning huquqlari va manfaatlariga, suverinitetiga shu

tariqa juda katta zarar keltirish hanuz tugatilgan emas. Bu oddiy bir kamchilik emas, balki butun insoniyat va tarix oldidagi eng og`ir jinoyatdir.

Shaxsning huquq va erkinliklaridan tashqari uning jamiyat va insoniyat oldidagi burch va mas'uliyati ham mavjuddir. Muayyan bir jamiyatda yashab turib, shu jamiyatning qonun-qoidalari, axloqiy, huquqiy normalariga amal qilmaslik, uning muammolari, qiyinchiliklariga befarq qarash aslo mumkin emas. Har bir mamlakatning Konstitutsiyasida belgilab qo`yilgan qonunlarga amal qilish, uning tarixiy, ma`naviy merosini avaylab asrash, qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig`imlarni to`lash va boshqa shu kabilar shaxsning burchli va ma'suliyatidan iboratdir. Har bir shaxsning umumxalq, umuminsoniyat manfaatlariga to`la taalluqli bo`lgan burchlari va mas'uliyatlari ham bo`ladi. Bularga tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklarini qo`riqlash, madaniy-tarixiy yodgorliklarini saqlash to`g`risida g`amxo`rlik qilish, boshqa mamlakatlarning xalqlari bilan do`slik va hamkorlikni rivojlantirish, yalpi tinchlikni saqlash va mustahkamlashga ko`maklashish singari burchlar kiradi.

Inson ma`naviy kamolotida vatanparvarlik, yuksak odob-axloq tarbiyasining ahamiyati

Insonning g`oyaviy-siyosiy yetuk va barkamolligi, shaxsniing ma`naviy, axloqiy kamoloti o`z Vataniga bo`lgan muhabbatni, xurmati, sadoqati bilan belgilanadi. Vatan degan buyuk ilohiy e'tiqodini qalbida to`la-to`kis jo qilmagan insonda iymon ham, diyonat ham bo`lmaydi.

Inson uchun Vatan aziz va mu'tabar, Vatandan muqaddas va qutlug`roq tuyg`uning o`zi yo`q va bo`lmaydi ham. Vatan bizning tomirimiz, o`q ildizimiz, tayanch nuqtamiz, hayotimiz manbaidir. Vatan bizning uzoq o`tmishimiz va porloq istiqlolimiz, baxtli kelajagimizdir. Vatan - qiyosi yo`q bebahो boylikdir.

Vatan deganda hamisha o`zimiz to`g`ilib o`sgan, ta`lim-tarbiya olib voyaga yetgan, nechanecha avlodu ajdodlarimiz yashab o`tgan, ularning aqlu idrokleri, mehnatlari sarf etilgan muqaddas yurt ko`z oldimizga keladi. Vatan bu ota yurt, ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlarini chinakamiga shakllanib, chuqur ildiz otib, usib, kamolot topib boradigan zamindir. Vatan muqaddas qadriyat. Taraqqiyot Vatandan boshlanadi. U insonning kindik qoni tukilgan joy, har kimning borlig`ini qadrlovchi zamin, ma`naviy kamol va fuqarolik maydonidir. Shuning uchun ham har bir inson uz dardalamini, orzu-umidlarini Vatan taqdiri bilan bog`lab kelgan.

Inson uchun Vatan yagonadir. Vatanning yaxshi-yomoni ham, boy-kambag`ali ham bo`lmaydi. Vatan tanlanmaydi. Vatan bizning molimiz emas. Shuning uchun ham u pulga sotilmaydi. Vatan in'om etilmaydi, qarzga berilmaydi. Vatan har bir fuqaro uchun muqaddas va betakrordir. Vatanni sevish, ona diyorning qadriga yetish, uning kamoloti, gullab yashnashi, osoyishtaligi uchunqayg`urishi zarurligini yoshligimizdan boshlab ongimizga singdirilishida chuqur ma`no bor. Chunki har qanday inson Vatani, ota-bobolari o`tgan muqaddas zamin bilan faxrlanib yashaydi.

Vatanni sevish, uning har bir qarich yerini, har bir siqim tuprog`ini muqaddas bilib qadrlash, ko`zga tutiyo qilib surtish, xalqimizga xos xususiyat bo`lib, bu avlod-ajdodlar merosi sifatida yillardan-yillarga, asrlardan-asrlarga o`tib, davom etib, sayqal topib kelmoqda.

Hamid Olimjon "Men o`zbek xalqi nomidan so`zlayman" degan maqolasida bu haqda shunday degan edi: "Mening xalqim o`z kindigining qoni tukilgan tuproqni uz onasiday aziz kuradi. Mening xalqim uz bobolari ko`milgan tuproqni upadi, shu tuproqni harom, nopol qilgan odamni o`ldiradi. Qadim o`zbek botirlari uzoq safarga ketganlarida bir hovuch Vatan tuprog`ini doim uz yonlarida olib yurganlar. Chunki bu tuproq ularga o`z to`g`ilgan yerlarini eslatib turgan, xalq oldida ichgan qasamini yodga solgan. Vatanga bo`lgan muxabbatini bir nafas ham unuttirmagan".

Vatandan ayriliqda yashagan, o`zining butun borlig`i, g`oyasi tanu jonini millatiga baxsh etgan kishilarni Shuro matbuoti, komfirka mafkurasi va siyosati uzoq yillar davomida "Vatan xoinlari", "Vatan gadolari" deb badnom qildi. Ularga qarshi qanchadan-qancha kitoblar,

maqolalar yozildi, tuxmatlar, ig`volar uyuştırıldı. Aytılganlardan körinib turganidek, Vatanımızning ozodligi va mustaqilligini ko`rish istagi va orzusi faqat bizlardagina emas, balki musofir yurt larda sarson-sargardonlikda yurgan aziz vatandoshlarımızning dillerida ham allaqachonlardan beri tulib-toshib kelayotgan edi. Buyuk bobokalonlarımız, avlodu-ajdodlarımız zo`r intizorlik bilan ko`tgan kunni, Vatanımız ozod, erkin va mustaqil bo`lganini ko`rish har birimiz uchun eng katta quvonch, buyuk baxtdır.

Mustaqillik - jamiyatımız a'zolari ongidagi millat, Vatan, ona-zamin haqidagi tushunchalar o`zining asl ma'nolariga qaytmoqda. Mustaqillik tufayli biz o`z Vatanımızga ega bo`ldik. Jahon haritasida O`zbekistan atalmish mustaqil davlat paydo bo`ldi.

O`z xalqining erki, ozodligi va mustaqilligi, baxt-saodati, sevinchi va quvonchi respublikamizda istiqomat qilib kelayotgan qozoqlar, qirg`izlar, ruslar, turkmanlar, koreyslar, tatarlar, uyg`urlar hamda boshqa mamlakatlardagi xalqlar va millatlar bilan samimiy do`stlik va qardoshligidadir.

Tarix o`zbek xalqining zimmasiga g`oyat buyuk, muqaddas vazifani yukladi. Bu - Vatanımız kuch-qudratini mustahkamlash, uning dovrug`ini olam o`zra yoyish, shuhratiga-shuhrat qo`shishdir, Vatanni butun borlig`i ila sevmagan, Vatan erki, yurt ozodligi uchun hayotini tikmaydigan kishini vatanparvar deb bo`lmaydi.

Mustaqil O`zbekistonimizning ravnaqi, istiqloli, usib kelayotgan navqiron avlod tarbiyasi va ta'limga ko`p jihatdan bog`liq. Yoshlar Vatanımızning, millatimizning kelajagidir. Vatanımız taqdirini ularga ishonib topshiramiz. Buning uchun ular zimmalariga yuklatilayotgan eng murakkab va ma'suliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, his qilishlari, unga o`zlarini hozirdanoq tayyorlashlari lozim.

Yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg`ularini shakllantirish va rivojlantirishda oila tarbiyasi katta o`rin tutadi. Jamiyatning, davlatning, insonning kelajagi oiladan boshlanadi.

Insonda yurtga, Vatanga muhabbat, kelajakka ishonch, umid tuyg`ularini shakllantirish va rivojlantirishda ta'limg-tarbiyaning ahamiyati benihoyat kattadir. Abdulla Avloniy bu xaqda "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo falokat masalasidir" deb yozgan edi.

Ulkamiz xalqlarining usib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ma`naviy kamol toptirish imkoniyatlari bitmas-tuganmasdir. O`zbek xalqida dunyo xalqi tan olgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud. Oila a'zolarining jamuljam bo`lmasa ovqat yemay turishi, oila boshlig`ini odob saqlab kutish, ota-onani o`rnidan turib kutib olish, ularga har doim iltifot ko`rsatish, kattalarga xurmat, kichiklarga mehr-shafqat, qarindosh-urug`lar, quni-qushnilarga, mahalladoshlarga, tanish-bilishlarga yordamini ayamaslik va boshqalar bunga misol bo`la oladi. O`zidan kattalarni, birinchi navbatda, keksa bobolar, nuroniy onalarni xurmat qilish, e'zozlash, ular uchun qo`dan kelgan yordamni ayamaslik o`zbek xalqining an'anaviy udumi bo`lib, u o`zbek oиласида yoshlikdan bolalar ongiga, qon-qoniga, vujud- vujudiga singib ketgan fazilatdir.

Mustaqil O`zbekistan Respublikasining Konstitusiyasida odob-axloq masalasida, xususan farzandlarning jamiyat, oila hamda ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va ma'suliyatlari nimalardan iboratligi to`g`risida milliy qadriyatlarimizdagisi asosiy g`oya va qoidalar davr talabiga binoan belgilab berilgan.

Bilimni sevish va ardoqlash, olimu fuzalolarni, ustozlarni xurmat qilish, mardlik, odamiylik, kamtarlik,adolat, halollik va xaqguylig kabi insoniy fazilatlarni ulug`lash borasida ham boshqalar ibrat olishi mumkin bo`lgan ajoyib qadriyatlarimiz ko`p.

Bilim va zakovatning qimmati, jamiyat taraqqiyoti va shaxs ma`naviy-axloqiy kamoloti uchun ahamiyati shu qadar kattaki, uni ta'rif qilgan bilan ado qilib bo`lmaydi. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadrliroq hech narsa yo`qligi to`g`risida qadimgi hind xalqining "Kalila va Dimna", Nizomul-Mulkning "Siyosatnoması", Nosir Xisravning "Saodatnoması", "Rushnoması", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg`u bilig", Ahmad Yugnakiying "Hibatul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Alisher Navoiyning "Hamsa" kabi jahon olimlarining e'tiborini

o`ziga tortgan mashxur asarlarida bir-biridan muhim, bir-biridan sermazmun fikrlar bayon etilgan.

Bizning ilm-fanimizda, madaniyatimiz va tariximizda insonni ilm asoslarini bilib olishga da'vat etmagan, bilimning xosiyati xaqida kuyib-yonib bayon etmagan shoiru yozuvchi, olimu fuzalolar bo`lmagan desak mubolag`a bo`lmaydi. Misol uchun Muhammad ibn Muso al - Xorazmiyning, Abu Nasr Forobiyning, Ahmad Farg`oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinoning, Alisher Navoiyning muborak nomlarini eslashning o`zi kifoya qiladi.

XII asrning iste'dodli shoiri va donishmand murabbiysi Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" ("Haqiqatlar armug`oni") asarida ilmli bilan bilimsizni, olim bilan johilni qiyoslab bayon etgan quyidagi fikr bunga misol bo`la oladi: "Bilim to`g`risida so`zlamoqdamon, so`zimni yaxshi tingla, bilimdon kishilarga o`zingni bog`la. Bilim bilan baxt-saodat yo`llari o`rganiladi, bilim egallab saodat yulini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir".

Yusuf Xos Hojibning fikricha, zakovat qorong`i tundagi mash'al kabidir, bilim esa nur tarqatuvchi yorug`likdir. Kimda zakovot bo`lsa, usha asl odam bo`ladi, kimda bilim bulsa, u martabaga erishadi. Odam zakovati tufayli asldir, bilim javhar kabi bir yerda tuplanib turadi, u zakovatning koni-dir, bir yerda jamlanib yotadir. Mushkanbar va bilim bir-biriga o`xshash narsalardir, ularni o`zidan, bulaklaridan yashirib saqlab bo`lmaydi.

Mushkanbarni yashirsang, uni hidi oshkora qiladi, bilimni yashirsang, uni tiling oshkora qiladi. Bilim o`z sohibini qashshoq qilmaydigan bitmas-tuganmas boylikdir, o`g`ri va qalloblar uni hech qachon o`g`irlab ololmaydilar. Mustaqillikning ma'naviy zaminlarini mustahkamlashda diniy g`oyalar va qadriyatlardan, ayniqsa, odob, axloq borasida islom dini ta'limotidan oqilona ijodiy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Islom dinida nafaqat milliy, balki umuminsoniy ahamiyatga ega bo`lgan, xozirgi paytda ham o`z qimmatini to`la saqlab kelayotgan eng muhim axloqiy qoidalar, falsafiy fikr-mulohazalar behisobdir. Islom odamlarning dinidan, millatidan qat`iy nazar o`zaro xurmat-izzatda bo`lishga, bir-birini moddiy, ma'naviy, ruhiy qo`llab quvvatlashga undaydi. Millat ajratish, boshqa millat vakillarini kansitish islom diniga tamomila yotdir.

Islom dinida birovlarning xaqiga ko`z olaytirish, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o`g`rilik kabi qabix ishlar bilan shug`ullanish, fohishabozlik, poraxo`rlik qattiq qoralanadi. Din odamlarni to`g`ri yurish, insofli, diyonatli bo`lish, o`zidan yaxshi iz qoldirishga da'vat etadi.

Tarbiya, odob, axloq, o`zaro do`stona munosabatlar, qarindosh, ota-onva farzandlarning xaq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat singari insoniy qadriyatlar islomda keng tashviq qilinadi. Buning aksicha, razolat, kibrhavo, adovat, hasad, xiyonat, yolg`onchilik, fitna-fasod, zulm kabi insoniylik sha'niga dog` tushiradigan razil sifatlar esa keskin qoralanadi.

Imkonli boricha va qayerda qodir bo`lsang ilm urgan, ma'rifatingni ziyoda qil, degan g`oya islom dinining mag`iz-mag`ziga chuqr singdirib yuborilganligini Hadisi sharifdan olingan misollardan ko`rish mumkin:

"Ilmni Chin mamlakatida bo`lsa ham talab qilinglar", "Beshikdan to tobutgacha ilm o`rgan". Ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, vatanparvarlik va in sonparvarlik kabi insoniy fazilatlar qanchalik avaylab-asralsa, hayotga keng joriy etilsa, insonning yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyat shunchalik kuchayib, takomillashib boradi.

Inson bunyodkorlik faoliyatining usishi - ma'naviy kamolot mezoni. Jamiyat taraqqiyoti quiy bosqichdan yuqori bosqichga, o`tmishdan kelajakka hamon rivojlanib borgan sari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotda xalq ommasining roli, g`ayrati, uyushqoqligi ortib va chuqurlashib, inson amaliy faoliyatini jadallahishib boradi. Bu - umuminsoniyatga xos qonuniyatdir. Tarixiy maqsadlar kulami keng, inson shaxsi barkamol bo`lsa, u vijdonan mehnat qilsa, ijtimoiy-siyosiy ishlarda faol ishtirok etsa, jamiyatimiz shu qadar tez rivojlanadi va mustaxkamlanadi. Insonning ijodiy tashabbusi, jonli ijodiyoti jamiyatimizning kuchi va hayotiyligining eng muhim manbaidir.

Har bir jamiyat o`ziga munosib bo`lgan inson shaxsini yuzaga keltirganidek, inson ham shu jamiyatning paydo bo`lishi va rivojlanishiga befarq qaramaydi. Shaxs ayni paytda atrof-muhitga ta'sir ko`rsatish, uni o`zgartirish qobiliyatiga ham ega. Uning jamiyatga ta'siri maqsadsiz, rejasiz, ko`r-ko`rona faoliyat orqali amalga oshmaydi. Inson jamiyat qonunlarini, o`z hayoti sharoitlarini bilib olgan, ma'lum maqsadga qaratilgan faoliyatini amaliy kursatish yo`li bilan ijtimoiy muhitni, jamiyatni o`zgartira oladi. Inson faqat sharoit va tarixning maxruligina bo`lmay, balki ularni yaratuvchi hamdir. Tarixiy jarayonda xalq ommasining qanchalik faol ishtirok etishi, g`ayrat va tashabbus ko`rsatishi moddiy va ma'naviy boyliklar ijodkor bo`lgan mehnatkash insonning shijoatiga, onglilik darajasiga, o`ziga topshirilgan ishlarga qanchalik mas'uliyat bilan yondosha bilishi, ijodiy tashabbuskorligiga ko`p jihatdan bog`liqdir. Bu fikr ijtimoiy taraqqiyotimizning hozirgi tarixiy bosqichiga ham bevosita taalluqlidir. Mustaqillikni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish har bir inson shaxsidan o`z burchini ko`r-ko`rona bajarishni emas, balki ongli, ilmiy asosda yondoshishni talab qiladi. Shuning uchun ham hozirgi davrda har bir kishi, har bir shaxsni g`oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirish, har tomonlama yetuk va barkamol bo`lishiga erishish, siyosiy, madaniyatli qilish mamlakatimizni ravnaq toptirish, demokratiyani rivojlantirishning asosiy shartlaridan bo`lib qoldi.

Hozirgi demokratiyalashtirish bosqichida inson rolining kuchayib borayotganligi muammosining bir necha jihatlari bor. Bir tomondan, u ijtimoiy ishlab chiqarish xodimini kamol toptiradi, uni rag`batlantiradigan omillarni belgilab beradi. Ikkinchi tomondan, odamlarning mehnat g`ayrati malakasini oshirishga qayta ta'sir qiladi, uning taraqqiyotini jaddalashtiradi. Inson shaxsining boyligi, faolligi, eng avvalo, mehnat faoliyati sohasida ruyobga chiqadi. Mehnat sohasidagi faollik shaxs faolligining boshqa hamma shakllariga qaraganda belgilovchidir. Bu tasodifiy emas, albatta. Chunki ayni shu sohada insonning olgan bilimi, orttirgan tajriba va malakasi va boshqalar amalda qo`llaniladi, namoyon bo`ladi.

Jamiyat taraqqiyoti haqidagi har qanday g`oyalar avvalo insonning ijtimoiy tafakkurida shakllanadi, keyin e'tiqodga aylanib, faoliyatiga yo`nalish beradi. Insonning har qanday amaliy faoliyati, mehnati ma'rifiy, tarbiyaviy, mafkuraviy tadbirlar asosida amalga oshadi.

Mehnatda insonning qobiliyati va iste'dodi, aql idroki va tafakkuri namoyon bo`ladi. Inson aqli, qo`li bilan nimaiki qilmasin, uning zaminida fikr, tushuncha, bilim, iste'dod, qobiliyat sifatida shakllangan ma'naviyat yotadi.

Mehnat jamoasida insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlari, aqliy va jismoniy faoliyati shakllanadi, yuzaga chiqadi. Moddiy hayot, ishlab chiqarish usuli insonning ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi ishtirokiga sabab bo`lganidek, shaxsning mehnat sohasidagi faolligi ham o`z navbatida uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy rivojlanishiga o`z ta'sirini ko`rsatadi.

Mehnatkashlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirish hozirgi davrning tub muammolaridan biridir. Hayot o`rtaga quyayotgan ulkan vazifalarni yuqoridan turib amalga oshirib bo`lmaydi. Buning uchun mehnatkash insonning bevosita ishtiroki, uning moddiy mehnati, ijtimoiy -siyosiy faolligi zarurdir.

Hozirgi dolzarb vazifalarni amalga oshirishning zarur sharoitlaridan yana biri - inson ruhiyatini o`zgartirishdan iboratdir. Inson ongini, ijtimoiy ruhiyatini qonun chiqarish yo`li bilan ham, buyruq berish asosida ham o`zgartirib, qayta kurib bo`lmaydi. Kishilar ongida o`tmishda ro`y bergen xato va kamchiliklar ta'siri ostida shakllangan eski qarashlar, tasavvurlar, tushunchalarni bartaraf etish tarbiyaviy ishlarni muntazam ravishda olib borishni, barcha salbiy hodisalarni tag-tomiri bilan tugatishni, ijtimoiy adolatni so`zda emas, amalda qaror toptirishni taqozo etadi. Avvalo, kishilarning moddiy hayot sharoitlarini yaxshilamasdan turib, ularning ongini o`zgartirib bo`lmaydi.

Inson ruhiyatini qayta ko`rilmasa, yangichasiga fikrlash va ishlash istagi, hamda mahorat hosil qilinmasa iqtisodiyotda, boshqaruvda, tarbiyada, ijtimoiy sohada biron-bir narsani o`zgartirish amri maholdir.

Hozirgi davrning inson shaxsiga bergan ajoyib ne'matlaridan biri demokratiya, ijtimoiy adolatning asta-sekin tiklanishidir. Demokratiya yaratib bergan imkoniyatlaridan to`g`ri va oqilona foydalanish uchun oddiy istakdan tashqari yuksak siyosiy madaniyat, vazminlik, ma'naviy poklik, sof vijdon, uzoqni ko`zlab ish qila bilish qobiliyati ham kerak.

Ijtimoiy taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida insonning bunyodkorlik faoliyati respublikamizda demokratiyanı rivojlantirish va ijtimoiy adolatni qaror toptirishda kuchliroq namoyon bulmoqda. Biz hozir shunchaki demokratik jamiyat emas, balki demokratik odil jamiyat qurmoqdamiz.

O`zbek xalqi demokratik odil jamiyat haqida juda qadimi an'analarga ega. O`z davlati tizimini "kuch- adolatdadır" shiori ostida tuzgan Amir Temur tarixi bunga yorqin misoldir. Yevropaning biron-bir davlatida hali qomus haqida oddiy tushuncha ham bulmagan davrlarda Amir Temur o`z davlatini qomusiy qonunlar majmuasi - "Tuzuklari" asosida adolat yo`li bilan boshqargan edi.

Insonning bunyodkorlik faoliyati negizida barpo etilayotgan demokratik odil jamiyatning asosiy xususiyatlari, mohiyati nimadan iborat? Adolatli jamiyatning birinchi talabi - aholining turli tabaqalarining o`zaro uyg`un bo`lishini ta'minlashdir. Ikkinci talabiga ko`ra, el-ulusning xaq-huquqlari teng ta'minlangan holda kishilarni xizmatga tayinlashda shaxsning saloxiyati va imkoniyalaridan kelib chiqish lozim. Uchinchisi, barchaning farovonligini ta'minlash bilan birga bu farovonlikni yuzaga keltirishdagi xizmati va huquqiga qarab har bir inson uz ulushini olishga imkon yaratishdan iboratdir. Turtinchi talabi, ayrimlarning boshqalar mehnatining rohatiga sherik bo`lishiga yul qo`ymaslikdir. Adolat - bu tenglik va ozodlik, haqiqat va qonunning ustivorligi, iymon, ma'rifat tantanasi, poraxo`rlik, noqonuniy savdo-sotiq, uyushgan jinoyatchilik, axloqsizlikka mutlaqo yo`l qo`ymaslik, ularni tomiri bilan sug`urib tashlash, ayrimlarning haddan tashqari boyib ketishi, boshqalarning esa uta kambag`allashishiga aslo yul bermaslikdir. Adolat qoidalariga asoslangan odil, demokratik jamiyatning vujudga kelishidan g`oyat manfaatdor bo`lganligi uchun ham, respublikamiz mehnat axli bu masalada tashabbus ko`rsatmoqda.

Mehnatkashlar ommasining yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyati mustaqilligimizning siyosiy negizlarini mustahkamlashda, xususan, davlatni boshqarishda ham ko`zga yaqqol tashlanmoqda. Bizda xalqimizning mehnati va jasorati bilan tuzilgan huquqiy-demokratik davlat xalqning o`zi tomonidan boshqarilmoqda. Shunday qilinmasa, siyosiy mustaqillikni ta'minlab bo`lmaydi.

Keng mehnatkashlar ommasining faol ijtimoiy-siyosiy faoliyati, o`z-o`zini boshqarishning to`xtovsiz avj olib borishi jumhuriyatimiz hayotining hamma sohalarida uz ifodasini topmoqda. Buni, birinchi navbatda, jamiyat hayotining asosi bo`lgan moddiy boyliklar yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, oziq-ovqat muammolarini hal etish, turli korxonalar, uyushmalar, birjalar, fondlarning tashkil etishi va boshqa sohalarda ko`rish mumkin.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi mehnatkashlar ommasining xujasizlikka, turachilikka, huquq-tartibotni buzuvchilarga, ko`zbuyamachilikka va uyushgan jinoyatchilikka, poraxo`rlikka, tanish-bilishchilik, oshna-og`aynigarchilik asosida ish bitkazuvchilarga, xullas, ijtimoiy adolat prinsiplariga tubdan zid bo`lgan harakat va intilishlarning har qanday turlari va ko`rinishlariga qarshi kurashishni avj oldirib yuborganligi bilan harakterlanadi.

Jamiyatning o`z-o`zini boshqarish darajasi kishilar ongingin usishi, tafakkur madaniyatining yetukligi bilan uzviy bog`liqdir. Ma'lumki, odamlar demokratiya va oshkoraliydan oqilona foydalanishga ham g`oyaviy, ham ma'naviy jihatdan tayyor bo`lsalarginajamiyatimiz oldida turgan vazifalarni hal qilishga yordam beradilar. Buning uchun yuksak madaniyat va ma'naviyat, uzoqni ko`ra bilish va donolik, g`oyaviy, madaniy yetuklik va poklik, yangicha fikrlash imkoniyatlaridan foydalana bilish zarur.

Hozirgi ijroiya hokimiyatining roli kundan-kunga ortib borayotgan bir paytda joylarda o`z-o`zini boshqarishni keng joriy etish bilan birga barcha boshqaruv organlaridan turib intizomni saqlashni talab qilish ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, joylarda intizom bo`shashib ketishi oqibatida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidentimiz, xukumatimiz

tomonidan qabul qilingan qonunlar, qarorlar, farmoyishlar ba'zan o`z vaqtida va to`liq bajarilmay qolayapti. Ijroiya hokimiyatining kuchi intizomga qatyiy rioya etishni ta'minlashdadir. Intizom yuk, joyda hokimiyat ham bo`lmaydi. Bu tarix tajribasida sinalgan haqiqatdir.

Xalq xujaligini barqororlashtirish, iqisodiy muammolarni bartaraf etish, bozor munosabatlariga o`tishni amalga oshirish, milliy va millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, jamiyatning barcha sog`lom kuchlarini jipslashtirishga qaratilgan qat'iy siyosat kelajagimiz uchun juda katta ahamiyatga ega.

Inson manfaati, uning baxt-saodati, ma'naviylik va insonparvarlik qoidalarini qaror toptirish yulida jamiyatni demokratik negizlarda yangilashni hayotning o`zi talab qilmoqda. Respublikamizning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini, ijtimoiy adolat ni, ma'naviy yangilanishni, barcha millat va elatlar uchun munosib turmush sharoitini amalga oshirish bularning hammasi O`zbekistonning hozirgi davri va kelajagi uchun muhimdir.

### **OZOD SHAXS MA'NAVIYATI**

O`ziga xos taraqqiyot yo`lini tanlagan o`zbek xalqi ozod va farovon jamiyat barpo etish maqsadida shaxdam qadamlar tashlamoqda.

Bu maqsadning ruyobga chiqishi nafaqat iqtisodiy-siyosiy islohatlarga, balki mustaqil fikrga, chuqur bilimga ega bo`lgan shaxslarning o`z taqdirini vatan taqdiri deb bilib, ongli hayotni el-yurt manfaatiga baxsh etishga ham bog`liqdir. "Ozod shaxs kim, shaxs va jamiyat o`rtasida qanday munosabatlar mavjud?" degan savollarga javob berishdan oldin "shaxs" so`ziga sharx, berish o`rinli. Bu so`z arabcha bo`lib "kishi", "inson", "alohida bir odam" degan ma'nolarni anglatadi. Tushuncha sifatida betakror xususiyatlarga ega alohida insonni ifoda etadi. Shaxs muammosining ildizlari qadim zamonalarga borib tutashadi. Kishilik tarixi ibridoiy jamao shakliga o`ta boshlagan davrdayoq to`da yoki qabila boshliqlari - muayyan xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi kishilar paydo bo`lgan. Ular kuchi, aqli, axloqi, faxmi farosati bilan odamlarga urnak bo`lib, uz qavmining boshini qovushtirgan. Boshqaruv shaklining usullari ko`payib borishi oqibatida shaxsning ahamiyati yanada oshib, jamiyatning asosiy mezonlaridan biriga aylangan. Ichki imkoniyat va iqtidorini namoyon eta oladigan kishilar taraqqiyotning old saflariga utib, ortlaridan odamlarni ergashtirgan. Shu bois "insoniyat tarixi ayrim shaxslar tarixidan iborat" deguvchilarning gapida jon bor. Darhaqiqat, o`zlarining favqulodda imkoniyatlarini namoyish etgan shaxslar xaqli ravishda tarix sahifalaridan joy oladi.

Endi shaxs erkinligiga to`xtaladigan bulsak, kishining barcha sohada o`z huquqi va imkoniyatlaridan tuliq foydalana olishi uni har qanday tobelikdan xalos etadi. Inchunun, ozod shaxsni boshqarishga hojat yo`q.

Shuning uchun shaxslar ko`p jamiyatda erkin munosabatlar qaror topadi. Jamiyatning erkinligi shaxslar soni bilan belgilanadi. Chunki har bir shaxs ijtimoiy-ma'naviy hayotga uzlusiz ta'sir qilishga qodir. Binobarin, jamiyatni alohida shaxslar boshqaradi va bu jarayonda shaxs ma'naviyati muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning baxtiyorligi, Alber Komyu ta'biri bilan aytganda, unda yashovchi har bir odamning baxtidan iboratdir. Bunday saodatga esa shaxs ma'naviyatini oshirish orqali erishish mumkin. Ma'naviyat shaxs timsolining o`zagi, insonning botiniy kuch-qudratidir. Demak, shaxs ma'naviyatining shakllanish darajasi jamiyat taraqqiyotining bosh omili hisoblanadi. Soddagina qilib "komillikka intilish" iborasi bilan ta'riflanadigan ma'naviyat tushunchasi keng ma'noda beqiyos masalalarni qamrab oladi. Insonga ishchi kuchi deb emas, balki hayotning gultoji sifatida qarash, uni tabiatning xokimi, teng huquqli a'zosi deb bilish shaxs ma'naviyatining birlamchi shartlaridir. Bugun O`zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarning pirovard natijasi shaxsning o`zligini namoyon etishi va turmush farovonligini ta'minlashga qaratilgan.

Iqtisodiyotning siyosatdan ustun qo`yilishi, barcha islohotlarning maqsadini ma'naviyat deb bilish o`zbek xalqining yetakchi g`oyalari sanaladi. Shaxslar mamlakatiga aylanishni orzu qilayotgan millatning ilg`or fikrli kishilari shu maqsad yo`lida yashab, ijod etmoqda. Ularning kuch-qudrati, hayotining mazmun-mohiyati ezgulikda, ruhiy tozalanishda ifodasini topgan.

## **INSON FAZILATI BILAN ULUG`.**

Tabiat ayol va erkak zotini shunchalik ustamonalik bilan yaratganki, ularning bir-biriga intilishlari, birining ikkinchisidan baxramand bo`lishi, o`zaro hamkorligi, do`stligi, qonuniy tarzda ro`y beradi. Ayollar va erkaklarning o`zaro yaqinligi faqat oila qurish, farzand ko`rish va ularni ustirishdangina iborat emas. Birinchi navbatda ular bir-birlariga inson sifatida kerak.

Nemis faylasufi Immanuel Kant o`zining "Go`zallik va yuksaklik tuyg`ularining o`zaro munosabati" nomli asarida ayollar va erkaklar o`rtasidagi munosabatni go`zallik va yuksaklik tushunchalari orqali izohlab beradi. Uning ta'kidlashicha, ayollar go`zallik ramzi bulsa, erkaklar yuksaklik ramzidir. Hayotda, tabiatda go`zallik doimo oliyjanoblik bilan hamnafas bo`lganligi uchun ayollar va erkaklar bir-birisiz yashay olmaydilar.

Bu ikki jins o`rtasidagi samimiylit, beg`arazlik, do`stlik tufayli ayollar erkaklarga go`zallik tuyg`usini, erkaklar esa ayollarga oliyjanoblik tuyg`usini baxsh etadilar. Natijada olam go`zal fazilatlar bilan guliston bo`ladi. Faylasuf bu fikrlaridan shunday xulosaga keladi: har bir jins vakilining uziga xos fazilati bo`lib, bu fazilat unga tabiat tomonidan baxsh etilgan. Tabiat in'om etgan fazilatlarni avaylab saqlash, uni bir umr namoyon qila olish har bir jins vakilining burchidir.

Qizlar va yigitlar uchun ham bab-barobar zarur bo`lgan ko`plab fazilatlar bor. Ular halollik, rostguylit, to`g`rilik, mehribonlik kabilardir. Ammo ularning har biri uchun farz bo`lgan alohida fazilatlar ham bor. Avvalo qizlarning butun vujudiga singan, ularning baxti-iqbolini belgilab beradigan juda ko`p fazilatlar bor. Ular nazokat, farosat, sadoqatdir.

Qizlar, bulajak kelinlar, onalarda shunday sirli jozibali orombaxsh xususiyatlar bo`ladiki, ularni "nazokat", "malohat", "iffat" kabi tushunchalar bilan ifodalash mumkin.

Bu yaqin tushunchalarning barchasi qizlarning, ayollarning yigitlarda, erkaklarda bo`lmaydigan ajib ichki bir olamini anglatadi. Nazokat yaxshi tarbiya topgan qizlarning butun borlig`idir: yurish-turishi, hatti-harakati, gapirishi, muomalasi, qiliqlari, imo-ishoralaridan yog`ilib turadigan mukammallik alomatidir. Uyatchanlik tuyg`usini nazokatning asosi deb atash mumkin. Bu tuyg`uning yuqolishi nazokatning yuqolishidir, nazokat tuyg`usining yuqolishi esa qizlik, ayollik jozibasining yuqolishiga olib keladi.

### **Uyatchanlikni qanday tushunmoq kerak?**

Uyalish deganda biz ko`pincha biror bir xato, noo`rin hatti-harakat, noo`rin qiliq yoki gap so`z uchun chekilgan ruhiy azobni tushunamiz. Bu iztirob ancha jiddiy yoki bir lahzalik, ya`ni o`tkinchi bo`lishi mumkin. Uydagilardan bemaslahat biror yigit bilan do`stlashgan, ammo keyin undan azob chekkan qiz ota-onasiga bu voqeani aytishdan juda uyaladi, ota-onasi,tanish-bilishlar oldida iztirob chekadi. Uyalish hissini yo`qotgan qizlar ota-ona, do`stlar, tanish-bilishlarning nafratiga uchraydi. Uyatchanlik qizlarni yetuklikka, kurkamlikka undaydi, ularning xurmatiga xurmat, husniga husn qo`shadi, qadrini oshiradi. "Kishi qancha uyangan sari u shu qadar ehtiromga loyiqidir" (B.Shou).

Uyalish, ta'kidlaymizki jiddiy yoki bir lahzalik bo`lishi mumkin. Noqulayroq o`tirib qolganini sezgan qiz darrov oyoqlarini etaklari bilan yopib oladi, yoki o`zidan kattaroq kishiga tik qarab qolganini sezib xijolat tortadi. Uyalish hissini yuqotgan qiz hayoliga kelganini qilaveradi, odamlarning talab va istaklari bilan hisoblashmaydigan bo`lib qoladi. Bunday qizlarning el orasida xurmati ketib ko`pchilik yomon so`zlar bilan tilga oladigan bo`ladi.

Uyatchanlik hissi faqat odamlar bilan o`zaro mu nosabatda namoyon bo`ladi desak kifoya bulmas. Uyatchanlik hissi qiz bolaning doimiy yuldoshidir. "Odamlar orasida uyalish yaxshi fazilat, ammo undan ham afzali o`zingni-o`zingdan uyalishingdir" - degan edi Lev Tolstoy. Buni qanday tushunish kerak? Bir qiz ovqat pishirayotib tagiga oldirib qo`ydi, deylik.

O`z-o`zidan uyalagan, uyalishni urganmagan qiz, to ovqatni ota-onasi tatib ko`rib, xatosini aytishmaguncha beparvo yuraveradt. O`z-o`zidan uyalishga urgangan qiz ovqat dasturxonga olimmasdan chuqr uyalish hissini sezadi va birinchi bo`lib dasturxon atrofidagilardan o`zr so`raydi. Uz xatosidan uyalgan odamlar sezmasdan o`z xatosini

tuzatadi, gap-so`zga, ta'naga qolishdan xatosini tuzatishni, sha'nini toza va yuksak tutishni odat qiladi. Keyingi yillarda nazokat tuyg`usi ba'zi qizlarimiz, ayollarimizda ancha xiralashib qolayotganini ko`rib turibmiz. Uyalishdan, hatto qizlik tuyg`ularidan mahrum bo`lib, ammo bu musibatni baxt deb yurgan qizlarni ham uchratish mumkin. Ayrim mutaxassislar bu noxush holning ayollarning erkaklar bilan yonma-yon, ochilib-sochilib yurishi, jamoat ishlariga faol aralashishi va xozirgi davrga xos boshqa xarakterli faktlar ekanini asoslashga o`rinadilar. Bu gapda jon bor, albatta. Ammo qizlik nazokat va malohatini har qanday sharoitda ham yo`qotmay, ularni hozirgi zamон ruhida namoyon etayotgan qizlar ko`plab topiladi. Ammo hamma gap qiz bolaning yoshligida oilada, maktabda, jamoatchilik orasida qanday tarbiya topganida, ya'ni unda qanaqa tuyg`ular, xislatlar, dunyoqarash shakllanganiga bog`liqdir.

Qizlik nazokatining yuqolgani yigitlar bilan qizlar o`rtasidagi munosabatda yaqqol sezilib qoladi. Nazokatdan mahrum bo`lgan qiz oila qurgandan so`ng ham o`z eri, bolalariga nisbatan qupol muomalada bo`ladi, hamma yerda qupollik,sovuq munosabatlar urug`ini sochadi, zavq-shavqsiz, ehtirossiz umr kechiradi.

Umuman, qizlik nazokatini arzimas odat deb uylovchilar xato qiladilar. Uyatchanlik, hayo, joziba, qaynoq tuyg`ularini pinhon saqlay olish, ularni shamolga sovurmaslik, ibo, malohat ayol zotining tabiat baxsh etgan nodir fazilatlaridir" ki, ularni yo`qotish qizlar, ayollar uchun katta fojiadir. Bu hayo ayolning oiladagi va hatto jamiyatdagi mavqeiga ham bevosita salbiy ta'sir qiladi.

Nazokatli qizning farosati bo`lishi kerak. Nazokat ko`p holatda qizlik shuuri, g`ururi, ichki hissiyotlari bilan bog`liq bo`ladi.

### **Qizlik farosatiga nimalar kiradi?**

Did bilan kiyina olish, uy-joy, kiyim-kechakni sarishta-saranjom tuta olish, dasturxon tuzata olish, mehmon kutish, mazali taom pishirish, mazmunli, shirin suhbat qurish. Farosat belgilari qiz bolalarda 15-18 yoshlarda to`la shakllanib yetishi kerak. Chunonchi, umr yo`ldoshining adashmay, bexato tanlay olish, aql-idrok bilan seva olish, bolalarini mehr-talabchanlik bilan tarbiyalay olish kabi fazilatlar ham voyaga yetayotgan qizning idrokiga singib borishi lozim.

Bularning hammasini bir so`z bilan farosat deb atash mumkin. Chunki, farosatli odam yaxshini yomondan, xunukni guzaldan, muhimni ikkinchi darajalidan ajrata olish qobiliyatiga ega bo`ladi. Farosatli qizlar tezda ko`zga tashlanadi, yaxshi ma'noda el og`ziga tushadi, bunday qizlar sevgi, muxabbat va oila qurganda puxta uylab ish ko`radilar. Ayolning farosatini usha ayol qanday erkakni sevganidan bilsa bo`ladi. Chunki, sevgi osmondan tushmaydi. Sevgi mutlaqo ixtiyoriy ravishda qalb amri bilan tug`iladi.

Qizlarda farosatning yetishmasligi oqibatida juda ko`p kungilsiz voqealar ro`y berib turadi. Biror bir yigitni apil-tapil sevib qolish, unga kur-kurona o`zini bag`ishlash farosatsizlikning aniq misolidir. Sadoqat sevgi-muxabbatni, do`stlikni, oilaviy munosabatni muqaddas deb bilish, unga sodiqlikdir. Sadoqatli bo`lish uchun qalb toza, fikr ravshan, maqsad aniq bo`lishi lozim. Oila a'zolaridan birortasi xiyonat yo`liga o`tdimi, bu mazkur inson oilasi uchun ham, bolalar taqdiri uchun ham va nihoyat jamiyat uchun ham katta jinoyatdir.

Ayrim qizlar, ayollar sevgi-muhabbat, oilaviy baxt, yo`lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga ojizlik qilib qoladilar, izlanish, chora topish, mashaqqat chekish o`rniga yengil yo`lini - yangi baxt topish yo`lini izlab qolishadi. Nazokat va farosatni o`z shuuriga singdirib yuborgan qizlar har qanday qiyinchiliklarni yengib o`tib, o`z maqsadlariga erishadilar. Ug`il bolalarda ham betakror yigitlik fazilatlari borki, ular hayotimiz ko`rki, turmushimiz ziynati va jamiyatimiz boyligidir.

Birinchi navbatda, mardlik, jasurlik, botirlilik, oriyat, dadillik, jismoniy qudrat, uzoqni ko`zlab ish tuta olish kabi fazilatlar ug`il bolalar hayotining ilk davrlaridan oq shakllanib borishi kerak. Forsiyda mard so`zining o`zi yigit ma'nosini bildiradi.

O`g'il bola voyaga yetib, yigit bo`ladi, uning oldida behisob jumboqlar, turli tuman hayotiy qiyinchiliklar kundalang turadi. U shu jumboqlarni yecha olishi, qiyinchiliklarni dadil

bartaraf eta olishi kerak. Bu vazifa unga juda katta mas'uliyat yuklaydi. U xotini, bolalari, butun oila a'zolarini to`g`ri yo`ldan boshlashi, ularga har tomonlama suyanch bo`lishi, ziddiyatlarni oqilona hal etishi kerak. Buning uchun yigitda aql-idrok, fikr -mulohaza, bardamlik, oljanoblik xislatlari namoyon bo`lib turmasa, oilada parokandalik boshlanadi.

Agar ota farosatli, tadbirkor, harakatchan, mard bo`lsa, ug`il bolalarda ham mana shu fazilatlar kamol topa boradi. "Ota bolalarni bino qilish, ularni yedirib-ichirish bilan zimmasidagi vazifaning uchdan birinigina bajargan bo`ladi, -deb yozgan edi Jan Jak Russo, - u bolalarini odamzod qatoriga qo`shmog`i, jamiyatga esa faol kishilarni, davlatga grajdanin yetishtirib bermog`i kerak. Shu uchala qarzini uzishi mumkin bo`lgan holda, bu ishni bajarmagan har qanday kishi aybdordir, bordiyu, bu qarzining yarminigina uza, yana battarroq aybdor bo`ladi. Kimki zimmasidagi otalik burchini bajarmasa, u ota bo`lish huquqididan mahrummdir". Ammo, afsuski, ayrim yoshlar o`z yigitlik fazilatlarini unutib quymoqdalar. Men bir o`qituvchi sifatida dars paytida ug`il bolalarga razm solaman, ularni ko`cha-ko`yda, yotoqxonada, dars jarayonida ko`zataman, savolga tutaman, shunda ba'zan, ochig`i, afsuslanaman. Sababi, ayrim ug`il bolalar juda lapashang, jur'atsiz, jismonan ojiz, irodasiz, hatto oriyatsiz, subutsiz. Bu nimaning oqibati?

Buning sabablari shundaki, ug`il bolalarni ilk yoshlardanoq oilada, bog`chada, so`ngra maktabda o`ta ehtiyojkorlik ruhida tarbiyalashgan, ular mashhaqqatlar girdobida chiniqishmagan. Xususan, oriyat va mardlik ayniqsa, qiz bolalarga nisbatan muruvvatlilik va oljanoblik kabi tuyg`ular ularda ko`rinmaydi.

O`g`il bolalarda yigitlik fazilatlarini shakllantirishning vosita va manbalari ko`p. Shulardan biri harbiy xizmatdir. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, Vatan himoyasi asosan hamma vaqt erkaklar zimmasiga tushgan. Bu erkaklar uchun sharafli ish. Erkak ishining jismoniy kuch-quvvati ham, aql-zakovati, jasurligi ham mana shu Vatan himoyasida yaqqol ko`zga tashlanadi. Vatan uchun, ona yer uchun, kindik qoni tomgan tuproq uchun jonini ham ayamay urishgan, kurashgan, yuzlab-minglab qaxramonlar tarix sahifasidagi porloq mangu so`nmas yulduzlardir.

O`g`il bolalar yaxshi fazilatlarga ega bo`lislari uchun ularda yoshlidan muqaddas tuyg`u - Vatan tuyg`usini shakllantirish kerak. Vatanni himoya qilish har bir erkak uchun majburiy vazifa emas, balki Va tanga cheksiz muhabbat, dushmanlarga cheksiz nafrat ruhida tarbiya topishlari, voyaga yetib, harbiy xizmat saflarida xizmat qilishni er yigitning muqaddas burchi deb tushunishlari lozim.

Biz hozirga qadar faqat ta'lif haqida bosh qotirdik. Biroq tarbiya ta'limdan ham muhimroqdir. Farzandlarimizni sog`lom, aqli, odobli, uqimishli, madaniyatli kishilar qilib voyaga yetkazishda ularga uziga xos tarbiya berish kerak. Yoshlar hayotdagi o`z o`rnlari, burchlari, vazifalari bilan ham bir-birlaridan farq qilishlari kerak. Demak, qiz bolalarda qizlik fazilatları bekamu-kust shakllansa, har qaysisi hayotda va mehnatda uz burchini yaxshi bajara oladi

### "Qadriyat" tushunchasining falsafiy tahlili

Qadriyat - tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo`ladigan, odamlar tomonidan qadrlanadigan, ular uchun foydali, ahamiyatli, moddiy-iqtisodiy, madaniy - ma'naviy, mafkuraviy, siyosiy, huquqiy, diniy, milliy, ijtimoiy omillar yig`indisidir.

Qadriyatlar falsafiy nazariyasining ba'zi masalalari o`tgan asrning ikkinchi yarmida Ovrupoda yangikantchilik maktabiga mansub V. Vindelband, G. Rikert va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Qadriyat nazariyasini o`rganish yunoncha - qimmatbaho ma'nosini anglatuvchi aksiologya degan ilm sohasini yuzaga keltirdi va XIX asrning 20-50 yillarda M. Sheler, N. Gartman, R.B. Perri, S. Peper kabi nemis va amerika faylasuflarining asarlarida bu fanning asoslari shakllantirildi.

Sobiq SSSR davrida qadriyat nazariyasi uzoq davr mobaynida umuman ishlanmadı. Rasmiy mafkura va siyosat sovet xalqining yaxlitligi, birligi, xalqining bir-biriga yaqinlashishi va qo`shilib ketishi g`oyasini ilgari surganidan keyin, xalqlarning o`ziga xosligi, tarixiy merosi, o`tmishi, urf-odat, rasm-rusmlarini, dinini, umuman, xalq uchun qadrli, aziz bo`lgan barcha

narsalarni ifodalashi mumkin bo`lgan falsafiy tushuncha qadriyat tushunchasi muomalaga kiritilmadi. Katag`on yillarida avj olgan dinga, tarixiy merosga, eskilik sarqiti sifatida mahaliy urf-odat va marosimlarga qarshi kurash esa aslida qadriyatlarga qarshi kurash edi. Xalq va millatlarni asoratda saqlashning eng oson yo`li, ularni qadriyatlardan ajratish, uzoqlashtirish edi.

Imperiya yemirilib, xalqlarning mustaqillikka bo`lgan xarakatlari kuchaygan sari odamlar qadriyatlar masalasiga tez-tez murojaat qila boshladilar.

Mohiyat va mazmunga kura qadriyatlarni quyidagi guruhlarga bo`lish mumkin:

1.Tabiyy qadriyatlar. Tabiiy qadriyatlar insonni o`rab turgan, insonning paydo bo`lishi, rivojlanishi va yashash uchun zarur bo`lgan tabiiy muhit va sharoitlar majmuasidan iborat. Bularga yer, suv, havo, foydali qazilmalar, quyosh, koinotdagi sayyora va yulduzlar, usimliklar, xayvonot va parrandalar, qisqasi, jonsiz va jonli tabiat kiradi.

2.Ijtimoiy qadriyatlar. Jamiyatning hayotiy faoliyati uchun zarur bo`lgan va insoniyatning taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan ijtimoiy soha va tuzilmalarning majmui (ishlab chiqarish, korxona, tashqilot, muassasa, oila, millat, sinf va x.k).

3.Qadriyatlar sistemasi ichida eng ahamiyatlisi va oliysi bu insondir. Inson uz hayot faoliyati jarayonida jamiyatda yashaydi, tabiat orqali esa o`z extiyojlarini qondiradi. Qadriyat tushunchasining o`z narsa va xodisalarining insonga aloqadorligi, inson uchun ahamiyatliligi, inson uchun qadrilik tufayli kelib chiqqan va inson tomonidan ishlab chiqilgan.

Qardiyatlar ikki turga bo`linadi.

1. Moddiy qadriyatlar.
2. Ma'naviy qadriyatlar.

1. Moddiy qadriyatlar. Insonni o`rab turgan moddiy dunyo, insoniyatning mavjudligi uchun zarur bo`lgan tabiiy imkoniyatlar, uning mehnat faoliyati mobaynida yaratgan barcha moddiy narsalar kiradi.

2. Ma'naviy qadriyatlar. Insoniyatning ma'naviy extiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ilmiy bilimlar, falsaviy, axloqiy, huquqiy, siyosiy, estetik, badiiy, diniy g`oya va ideallar yig`indisi ma'naviy hayot qadriyatlari deb ataladi.

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti darajasini o`zida aks ettirib, inson faoliyati qadriyatlari quyidagi guruxlarga bo`linadi.

1. Umuminsoniy qadriyatlar. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat, ilmiy, falsaviy, axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy, badiiy, ekologikqarashlar, butun insoniyatning mulki bo`lgan boshqa qadriyatlardan iboratdir.

Insoniyatning kelajagi masalasi umuminsoniy qadriyatlardagi dolzarb masaladir.

2. Milliy qadriyatlar. Milliy qadriyatlar alohida olingan xalq, millat va ellatlarning o`z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari va millatning o`zligini belgilaydigan boshqa o`ziga xos tomonlari yig`indisidan iboratdir. Bu o`ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot, turmush tarzida namoyon bo`ladi.

Bundan tashqari, xalq amaliy san'ati, xalq o`yinlari, rasm-rusmlari, urf-odatlari, marosimlari milliy qadriyatlarga kiradi. Milliy qadriyatlarning shakllanishiga kuchli ta'sir ko`rsatadigan omillardan biri, bu - diniy qadriyatlardir.

3. Diniy qadriyatlar milliy qadriyatlar ancha keng tushuncha bo`lib, u ko`plab millatlar, elatlar, xalqlarga taallukli bo`lgan, ularni g`oyaviy jihatdan birlashtiradigan diniy talablar, g`oyalar, rivoyatlar, amaliy marosimchilik, bayramlari majmuasidan iboratdir. Islom dini misolida ko`rib utadigan bo`lsak, yer yuzasida 1 milliarddan ortiq kishining islom diniga e'tiqod qilishini, islom yer yuzidagi 120 davlatda tarqalganligini, 30 dan ortiq davlatda islom davlat dini deb e'lom qilinganligini va bu kishilarning hammasini din asoslari (arkon iddin) deb xisoblangan - Imon, Is lom va Exson talablari asosidagi birligini ko`rishimiz mumkin. Imon talablari 7 ta aqidani, Islom talablari 5 ta amaliy marosimchilik talablarini, Exson - sidqidildan aqidalarga ishonish va marosimlarni ado etishni tashqil qiladi.

4. Oilaviy qadriyatlar. Oilaviy qadriyatlar oila sharoitidagi moddiy va ma'naviy, axloqiy tarbiyaviy munosabatlarga asoslanadi. Oilaviy qadriyatlarga oila a'zolari o`rtasidagi o`zaro xurmat, g`amxurlik, bir-birini tushunish, xar qanday sharoitda oila sha'nini ximoya qilish kabi fazilatlar kiradi. Oilaviy qadriyatlarning shakllanishida oila a'zolarining shaxsiy xususiyatlari, xushmuomalalik, rostguylilik, mardlik, insoniylik, chevarlik, pazandalik, sodiqlik singarilar qadrlanadi. Oilaviy qadriyatlar ijtimoiy qadriyatlarning bir elementi bo`lib, qadriyatlar sistemasida muhim o`rin tutadi.

5. Shaxsiy qadriyatlar. Shaxsiy qadriyatlar xar bir subyektning umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida shakllangan o`ziga xosligi, fazilatlari majmuasidan iboratdir. Shaxsiy qadriyatlarga insonning rostguyligi, kamtarligi, insoniyligi, mehribonligi, odobliligi, qobiliyatiligi va boshqa sifatlari kiradi.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo`ladiki, qadriyatlar insonning kundalik hayot faoliyati, shaxsiy sifatlari va extiyojlari borliqqa munosabati bilan belgilanganligi uchun ham u insoniyatning ilk tongida paydo bo`ldi va jamiyat taraqqiyoti davomida shakllanib bordi. Shuning uchun ham bugungi kunda O`zbekiston o`z rivojlanish va taraqqiyot yo`lini belgilayotgan, o`zbek xalqi uz milliy o`zligini anglayotgan davrda qadriyatlar masalasi eng dolzarb masala bo`lib kun tartibiga chiqdi va xalqimiz ongida shakllangan mutelik psixologiyasidan qutulishda asosiy rol uynadi.

### **Milliy qadriyatimiz va istiqlol mafkurasi**

O`zbekiston Respublikasi o`z mustaqilligining uchinchi yilda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish yo`lida ilgarilab bormoqda.

Respublika Oliy Kengashining un beshinchi sessiyasida Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov o`z ma'rzasida eng diqqatga sazovor bo`lgan jihat, bu jamiyatning ma'naviy axloqiy qadriyatlarini yo`qotmaslik haqidagi tashvishdir, deb ta'kidladi. Afsuski, bozor iqtisodi tomon bo`lgan faol xarakatda ko`pgina yoshlarimiz bir kunlik, ikki kunlik foydali ishlar, tijorat ketidan quvib madaniyatdan, bilim olishdan chetda qolib ketmoqdalar. "Bugun hayot qanchalik og`ir bo`lmasin, ma'naviyatimiz va madaniyatimizni unutmaylik" - deb kuyinib xitob qildi yurtboshimiz sessiyada.

Hozirga davrdaning asosiy masalalaridan biri mushoxadali, teran fikrli, inoniy fazilatli, milliy madaniy, ma'naviy dunyosi yuksak mutaxassislarni tarbiyalashdir. Zero, bu masalaning bajarilishi milliy istiqlol mafkurasini yaratishning bosh omili bo`lib xisoblanadi.

Milliy mustaqillik mafkurasining tamoyil lari shakllanayotgan bir vaqtida mamlakat miqiyosida dasturiyal mavqeida qo`llanadigan barcha xujjatlarda milliy ruh bo`lishi juda muhim. Bu zinxor millatchilik emas, balki milliy davlatimiz qiyofasining in'ikosi, o`ziga xosligining ifoda etilishidir. Ota-bobolarimiz intiq bo`lib ko`tgan istiqlolga xurmat uning bugungi va kelajagiga ishonch hamda e'tiqod xar qadamda sezilib tursin.

Milliy istiqlol mafkurasini negizini nimalar tashqil qiladi, asosi nimalardan iborat? Vatanparvarlik, milliy madaniy merosimiz, milliy g`urur, o`zbek xalqining ulug` fazilatlari, umumiyl qonunlari to`g`risida bilimdonlik, donolikni o`rgatuchi fandir.

Falsafa aloqadorlik va rivojlanish ta'limoti, borliqning turli-tuman aloqadorligi, o`zgarish va rivojlanishning qonuniyatlarini o`rgatadi. Umuminsoniy qadriyatlar - milliy madaniyatimiz tabiiy, aniq, ijtimoiy fanlar soxasida tarixda allomalarimiz qoldirgan betakror ilmiy madaniy merosni o`rganish, o`rgatish, madaniy sivilizatsiya, nafosat, go`zallik ilmlarini jamlagan xolda milliy g`urur, iymon-e'tiqod, bilim va ong, hurfikrlilikni singdirish va shakllantirish ham falsafa ilmi doirasiga kiradi.

Umumbashariyat ma'rifatparvarligini yaratishda ishtirot etgan va o`z hissalarini qo`shtan buyuk ajdodlarimiz inson tarbiyasiga oid ko`pdan-ko`p axloqiy meros qoldirishganki, bularning mohiyatini faqat falsafiy taxlil yordamida ochib berish mumkin.

Buyuk allomalarimiz Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur, Al Xorazmiy va boshqalar buyuk faylasuflar bo`lishgan Rafael, Leonardo do Vinchi, Bexzod kabi tasviriy san'at daxolari ham falsafa ilmini chuqur egallahshgan.

Inson hayot faoliyati davomida yetuk kasb egasi yoki mutaxassis bo`lishi mumkin. Lekin o`z xalqining madaniyatini, axloqiy merosini, udum, an'ana va odatlarini, insoniyatga berishga va avlod tarbiyasidek ulug` ishga tayyor bo`la olmaydi. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadi esa, yuqorida qayd etilgan vazifalarni uz ichiga jamlagandir. Demak, falsafa ilmiy milliy istiqlol mafkurasining ma'naviy poydevoridir.

Ma'lumki, istiqlol, hurriyat, mustaqil degan so`zlarda olam-olam ma'no mujassamlangan. Odatda mustaqil davlatni suveren davlat deb ham ataydalar. Suverenitet (fransuzcha oliy xokimiyyat) -davlatning o`z ichki ishlari va tashqi siyosatini olib borishdagi to`la mustaqilligi demakdir. Bu termin (tushunchani) Davlat - huquq ma'nosida XVI asrda fransuz olimi Baden qo'llagan edi. Yer yuzidagi barcha mustaqil davlatlar o`z ichki ishlari va tashqi siyosatini olib borishda to`la mustaqil xisoblanadi. Istiqlol, mustaqillik bu muqaddas tushunchadir. Har bir millatning mustaqillikda yashashi hayotning, ijtimoiy taraqqiyotining muhim obyektiv talabidir. Istiqlol, mustaqil davlatda yashash uz milliy qadriyatlarini e'zozlash xar bir millat uchun bebaho mulkdir. Chunki har bir fuqaro, har bir mustaqil davlat, har bir millat va elat o`z taqdiriga, o`z kelajagiga befarq qarashi mumkin emas.

Istiqlol yo`lida o`zbek millatining eng sevikli farzandlari halok bo`lgan bo`lsa-da, lekin ularning kurashi zoya ketmadi. Ular erisha olmagan O`zbekiston davlat mustaqilligiga bugungi baxtiyor avlod yetishdi. Bu tarixiy voqeа birgina O`zbekiston jumxuriyatida yashayotgan o`zbeklarnigina emas, balki turli sabablar bilan yer yuziga tarqalib ketgan 3,5 million millatdoshlarimizni ham o`z vataniga ega qildi. Shunday ekan, o`qituvchi, tarbiysi o`quv jarayonida o`tmishga nazar tashlab, 130 yillik mustamlaka zulmini va uning turli ko`rinishlarini ta'riflab berishga harakat qilish kerak.

Tarbiyaviy tadbir-choralar, yo`l va usullarning markaziga o`z milliy manbalarimizga, iymonu-e'tiqodimizga, qadr-qimmatimizga muvofiq keladigan axloqiy talablarni qo`yishimiz kerak. Chunonchi, jismoniy tarbiya, biologiya darslarini alohida o`tish ma'qul deb xisoblaymiz (qiz bolalar bilan o`g'il bolalarni alohida o`qitish). Ayollarni kasbga yunaltirish, ayol mehnatining estetikasi.

Hamma fanlardan 9 yillikdan keyin litseylarga yoki boshqa kasbga yo`naltirish maqsadga muvofiq bo`larmakin? Masalan: fizika, matematika, biologiya, ximiya, tarix kabi fanlardan 9 yillikdan keyin litseylarda ta'lim olsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Lekin musiqa, raqs san'ati, tillar (arab, ingлиз, fransuz va xokazo) ni o`rgatishni, avvalroq birinchi sinfdan boshlansa, yaxshi natijalarga erishiladi.

Bu masalalar yuzasidan buyuk alloma abu Ali ibn Sino (980-1027) tarbiya mazmuni xaqida quyidagi fikrlarni yozib qoldirgan:

1. Aqliy tarbiyaga ahamiyat berish lozim
2. Inson axloqining tarbiyasi
3. Estetik (nafosat) tarbiyasi
4. Jismoniy sog`lomlashtirishiga xizmat qiladigan meditsina tarbiyasi.
5. Bolani mehnatsevarlik ruhida, biror kasb-xunarga o`rgatish tarbiyasi.

Ko`p yillik tarixga ega bo`lgan milliy axloqimizning azaliy mezonlarini tiklash orqali halollik, to`g`ri so`zlik, or-nomuslilik, iffatlilik, insonparvarlik, vatanparvarlik, fidoiylik, sadoqat singari ko`pdan-ko`p go`zal insoniy fazilatlarni kamol toptirish vaqtি keldi.

Mustaqillik sharofati bilan O`zbekiston tarixini yangidan-yangi sahifalarini o`rganib borayotganimiz sari ota-bobolarimiz insonning ma'naviy olamini, ichki dunyosini bilish, ajdodlarimizni tushuncha bobida bizdan qanchalar oldinda ekanliklarini, biz esa usha bilimlar, ko`nikmalardan bebahra qolgan ekanligimiz namoyon bo`layapti.

Xazrat Alisher Navoiy, buyuk bobomiz Mirzo Ulug`bekka "tilla bosh" deb sifat bergen yuqoridagi bayon etilgan fikrlarimizning dalilidir.

Hozirgi kuning asosiy vazifalaridan biri dunyoviy bilimlarga, yuksak ma'naviyatga ega bo`lgan komil insonni tarbiyalashdir. Demak, merosiy, ma'naviy qadriyatlarimizni bugungi avlod mulkiga aylantirish, ajdolarimiz tajribalarini o`rganishimiz dolzARB muammodir.

Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ayolni ijtimoiy mehnatdan chetlashtirishni emas, balki uning oilaviy vazifalarini hisobga olib, ishlab chiqarishda unga yengil ish shakllarini ajratishni tavsiya qiladi. Masalaga ana shunday yondashishi hozirgi kun talabi - sog`lom avlod ustirish dasturini amalga oshirish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda jumhuriyatimizda 3,5 millionga yaqin oila bor, har bir oilada o`rtacha 5-6 nafar kishi istiqomat qiladi. Yiliga 270 mingdan ortiqroq yangi oilalar tashkil topadi. 700-750 ming chaqaloq dunyoga keladi. Bu raqamlar ayol gordonidagi mas'uliyatning yuksakligidan dalolatdir.

Biz kelajak avlodning sog`lom va barkamol bo`lishini o`laydigan bo`lsak, eng avvalo, ayollarimizni avaylab asrashimiz, ularga ishslash, yashash uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Toki ular oilaviy iqtisodlarini mustahkamlashni emas, balki farzandlarini barkamol bo`lib o'sishini o`ylasInlar. Zero, jismoniy sog`lom va ma'naviy barkamol avlod davlatning, jamiyatning tayanchi, qudratidir. Buni unutishga esa hech kimning xaqqi yo`q.

Mustaqil jamiyatimiz taqdiri hozirgi avlod qo`lida bo`ladi. Shuning uchun biz bu avlodni O`zbekistonni, uni to`g`ilib o`sgan joyini, o`z ota-bobolari yashagan yurtini sevish, ardoqlash, bu vatanning baxt-saodati, ravnaqi yo`lida fidoiylik ko`rsatish ruhida tarbiyalashimiz lozim. Ayniqsa iqtidorli yoshlarni tanlab olish, ularga chet tillarni mukammal o`rgatish, xorijiy mamlakatlar tajri balarini o`rgana oladigan qilib tarbiyalash mustaqil O`zbekistonimiz ravnaqi uchun g`oyat muhimdir.

O`zbekistonning erkinlik va farovonlikka intilishi bilan bir vaqtida respublikamizda yashovchi har bir insonning kamolotga va saodatlari kunlarga erishish orzusi ham aks etganligini o`quvchilarga misollar asosida tushuntirish lozim. Har bir o`qituvchi respublika hayotiga oid matbuotda e'lon qilingan materiallardan darsga tayyorgarlik ko`rish jarayonida ijodiy ravishda foydalanishi lozim. O`zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasida "Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o`rnatalishi mumkin emas" va Respublika "ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xiligi asosida rivojlanadi", - deb ta`riflangan.

Boshqacha qilib aytganda mufkuraning xozirgi zamon tushunchasi ma'nosida xal qilinishi davlatning mafkuraviy tizimlarini va jamiyat mafkurasini turli xil mafkuralarning teng huquqliligi, ularning bir-biriga nisbatan sabr toqatli bo`lishi hamda ziddiyatlarga bormay yashashi asosida qaytadan tuzish degan ma'noni anglatadi.

"Biz uchun eng muhim muammo, - deb takidlagan edi yurtboshimiz, - milliy mustaqillik mafkurasini yaratish va uni amalda turmushda joriy etishdir". Qadriyatlar to`g`risidagi fan - Aksiologiya (aksio - qadriyat, logos fan, ta'llimot ma'nosini anglatadi.) falsafaning shu masalani o`rganadigan va u bilan shug`ullanadigan sohasi xisoblanadi. Sobiq Ittifoq davrida bu to`g`risida nihoyatda kam ma'lumotlar bor edi. Istiqlol tufayli qadriyatlar to`g`risidagi qarashlarimiz shitob bilan o`zgardi. Sobiq Ittifoqning ilgari ulug`langan partiyaviy-sinfiy qadriyatlar sarobga aylandi, zamona realliklar talablariga javob bera olmay, o`tgan o`n yilliklardan iborat tarix saxifalari bilan birga yopilib ketdi.

O`zbekistonda qadratga e'tibor kuchaydi, uning turli qirralari olim va mutaxassislar tomonidan tahlil etilmoqda. Qadriyatlar falsafasi -Aksiologiyaning ko`pdan-ko`p mavzulari mutaxassislarimizning ilmiy izlanishlarida o`ziga xos o`rin tutmoqda.

"Moziyga qaytib ish ko`proq xayrlidir", deb yozgan edi Abdulla Qodiriy "O`tgan kunlar" romanida. Xuddi shunday, "Qadriyat o`zi nima?" savoliga javob berishdan oldin mavzuning tarixini, qisqa bo`lsa-da, o`rganmoq lozim. Busiz qadriyatlarning bugun va kelajakdagI ahamiyatini tushunib bo`lmaydi.

Qadriyat, baho va qadr. Qadriyatlar muammosiga bag`ishlangan (asosan rus tilidagi) ilmiy-falsafa manbalarining ko`pchilik qadriyat (sennost) tushunchasini baho (otsenka) tushunchasi bilan qiyoslash, ularga bir xil daraja va ko`lamdagI tushunchalar sifatida qarash hollari uchraydi. Bu ikki tushuncha qiyoslanayotganda, qadr tushunchasi e'tiborga olinmaydi.

Balki, bunday xolga rus tilidagi "otsenka" va "sena" so`zlarining o`xshash ma'noli (ko`proq iqtisodiy) tushunchalar ekanligi sabab bo`lishi ham mumkin. Rus tilida qadr iborasi ishlatilmaydi, uning ruscha tarjimasi yo`q. Qadr tushunchasi o`zbek tilida serqirra ma'no va mazmunga ega, u tilimizdagи ba'zi ibora va so`zlarda o`ziga xos sharqona falsafiy mazmun borligidan dalolat beradi.

Qadriyatning mazmuni va ahamiyati "baho" tushunchasida to`la-to`kis aks etmasligi, turlicha ifodalanishi ham mumkin. Qadriyatning haqiqiy qadrini, mazmuni va ahamiyatini bahosiga qarab aniqlash qiyin bo`ladigan hollar ham uchraydi. Aslida qadriyatning qadrini bilish, uning ahamiyatini anglab olish va baholash bir-biri bilan uzviy bog`liq jixatlarni tashkil qiladi. Qadriyatning ahamiyatini anglab olinmasa, qadri to`g`ri tushunilmasa, unga to`g`ri baho berib bo`lmaydi. Aynan shu ma'noda qadriyatni baholash unga bo`lgan munosabatni ham ifodalaydi, bu esa o`z navbatida kishilarning talablari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan bog`liqdir. Qadriyatni baholashda qancha xilma-xil maqsad va extiyoja ega bo`lgan kishilar ishtirok etsa, uning xaqiqiy bahosini aniqlash ham shuncha qiyinlashib boraveradi.

Qadriyatning obyekti va subyekti. Qadriyatshunoslikda qadriyat tushunchasi bilan bu tushuncha bog`langan obyekt o`rtasida farq bor, deb qaraladi. Agar qadriyat berilgan qadrni ifodalaydigan falsafiy tushunchasi sifatida qaralmasa, unga ta'riflarning son-sanoqsiz bo`lishi aniq. Negaki, dunyoda qadrlanadigan narsalar, hodisalar, voqealar, jarayonlar, joylar va sifatlar, ideal va maqsadlar nihoyatda ko`p. Qadriyat tushunchasi esa ularning birontasi uchun to`g`ridan-to`g`ri ism, atama yoki vosita nomi bula olmaydi, balki ularningqadrini anglatadigan tushuncha sifatida namoyon bo`ladi.

Qadriyatning namoyon bo`lish shakllari. Bir qarashda qadriyatlarning shakllari son-sanoqsiz va nihoyatda tartibsizga o`xshab ko`rinadi. Aslida esa bashariyat, olam, tabiat va jamiyatda ajabtovur uygunlik mayjud. Qadriyat shakllari ham ularga mos ravishda ana shunday uyg`urlikda, qonuniy bog`lanishda, umumiyl aloqadorlikdadir. Bunday holatda ularning klassifikatiyasida tabiat va jamiyatdagи narsa, voqeа, hodisa, jarayonlar muayyan kulamda, qadriyat shakllari esa ular bilan bog`liq holda namoyon bo`ladi.

Makon va zamonda ushbu qadriyat obyektlari borliqning biror shakli, jixati, voqelikning biror qismi, olamdagи narsalar va atrof-muxitning eng muhim tomonlari sifatida namoyon bo`ladi. Ushbu ma'noda qadriyatlarning umumbashariy, umumsayyoraviy va mintaqaviy hamda biror kichik xudud yoki joyga bog`liq bo`lgan shakllarini kutarish mumkin. Bunda umumiylilik, xususiylik va alohidilikning dialektikasi zamonaviy atamalar "global", "zonal" va "lokal" qadriyat obyektlarining o`zaro munosabati tarzida zoxir bo`ladi.

Jamiyatning yashashi, odamlarning hayot kechirishi uchun yuqoridaq qadriyatlar bilan birga jamiyatdagи umumijtimoiy va umuminsoniy qadriyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning jamiyatning tuzilishi, ijtimoiy birliklar va ijtimoiy ong shakllariga aloqador turmushlarini kursatish mumkin. Masalan, jamiyatning tuzilishiga xos mil liy, sinfiy, irqiylar va boshqalar yoki ijtimoiy onging shakllariga bog`liq: siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, hamda jamiyatning asosiy soxalariga bog`liq: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma`naviy. Ijtimoiy qadriyat shakllari orasidagi farqlar aslo mutloq emas, balki nisbiydir, ular orasida. O`tib bo`lmas chegaralar yo`q.

Bugungi kunga kelib qadriyatlar iborasi nihoyatda mashhur bo`lib ketdi. Uni juda keng ma'noda ishlatish ayniqsa, madaniy-ma`naviy hodisalar, urf-odatlar, an'anlar va boshqalarga nisbatan umumiyl nom yoki atama sifatida qo'llash hollari ko`p uchramoqda. Kundalik muloqotda qadri bor narsa, voqeа, hodisa, xususiyat va boshqalarni "qadriyat" deb atashga ko`pchilik o`rganib qoldi. Ammo xar bir so`z, atama va tushunchaning mohiyati va mazmunini o`ziga sig`diradigan sifat chegarasi bor. U yoki bu tushunchadan ana shu mazmunga sig`maydigan kumakni talab qilishning keragi yo`q. Zero, qadriyat tushunchasining ommalashib, mashhur bo`lib ketganligi juda yaxshi. Lekin uni yanada kengroq ma'noda yoki zarur bo`lmagan hollarda ham ishlatish bu tushunchaning mazmunini xiralashtirishi, uning mohiyatini ifodalaydigan sifat chegarasi sarobga aylantirib qo`ishi, qadrni tushuntirish mumkin.

Xalqimizning "Qadrsiz qadriyat yo`q!", "Qadrlanmaydigan qadriyat sarobga uxshaydi", degan hikmatlari bor. Ana shu sababdan ham, mamlakatimiz taraqqiyoti hozirgi davrning yuksak ifodalari bo`lgan istiqlol, buyuk kelajak, vatanparvarlik, insonparvarlik, damokratiya qonunning ustuvorligi kabi serqirra qadriyatlarni nixoyatda qadrlashimiz lozim.

Ularning birinchisi - istiqlol e`lon qilgan O`zbekiston taraqqiyotining yangi asr bo`sag`asida asosiy haqiqati, ikkinchisi -istiqboldagi eng oliv orzu-idealimiz, boshqalari esa qurilayotgan jamiyatimizning ijtimoiy va ma`naviy tamoyillarini belgilaydigan purma`no qadriyatlarimizdir.

Inson qadri. Istiqlol inson qadri, uning manfaat va e`tiyojlari bilan bog`liq masalalarni dolzarblashtiib yubordi. Inson qadri uning ijtimoiy xususiyatlari, jamiyatda amalga oshirgan faoliyati, boshqalarga va atrof-muhitga munosabati, kamolotga yetganligi, ijtimoiy xususiyatlarni o`zlashtirib olganligi va ularni ma`naviy qiyofasida namoyon qila olganligida ham ko`rinadi. Odam bolasining shaxsga aylanishi, o`z qadrini va o`zgalar qadrini anglash jarayoni uzoq yillar davom etadi.

Umuman, odamzod naslining xozirgi avlodni uchinchi ming yillikni kutib olayotgan bugungi kunlarda butun dunyoda qadrlash falsafasining umuminsoniy mezonlarini amaliyotda qo`llashga extiyoj kuchaydi. Taassufki, inson zoti sayyoramizda yashagan ilk davridan boshlab qadr va qadriyatni ustuvor bilganida, Yer yuzini ekologik buxronlar, urush xavfi va ma`naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolar kutib turmagan bo`larmidi?

Bugungi kunga kelib, insoniyat yana tabiat va odamzod naslining uyg`unligini saqlab qolish uchun qadr va qadriyat nihoyatda zarur ekanligini anglatdi. XX asrning oxirgi va XXI asrning boshlanishidagi birinchi besh yillikda BMT tomonidan "Inson huquqlari o`n yilligi" deya e`lon qilinganligi, kishilik jamiyatini esa yangi ming yillikka umuminsoniy qadriyatlarni barqaror qilishga bel bog`lab utayotganligi bejiz emas.

Hozirgi O`zbekistonda inson manfaatlari va xaq-huquqlarini ruyobga chiqarish, qadrlashning umuminsoniy tamoyillarini ustuvor qilish bilan bog`liq faoliyatlar butun jahonda bu boradagi umumiylamkorlikni mustaxkamlash xarakatining tarkibiy qisimiga aylanmoqda.

Yoshlar va qadrlash tamoyillari. Insonning butun umri shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish, o`z qadrini kamolga yetkazish, o`zgalar, jamiyat, zamon va undagi sodir bo`layotgan o`zgarishlar qadrini anglashga intilsh jarayonidan iboratdir. O`z shaxsi va boshqalar qadrini anglab yetish uchun insonning kamoloti davomida shakllangan ma`naviy qiyofasi va dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo`lishi, uning o`zi esa hayotning mohiyati va maqsadini to`g`ri anglaydigan darajada tarbiyalangan bulmog`i lozim. Ushbu ma`noda, Sukrotning "O`z o`zingni angla!" - shiori g`oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning qadri u yashayotgan zamon, undagi jarayonlar, ijtimoiy, tarixiy shart-sharoitlar bilan dialektik aloqadorlikda namoyon bo`ladi.

Muhit va davr talablari shaxs qadrini shakllantirib, sayqallab boradi. Uning o`zi esa o`z qadrining shaxsiy talablari, extiyojlari va maqsadlari bilannaqadar aloqadorligini chuqurroq anglab olish tomon boradi.

Qadriyatlar yoshlarga hayot mazmunini chuqurroq tushunish, jamiyat qonun-qoidalaridan to`g`ri foydalanish, o`zlarining xatti-harakatlarini ana shu ma`naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi. Xozirgi davrda talaba va o`quvchilarga qadrlash va qadrsizlanish jarayonlarining mohiyatini anglatish, mustaqillik e`lon qilgan qadriyatlarning ahamiyatini to`g`ri tushuntirishga erishish nihoyatda dolzarb masaladir.

Yoshlar, xususan talabalar va o`quvchilarni ma`naviy barkamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash tuyg`usi, qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo`lish shakllari to`g`risidagi bilimlarning majmuasi bo`lgan zamonaviy aksiologya, ya`ni qadriyatshunoslikning asoslarini o`rgatish nixoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umuminsoniyatning qadrlash me`yorlari borasida tuplagan yutuqlarini umumlashtirgan bilim soxalari imkoniyatidan foydalanish ta`lim-tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir. Inson - oliv qadriyat

Mustaqillik yillarida inson tabiatini chuqurroq o`rganish va undagi salbiy mayllarni bartaraf etishga yordam beradigan falsafiy qarashlarga extiyoj vujudga keladi. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim kishilar millat, Vatan, xalq manfaatlariga zid ravishda jamiyatdagi mavjud qonun-qoida va me'yorlarni poymol etib, ko`proq g`arazli maqsadlarini amalga oshirishga va turli ixtiloflarni keltirib chiqarishga harakat qiladi. Shunday niyatlar yo`lida hatto jinoiy guruxlarga birlashadilar, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan davlat dasturlarini amalga oshirishga tusqinlik qiladilar. Shuningdek, ular milliy totuvlik, tinchlik va barqarorlikka raxna soladi, ma`naviy-aqlokiy muhitni bo`zadi, kishilarning ijtimoiy adolatga bo`lgan ishonchini susaytiradi, barkamol insonni voyaga yetkazishga qarshilik ko`rsatadi. Ular turli ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi firibgarlar, xokimiyatga intiluvchi ekstremistlar, korrupsiya va jinoyatchilik olami vakillari, giyohvand, poraxur, terrorchi va shuxratparastlar kabi jamiyat uchun noxush odamlardir.

Insonni falsafiy bilish va tahlil etish ana shunday kishilar mavjudligini e'tiborga olish muhimdir. Demokratik jamiyat inson huquqlarini ta'minlashni o`z oldiga maqsad qilib qo`yar ekan, bunday kishilarni tarbiyalashga, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga, kishilar ongida milliy manfaati va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi.

Kurmat - ezgu amal Farzand burchi Ona zamin, ona tabiat bo`lmasa insonning yoki barcha tirik mavjudodning bo`lishi mumkin emas. Odamlar ona zamin bag`rida tug`iladi, umr kechiradi, bola-chaqqa orttiradi. Uzoq yillar hayot zavqini tortadi. O`z g`oyasi uchun kurashadi, umri tugagach esa yana ona zamin qo`yniga qaytadi.

Insoniyatni o`z bag`rida ko`tarib, unga hayot bye rib turgan zamanni ulug`lash uchun odamlar bisotidagi eng ulug` so`zni - "Ona" so`zini qo`shib ishlataladi va ona zamin deb ataydi. Ha, odamlar bisotidagi eng ulug` so`z Onadir.

Ona borki, olam bor. Vatan bor. Ona borki, hayot bor. Rus adibi M.Gorkiy qo`yidagilarni yozib qoldirgan edi: "Quyoshsiz gullar ochilmaydi, sevgisiz hayot yo`q, ayolsiz muhabbat yo`q. Onasiz shoir ham, qahramon bo`lmaydi. Mehri cheksiz, butun dunyoni ko`kragi bilan boqqan ayol – Onani sharaflaylik! Insondagi butun go`zallik, hatto quyosh nuri ham ona mehridan".

Ona farzandlar uchun eng yaqin, eng mehribon inson. Onalarimiz uchun biz har doim bolamiz, uning mehriga, shirinsuxan so`zlariga doimo muhtojmiz. Onalar shirin so`zini, tunganmas mehrini, qalb qurini berib mushtdek etdan butun bir inson yaratganlar. Ko`zining nurining, ko`zining qorasini, yoshlik husnini farzandlariga berib, orzu-havaslarining ug`il-qizlari ijrosida ushalishini niyat qilganlar.

Insonning avlodlar oqimida otaning o`rni, vazifasi beqiyosdir. Farzandlar jismida otalar qoni, otalar jismi davom etadi. Xar bir ota farzandi siyosida o`zining yoshligining, umrining bahorini va orzu-xavasini ko`rishni hoxlaydi.

Ota! Bu so`z farzandlar qalbida mehru muhabbat to`la ohang bilan otilib chiqadi, milion-milion tillarda takrorlanadi.

Ota - oila va farzandlar tashvishini ko`tarib ketayotgan ulkan karvon, butun umri mehnat bilanutib oila dasturxonini noz-ne'matlarga to`ldirayotgan qadok qulli dexqon.

Ota - oila tarbiya matabining murrabbiysi. Oila a'zolarining ma`naviy olamida otaning dunyo qarashi, muomala madaniyati, iymon-e'tiqodi asosiy yunalishini tashkil qiladi.

Ota - oila bilan jamiyatni bog`lab turuvchi ma`naviy ip, oila a'zolarini jamiyat qonun-qoidalariga mos ruhiy tarbiyalovchi murabbiyi. Ota! Bu - ulug` nom. Uni oqlash, otalik burchini bajarish hamma erkaklar uchun sharaqli. Farzand tarbiyasida otalarning ibrat bo`lishi yana sharaqli. Tabiiyki, farzand tarbiyasi ota obrusidan ibrat olishdan boshlanadi. Hamma otalar ham bolalariga ibrat tarbiyasini bera oladi, deb bo`lmaydi. Ammo dunyoga kelgan farzandni tarbiyalash, voyaga yetkazish uchun ota degan nomning o`zi yetgulik emas, unda mukammal burch ham bo`lmog`i kerak.

Oila quvonchi, farzand baxti,  
Qoyaday bardoshli, zaxmatkash, dono.  
Otalar - hayotning chinor daraxti.

Quyosh mehringizga dildan tasanno.

### **Insoniylik fazilatlari**

#### **Azizu mukarram bulay desangiz**

Insonga ziynat bag`ishlaydigan fazilat odob, axloqdir. Alloh ilmi yaxshilik bilan yomonlik o`rtasidagi murakkab muammolar haqida baxs yuritib, insonning komillikka erishish yo`lini yoritib boradi. Har bir odam bir odam bo`lgani kabi, usha insonning odob-axloqi ham juda murakkab ikkinchi bir odam, desak yanglishmaymiz. Chunki, shaxsning zo xiriylari va botiniy olamini, ayniqsa qalb olamini o`rganish, bilish, taxlil etish g`oyadan qiyin, bu ruhiyat bilan bog`liq holatdir. Odobli komil insonda odamiylikning qator yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, raxm-shavqat,adolatu diyonat, hayoyu iffat, zarofatu oqibat, favoyu sadoqat, himmatu sahovat, fidoyu oqibat, izzatu xurmat, imon-e'tiqod kabilar mujassam topgan bo`ladi, ayni holda shu xislatlarning aksi beburd-axloqsiz kimsalar odobida ko`rinadi. Har bir xalqning nufuzi va obru-shuxrati kishilarning odob-axloqi, xislat fazilatlari bilan belgilanadi, shu taxlit bahosini oladi. Qadimda faylasuflaru donishmandlar odob-axloq jamiyatning poydevori deganlar.

Dunyoda odam bolasi yomonlik bilan yaxshilikning ostonasida turadiki, arzimas bir ichki yoki tashqi sabab bilan ostonadan chiqib yo yomonlik tomon, yo yaxshilik tomon ketishi mumkin. Odob-axloq ilmi va tadbirlari ana shu holatlarni o`rganadi, tahlil etadi va odamga yaxshi yo`lni ko`rsatadi.

Yomonlikni daf qilish, kungilda gina-qudrat saqlamaslik, har qanday gunohli o`y-xayollardan forig` bo`lish, qalbni poklash iymonni mustahkamlash bo`ladi. Iymon butun olamga hech qachon yomonlikni ravvo ko`rmaydi. Bunday axloq-odobli odamni hamma sevadi va izzat-idrok qiladi.

Yosh avlodning har tomonlama barkamol bo`lib yetishishida uningxulq-odobi asosiy mezondir. Odobli insonlar ko`p bo`lgan jamiyat gurkirab usadiyu va xulqi to`liq farovonlikka erishadi. Bunday xalqning shahrati dunyoga taralib, mamlakat chinakambuyuk davlat bo`ladi.

### **Issoniylk fazilatlari**

#### **Barchasidan a'lo - yaxshilik**

Kazrati Oysha aytadilar: "Men Rasulluloxdan "YO Rasulullo! Mening ikkita qo`schnim bor, hadyani shulardan qaysi biriga berishim kerak?" - deb so`raganimda Rasulullo: "Qaysi bittasining eshigi senga yaqinroq bo`lsa, ushanga berasan", - dedilar.

Qo`schnichilikda hovli ichida qo`schni xovlisiga eshik, tuyruk qo`yish, tansiq ovqatlardan bir-birlariga chiqarish, halim, sumalak kabi murakkab taomlarni birgalikda tayyorlash, og`ir yumushlarni o`zaro hamkorlikda bajarish, tuy-marakalarda bosh-qosh bo`lish kabi udumlar xalqimizni bir-birlariga yaqinlashtirib, insoniylik tuyg`ularini tarbiyalaydi.

Qo`schnilar har xil bo`ladilar. Bir xil ko`schnilar juda tez muloqotga kirishib, ko`schnisi bilan samimiyy munosabatda bo`lishadi. Ular ko`pincha tansiq ovqatlarni ko`schnisi bilan kunlari sovg`alar qilishdan qalban xursand bo`ladilar.

Ba`zi ko`schnilar bir-birlari bilan juda kam aloqada bo`lib, hadeb ko`schniga kirib ularni bezovta qilishni ep ko`rmaydilar. Olish-berishlar ham onda-sonda bo`ladi (Arafa kunlari ko`schniga osh, samalak berish va shu kabilar). Ayrimlari ko`schnichilikni zaruriy hollarda: to`yhasham, to`g`ilish, beshik to`yi, sunnat to`yi, ta'ziya, kasallarni ko`rish kabi hollarda kirdi-chiqdi qilib hol-ahvollaridan xabardor bo`lib turadilar. Kasal ko`rgani boruvchi ki shi jannat bog`ida yurgandekdir, deyiladi Hadisdan. Qo`schnichilikda kasalliklarni, keksalarni, nogironlarni vaqtivaqtib bilan, ayniqsa bayram, hxayit kunlari borib ko`rish va lozim bo`lsa kerakli xojatlarini chiqarish, zaruriy maslahatlar berish eng savobli ishdir. Ammo kasal oldida uzoq o`tirib turli gaplar bilan uni toliqtirib qo`yish bilan "Voy, buncha ozib ketibsiz, ancha o`zigizni oldirib qo`yibsiz", kabi so`zlar bilan bemor dilini og`ritish odobdan emas.

### **Insoniylik fazilatlari**

#### **G`urur dimog`dorlik emas**

Dimog`dorlik bu g`ururlanishning butunlay aksi bo`lib o`ta yomon xususiyatdir. Bu inson o`ziga-o`zi maxliyo bo`lib, o`zini boshqalardan ustun quyishda namoyon bo`ladi. U qaysi ko`rinishda sodir bo`lmasin, insoniylikni yerga uradi. Dimog`dorlik, ayniqsa kekkayganda oshkora ko`rinadi. Kekkayganlar bu bilan o`z obruyini to`kishayotganini bilishmaydi. "Ko`pchilik ichida o`zini kalondimog` tutib, kekkaygan odam, - degan edi allomalardan biri, - agar u xurmat qilishlarini istayotgan bo`lsa, ayni shu istagigi zid natijaga erishadi". Kekkayib obru topgan kishini hech bir tarix bilmaydi. "Kamtarlik - kamolga, mamanlik zavolga yetkazadi", degan hikmat beziz aytilmagan. Shu dardga chalinganlaning tuzalashi qiyin. O`zini hamma narsaga qodir, bilimdon, dono hisoblab, boshqalarni mensimaydiganlar ham el nazaridan qolib atrofdagilarning nafratiga duchor bo`ladi. Shuning uchun bo`lsa kerak: "Kishishaxsini yerga uruvchi illatdan eng qabixi va nafratga loyig`i, - deb yozgan edi ingliz yozuvchisi Uil'am Tekkerey, -o`ziga-o`zi maxliyo bo`lishlikdir". O`ziga o`zi maxliyo bo`lgan dimog`dorlar shunday bir yaramas illatga mubtalo bo`ladilarki, ular guyo sharga uxshaydi, balandlayveradi, bir kun "paq" etib yoriladi.

### MUSTAQILLIK -ASRIY ORZUMIZ

Mustaqillik jaxon tarixiy taraqqiyotiga o`zining qadimiyligi ilm-fani, adabiyoti, san'ati va madaniyati bilan o`lkan hissa qo`shgan o`zbek xalqi hayotida jumxuriyatimizda istiqomat qilayotgan barcha xalqlar, elatlari va millatlar tarixiy taqdirida ruy bergen buyuk voqeadir. Bu, aslini olganda, qadimiyligi O`zbekistonning yangi tarixini mustamlakachilik azob-uqubatlardan toabad qutulib, ozodlikka chiqish, erkin hayot kechirish, o`z takdirini o`zi hal etishi huquqiga ega bo`lishi davrini boshlab bergen tub burilishdir.

Mustaqillik xalqlarimizning ozodlik, xurriyat, erkinlik shabadasidan to`yib-to`yib nafas olishi, o`zining haqiqiy insoniy baxti va istiqbolini yaratish imkoniyatiga ega bo`lishdir.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida, nutqlarida mustaqillikning tarixiy ahamiyati atroflicha olib berilgan "Viz uchun mustaqillik - eng avvalo, o`z taqdirimizni qo`limizga olish, o`zligimizni anglash, milliy kadriyatlarini, urf-odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mu'tabar shu zaminda, har bir xonadonda tinchlikni, osoyishtalik ni, barqarorlikni saqlashdir. Aziz vatanimizda adolat, insof, dinu-diyonat, mehru oqibatning qaror topishidir.

Biz uchun istiqlol-millatimiz, mamlakatimizning jahonda obru-e'tibori, shon-shavkatini ko`taradigan sog`lom avlodni, har jihatdan barkamol va fidoiy ug`il-qizlarni tarbiyalash, ularni voyaga yetkazish va baxtini qurishdir. Har bir fuqaromiz uchun - millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar -erkinlik, tenglik, birodarlik, munosib sharoit yaratib berishdir. Mus-taqillikning mohiyati, tarixiy ahamiyatini tushuntirish, targ`ib-tashviq qilish asosida xalqni oliyjanob ishlarga jalb etish, xozirgi davrda istiqlol mafkuramizning muhim talablaridan hisoblanadi.

Mustaqillik va milliy tiklanish o`zaro bog`liqdir, ularni bir-biridan ajratib bo`lmaydi. Mustaqillik milliy tiklanishning, milliy qadriyatlar rivojlanishining asosidir. Chor mustamlakachiliqi davridan boshlab sobiq sovet jamiyatini yemirilishigacha o`tgan uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida toptalgan, kansitilgan, taxqirlangan, nazar-pisand qilinmagan milliy qadriyatlarimizni tiklash, asliga keltirish, yanada rivojlantirish, takomillashtirish uchun asosiy va birdan-bir shart O`zbekiston Davlat mustaqilligiga ega bo`lishdir"<sup>1</sup>.

Siyosiy, iqtisodiy, huquqiy mustaqillik, xalqimiz qo`lga kiritgan ozodlik, erkinlik, hurriyat, milliy istiqlolimiz jumxuriyatimizning madaniy-ma'naviy taraqqiyoti hamda milliy tiklanishimiz, milliy g`ururimiz, milliy qadriyatimiz o`sishi va rivojlanishi uchun qanchalik muhim bo`lsa, o`z navbatida O`zbekistonning insonparvarlik qoidalariga, demokratiya va ijtimoiy adolatga asoslangan jamiyatimizning porloq kelajagi, jumxuriyatimizning bundan keyingi taqdiri, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy zaminlarining qanchalik mustahkam va barqarorligi ma'naviyatga ham bevosita bog`liqdir.

Ma'naviyatimizni rivojlantirish uchun, mustaqilligimizni mustahkamlashning zarur omillaridan biriga aylanishga erishish uchun ilmiy jixatdan tiklanishga muvaffaq bo`lish, milliy ong, milliy madaniyat, milliy o`zligini anglash, milliy qadriyatlar, milliy til, milliy g`urur va

iftixor singari millatni millat qiladigan asosiy belgilar, fazilatlar va xislatlarning shakllanishi, rivojlanishi va tuxtovsiz o'sib borishga erishmoq zarur.

Mustaqillik, ta'bir joiz bo`lsa xalq va millat yo`lida porlab turgan quyoshdir. Mustaqillikdan maxrum bo`lgan xalq erki yo`q millat, bamisoli qanotsiz qushdir. Mustaqillik yo`li hech bir joyda, biron-bir mamlakatda ravon, tep-tekis bo`lgan emas.

---

I.A. Karimov. O`zbekiston: Miliy istiqlol, siyosat, mafkura.T., 1993 i, 43-44 betlar.

Mustaqillik nihoyatda murakkab, og`ir va mushkul ziddiyatli tarixiy jarayondir. Yurtimizning, xalqimizning buguni va kelajagi buyicha sidqi dildan qayg`uruvchi va barcha ijtimoiy tarixiy va iqtisodiy-ma'naviy jarayonlarning falsafiy nazariy asoslarini ko`rsatib borayotgan Prezidentimiz o`z mulohazalarini shunday xulosalaydi: "Yaratganga ming qatla shukurlar bo`lsinki, biz ham xavfsizlikni saqlab qolish borasidagi eng og`ir va murakkab davrni boshimizdan eson-omonlik bilan kechirdik.

Xalqimizning donoligi, bag`rikengligi, sabr-bardoshi bizni har qanday balo-qazolardan asrab, aql-zakovatimizni charxlab, yurtimizda osoyishtalik va millatlararo tinchlikni saqlab qolishga xizmat qiladi. Bugun endi yorug` kunlarga yetganimizga g`ururlanib yangi marralar sari qadam ko`yayotganimiz uchun faxrlanib ishslash va yashashga asosimiz bor"<sup>1</sup>. Vatan, millat taqdiri hal bo`ladigan qaltis vaziyatlarda to`g`ri yo`lni tanlay olish uchun avvalo tarixni va hayotning achchiq-chuchugini bilish kerak.

XXI asrda xalqimizni birlashtiradigan, unga istiqbol yo`lini kursatadigan, mustaqilligini mustahkamlashga yordam beradigan qanday milliy g`oya, milliy mafkura kerak, -degan savol tug`iladi. O`tgan davr ichida xalqimizning ongi va tafakkuri kengaydi. Eng muhimi o`zgardi, o`zgarganda ham chuqurlashib yangilandi. Tafakkur va ongimizning tarix taqozosi bilan bir-biriga yopishib, pirovardida qorong`ulashib qolgan qatlamlariga mustaqillik nuri

---

Karimov I.A. O`zbekiston: Miliy istiqlol, siyosat, mafkura.T., 1993 i, 43-44 betlar.

Kirib bordi. Ongimiz ichiga chiroq yoqildi. Mustaqilligimizning dastlabki va eng oliy ne'mati ana shu o`zligimizni anglab yetish bo`ldi. O`zligini anglab yetgan tafakkurning birinchi belgisi milliy mafkuradan baxramand bo`lishi demakdir. Mamlakatimizdagи tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik, milliy mafkura doirasida uchratish mumkin bo`lgan ichki ziddiyatlarning oldini oldi va uni keng miqyosda xalq va mamlakat qalbiga kirib borishga imkon yaratdi. Bu bora da yoshlarimizning ham hissasi katta deb o`ylayman.

Agar yoshlarimizning orasida uz mamlakatimizda islomiy qadriyatlarning rivoji, ma'naviy yuksalishining jamolini ko`rishga xayrihohlar bo`lar ekan, ular birinchi navbatda zamon farzandi, milliy g`oya va milliy mafkura egasi bo`lgan bilimdon va ma'rifatli inson bo`lishi lozim. Ular azaliy va abadiy ma'naviy qadriyatlarimizdan uzilmagan holda zamonaviy tafakkur darajasidagi bilim va idrokka ega bo`lishlari kerak, shuningdek, "birlashgan o`zar, birlashmagan to`zar" degan maqol hozir bizning millatimiz, Vatanimiz birligi, tinchligimiz uchun juda kerakli fikr. Biz bugun fuqarolarning erkinligi va mustaqil tafakkuriga asoslangan jamiyat qurayotgan ekanmiz, yoshlarimizga jamiyatda mutlaq erkinlik bo`lmasligini, mustaqil fikrlash ma'suliyatsizlik va burchni unutish emasligini tushuntirib borishimiz zarur. Erkinlikni bilim bilan, bilimni iymon bilan, iymonni e'tiqod bilan, e'tiqodni Vatan ravnaqi yo`liga qaratish bilan mustahkamlash yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi asosiy vazifalarga e'tibor bermog`imiz kerak. Oldinda, nihoyatda muhim kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa, erkin fuqarolik jamiyatni ma'naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda, ozod, o`z xaq-huquqlarini yaxshi taniydig'an, boqimandalikning har qanday ko`rinishlarini o`zi uchun or deb biladigan, o`z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan ayni zamonda uz shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg`un holda ko`radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Zero, shunday ekan biz mamlakatimiz ravnaqi uchun bor kuchimizni ayamaymiz va O`zbekistonni hech kimga bermaymiz, uni dunyoga tanitamiz<sup>1</sup>.

## FUKAROLIK JAMIYATI VA SIYOSIY MADANIYAT

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan inqilobiy o`zgarishlar fuqarolarning siyosiy madaniyati bilan chambarchas bog`liq. Siyosiy madaniyat shaxsnинг ijtimoiy tuzumga, hokimiyatga, davlat amalga oshirayotgan ichki va tashqi siyosatga munosabatini aks ettiribgina qolmay, balki shaxsnинг siyosiy ongi bilan siyosiy faoliyatini birligini ham ifodalaydi. Shaxs siyosiy madaniyatining holati, darajasi qancha baland bo`lsa, uning jamiyat ijtimoiy -siyosiy hayotiga ishtiroki shuncha yuqori bo`ladi.

Shaxs siyosiy madaniyati yaxlit, bir butun tizim bo`lib, o`zida bir talay barqaror va beqaror unsur-

---

"Xalq so`zi" 1994 yil 2 sentabr, "Mustaqillik va ma'naviyat", Toshkent, 2001 yil larni birlashtiradi. Qolaversa, bu madaniyatning saviyasi naqadar balandligini xuddi usha unsurlar belgilaydi. Shuningdek, u o`z tarkibida siyosiy tuyg`ular, siyosiy bilimlar, siyosiy baholar, siyosiy normalar, siyosiy qadriyatlar kabi barqaror tarkibiy qismlarini mujassamlashtiradi. Ushbu komponentlardan tashkil topgan siyosiy madaniyat va faoliyat dasturlari, siyosiy faollikning turli tuman shakllarini ham o`ziga qamrab oladi. Shaxs siyosiy madaniyati inson siyosiyfaoliyatining birligini ifodalovchi integral xarakteristikadir.

Siyosiy madaniyatli inson shaxsini tarbiyalashga harakat qilayotgan milliy istiqlol mafkurasi targ`ibotchilar va tashkilotchilar, oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlarining muammolari inson siyosiy madaniyatining tarkibiy komponentlarini bilmasdan turib, bu borada amalga oshirayotgan mafkuraviy -tarbiyaviy ishlarimizning samarasini oshirib bo`lmaydi.

Hozirgi zamon insonshunosligi ma'lumotlariga ko`ra, inson siyosiy madaniyati doimo harakatda bo`lgan dinamik jarayon bo`lib, u uch jihatni o`z ichiga oladi. Boshqacha aytganda u o`zida: bilish, baholash, xulq-atvor nuqtai nazarlarini birlashtiradi. Ushbu tomonlarning o`zi ham o`z navbatida bir necha komponentlardan tashkil topadi. Chunonchi, bilish bosqichi o`zida siyosiy bilimlar, siyosiy xabardorlik, siyosiy onglilik kabi sifatlarni mujassamlashtirsa, baholash bosqichi siyosiy mulohazalar, siyosiy normalardan tashkil topadi. Xulq-atvor bosqichi ijtimoiy-siyosiy dasturlarda asosan amalga oshiriladigan faollik, vatanparvarlik, millatparvarlik, baynalmilalchilik, millatlararo munosabatlar kabi xususiyatlarni o`zida mujassam qiladi.

Bilish bosqichining eng asosiy barqaror sifati - siyosiy bilimlardir.

Siyosiy bilimlar asosan ikki guruxga ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy-texnikaviy bilimlarga bo`linadi. Ijtimoiy-siyosiy bilimlar siyosatning maqsad va vazifalari, uning iqtisodiy bazis bilan bog`liqdigini aks ettiradi. Tashkiliy-texnikaviy bilimlar esa bevosita jamiyat yoki davlat ni boshqaruv jarayoniga taalluqli bilimlardan iborat bo`ladi.

Siyosiy bilimlar hokimiyat va tuzum, ijtimoiy jarayonlarni boshqarishning asosini tashkil etuvchi g`oyalar va qarashlar, me'yor va qoidalar, davlat tuzilishi va uning siyosiy tizimi, davlatni boshqarishda ishtirok etishning shakllari va usullari haqidagi ma'lumotlar yig`indisidir. Siyosiy bilimlar ijtimoiy amaliyotga tadbiq etilgandagina shaxs uning mohiyati va mazmuniga chuqr tushunib yetadi. Bunday bilimlar shaxs siyosiy faoliyatida qo`llanilsa, insonda turli siyosiy muammolarni hal etishning eng qulay jihatlarini tanlay olish malakasi hosil bo`ladi. Inson ongi va faoliyatining murakkab fenomeni bo`lgan siyosiy madaniyatning asosiy omili siyosiy bilimlardir.

Insonda haqiqiy siyosiy madaniyat voqelikni ilmiy bilish, huquqiy,

axloqiy va gumanistik qadriyatlarni tushunish asosida shakllanadi. Shu sababli tushunish va anglash, bilishning eng muhim asoslaridan biri hisoblanadi va shaxsning siyosiy yetukligi darajasini belgilaydi. Shu bilan birga siyosiy bilimlarni siyosiy faoliyatda qo`llash istagini tug`diradi. Qisqasi, tushunish va anglash shaxsning madaniy saviyasi yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Qolaversa, bu omillar shaxsni onglilik sari yetaklovchi kuchdir. Boshqacha aytadigan bo`lsak, yuz berayotgan siyosiy voqe va jarayonlardan xabardorlik shaxs siyosiy madaniyatining qay darajada shakllanganligini ko`rsatadi. Shaxs siyosiy ongliligi darajasini belgilovchi dalil bu e'tiqoddir. Siyosiy bilimlar shaxs manfaatlari yo`lida qo`llanila boshlanganidagina e'tiqodga aylanadi. E'tiqod shaxsning turli ijtimoiy fazilatlarida namoyon bo`ladi. Inson siyosiy madaniyatining shakllanish jarayonining muhim bosqichlaridan yana biri - baholashdir. Baholashning eng asosiy o`zagi - siyosiy faoliyat normalari hamda siyosiy qadriyatlarni o`zlashtirishdir. Chunki siyosiy normalar jamiyat hayotining izga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, ilmiy manbalarda mazkur tushuncha batafsil tadbiq etilmagan, bizning fikrimizcha, siyosiy madaniyatning asosiy normalari qo`yidagilardan iborat bo`lmog`i zarur:

Birinchidan, rahbarlikda jamoatchilik fikrini inobatga olish bilan birga shaxsiy mas'uliyatni unutmaslik;

Ikkinchidan, aholining istak va extiyojlari, kayfiyati bilan yashash;

Uchinchidan, siyosiy halollik;

Turtinchidan, kamtarlik;

Beshinchidan, oshkoraliq.

Siyosiy faoliyatda hamfikrlilik bilan shaxsiy mas'uliyat birligi katta rol uynaydi. Chunki ko`p fikrlilik turli siyosiy xatolardan saqlasa, shaxsiy mas'uliyat vaziyat talab etganida bir kishi tomonidan zaruriy tezkor qarorlar qabul qilinishiga imkon yaratadi. Bu ikki xislatning o`zaro aloqadorligini ta'minlash ko`p jihatdan rahbar shaxsni, dunyoqarashi va siyosiy halolligiga bog`liq. Siyosiy halollik deganda siyosatda nafaqat siyosiy tartib-qoidalar, balki axloq qoidalariga rioya etgan holda faoliyat ko`rsatish tushuniladi. Siyosiy faoliyat kamtarlik bilan ham bog`liq. Chunki faqat siyosiy halol shaxsgina kamtar bo`la oladi.

Baholashning eng muhim omillaridan yana biri aholi bilan organik birlikdir. Bu esa oshkoraliq normasiga rioya qilishini talab etadi.

Oshkoraliq bo`lmasa, shaxsning siyosiy jarayonlarda ishtirot etish ishtiyobiyoq yo`qoladi, siyosiy xabarlarga qiziqishi susayadi, inson siyosatdan yiroqlasha boshlaydi.

Shaxs siyosiy madaniyati an'anaga aylanib qolgan siyosiy harakatlar va ommaviy-siyosiy ijodiyot natijalarining shaxs tomonidan uzlashtirilishi bilan xarakterlanadi. Shaxs siyosiy madaniyatining shakllanishiga bevosita ta'sir o`tkazuvchi siyosiy qadriyatlar qo`yidagilardan iborat:

birinchidan, siyosiy mafkura;

ikkinchidan, siyosiy an'analar va tajribalar;

uchinchidan, siyosiy huquq normalari (Konstitutsiya, siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy aktlar);

to`rtinchidan, siyosiy faoliyat shakllari.

Siyosiy mafkura nafaqat siyosiy g`oyalar, siyosiy qadriyatlarning tizimi, balki mustaqil fikrlash, ishlash, yashash madaniyatiga ega bo`lgan gumanistik tipdagi yangi shaxsni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy tarbiya hamdir.

Siyosiy an'analar bir avlod erishgan yutuqlarni uzida saqlab qoladi, boyitadi va ikkinchi avlodga yetkazadi. Boshqacha aytadigan bo`lsak, siyosiy an'analar insoniyat bosib o`tgan tarixiy taraqqiyot davomida to`plangan siyosiy tajribani avloddan avlodgayetkazadigan vositalar yig`indisidir.

Ajdodlar yaratgan madaniy merosga suyangandagina o`tmish, bugun va kelajak o`rtasidagi o`zaro aloqadorlik saqlanib qoladi.

Siyosiy an'analar, siyosiy ong va siyosiy faoliyat birligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun ham siyosiy an'analar siyosiy madaniyatni shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. Biroq shuni unutmaslik zarurki, faqat zamonlar va zaminlar sinovidan o`tgan, progressiv ahamiyatga ega bo`lgan siyosiy an'analargina shaxs siyosiy madaniyatini shakllantiradi. Bunday siyosiy an'analar tarbiyaviy ta'siri ma'naviy madaniyat yordamida kuchaytiriladi, chunki ma'naviy madaniyat kishilarning ijtimoiy-tarixiy amaliyoti bilan bevosita bog`liq, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tuzum bilan kafolatlangandir.

Baholash shaxs siyosiy madaniyatining sifatiy holatini aniqlashda alohida ahamiyatga ega. Baholash - bir tomonidan shaxsning ijtimoiy vogelikni bilishining natijasi bo`lsa, ikkinchi tomonidan yuz berayotgan ijtimoiy jarayon haqidagi ma'lumotni siyosat nuqtai nazaridan izchil idrok etish qobiliyati hamdir.

Shaxs siyosiy madaniyatining xulq-atvor jihatni eng avvalo, ijtimoiy-siyosiy faollikni o`z ichiga oladi. Ijtimoiy-siyosiy faollik bo`lmas ekan, shaxs siyosiy madaniyati ham shakllanmaydi.

Xullas, siyosiy madaniyati baland, barkamol, inson shaxsini shakllantirish jarayonini jadallashtirmoq uchun tarbiyaviy-mafkuraviy ishlar yalovbardorlari biz yuqorida sanab o`tgan sifatlarni yanada mus tahkamlashga e'tiborlarini qaratishlari zarur.

### **SIYOSIY MUSTAQILLIK -DAVLAT BARQARORLIGINING OMILI**

Inson huquq va erkinligining ta'minlanishi, baxtiyor hayot kechirishi, har tomonlama kamol topishi, uning demokratik mustaqil davlatda yashashi bilan belgilanadi. Tarix shuni kursatadiki, insonning barcha orzu-umidlari, istaklari faqat rivojlangan mustaqil demokratik davlatdagina to`la ruyobga chiqishi mumkin.

Siyosiy mustaqillik ayni bir paytda ham iqtisodiy mustaqillikning ham madaniy-ma'naviy mustaqillikning o`zagi, negizidir.

Siyosiy mustaqillik - bu har bir xalq va millatning o`zini-o`zi idora etishi, o`z taqdirini, farzandlari kelajagini o`zining qalb amri, hohishi ila hal etishidir.

Siyosiy mustaqillik davlat chegarasi va xududining daxlsiz va bo`linmasligini ham bildiradi.

Har qanday davlat siyosiy mustaqilligining eng muhim asosiy belgilaridan yana biri - o`z Konstitutsiyasiga, fuqaroligiga, tiliga, milliy puliga, milliy bayrog`i, gerbi va milliy madhiyasiga ega bo`lishdir.

Siyosiy mustaqillik har bir davlat yoki respublikaning ichki va tashqi siyosati sohasidagi hamma va har qanday ishlarni o`zi mustaqil amalgalashirishini xam bildiradi.

"O`zbekistan Respublikasining Prezidenti O`zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig`idir"<sup>1</sup>. U ayni paytda Vazirlar Mahkamasining Raisi ham hisoblanadi.

Asosiy qonunimiz - Konstitutsiyada belgilab qo`yilganidek, O`zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlis va Prezidenti ish

olib borishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti siyosatining bosh yo`llaridan biri - hamma narsadan qonunni ustun qo`yish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash, ana shu asosda fuqarolar jamiyatini vujudga keltirish, mustaqilligimizning siyosiy-huquqiy negizlarini mustahkamlashdan iboratdir.

Qonunlar, farmonlar, farmoyishlar ijro etilmasa, ularning amaliy ahamiyati bo`lmay qoladi. Ijroiya hokimiyati bo`lmasa, qonun bajarilmaydi, tartib va intizom bo`shashib ketadi.

"Kuchli ijroiya hokimiyati bo`lmasa, - deydi I.Karimov, - hatto eng demokratik yo`l bilan qabul qilingan qarorlar ham bajarilmasligi mumkin. Bu esa qonuniy qarolarning ruyobga chiqarilishini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qili-

---

O`zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, T, 1992 yil, 29 bet.

nishini, siyosiy va iqtisodiy islohatlar turmushga tadbiq etilishini ta'minlaydigan Prezidentlik hokimiyatini mustahkamlash va rivojlantirishni taqazo etadi.

O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy asosi fuqaralar jamiyatidir. O`zbekistonda, shu tuproqda tug`ilib, shu yurtga mehnati singgan har bir inson, u o`zbekmi, tojikmi, qirg`izmi yoki qozoq, turkmanmi, rus yoki ukrainmi, uyg`ur yoki tatarmi, millati, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qatyiy nazar, baribir bir xil imtiyozga ega, qonun oldida tengdir. Ularning hammasi Respublikamizning teng huquqli fuqarosi bo`lishga munosibdir"<sup>1</sup>.

Fuqarolik jamiyat O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy asosidir.

Fuqarolik jamiyat, erkinlik, ozodlik, tenglik, ijtimoiy adolat jamiyatidir. Inson manfaati uchun xizmat qilish, turmush farovonligini ta'minlash, uning qobiliyati, talanti va iste'dodini ro`yobga chiqarish niyatlari, orzu-umidlarini amalga oshirish uning oliy maqsadidir.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "O`zbekiston - kelajagi buyuk davlat. Bu mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qatyiy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir".

O`zbekistan Respublikasi, birinchidan, o`z taqdirini o`zi belgilaydigan, umumbashariy qadri

---

I.A.Karimov "O`zbekistan: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., 1993, 43 -45 bet

yatlar ustuvorligiga asoslanadigan, insonparvarlik qoida-larini tan olgan demokratik davlatdir. Ikkinchidan, fuqarolar osoyishtaligi va milliy totuvlikni ta'minlashni o`zi uchun maqsad qilib qo`yan tinchliksevar davlatdir. Uchinchidan, o`zbek xalqining boy ijtimoiy-ma'naviy merosiga, milliy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, tarixiy qadriyatlari, milliy urf-odat, udum va an'analariga tayanib ish tutadigan insonparvar davlatdir. To`rtinchidan, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatlari chuqur anglab va his qilib faol ichki va tashqi siyosat olib borayotgan davlatdir. Hozirgi paytda O`zbekistonda qaror topayotgan davlat - bu demokratik-huquqiy davlatdir.

Mustaqillik sharoitida o`z-o`zini boshqarish xalqning yaratuvchilik

qudratini oshiradi, uning jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini kuchaytiradi. O`z erkiga ega bo`lgan, mutelik va qo`llikdan qutilgan jamiyat fuqarosi o`zini eng baxtli inson deb bilib va chuqr his etib, har qanday murakkab va mas'uliyatli ishlarni ham buyuk jasorat bilan qiladi va tarixini yaratadigan va harakatga keltiradigan buyuk mo`jizakor kuchga aylanadi.

Davlat mustaqilligini takomillashtirishning muhim omili - ko`p partiyaviylik, ya'ni bir qancha siyosiy partiyalar bo`lishi tabiiydir. Davlat mustaqilligi, siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda siyosiy partiyalar kabi jamoat tashkilotlari ham muhim rol uynaydi. Buni jamiyatimiz jamoat tashkilotlari misolida ochiq-oydin ko`rish mumkin. Bo`larga kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, ijodiy tashkilotlar, mahalla kumitalari, xotin-qizlar, urush va mehnat veteranlari tashkilotlari, madaniyat fondi, tabiatni, tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish bilan shug`ullanadigan turli jamiyatlar va shu kabi boshqa tashkilotlar kiradi.

Jamoat tashkilotlari davlat ishlarini boshqarishga siyosiy-xo`jalik, ta'lif-tarbiya, maorif, ijtimoiy, madaniy masalalarini hal etishda, mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilishda, uy-joy va moddiy ne'matlarni taqsimlashda, fuqarolarning yosh avlodning siyosiy madaniyatini oshira borish, ijtimoiy faoliyatini kuchaytirishda, milliy va millatlararo muammolarni hal etishda qatnashadilar. Shu tariqa ularning hammasi jamiyatimizning siyosiy mustaqilligiga o`z hissasini qo`shadi.

Siyosiy mustaqillik - milliy erkinlik demakdir. Bu respublikaning, uning xalqining uz hohish-irodasining erkin izhor etilishi, o`zining milliy davlat tuzilishi va ma'muriy-xududiy bo`linishi masalalarini o`zi hal qilish huquqi va imkoniyatlariga ega bo`lishidir. Bu yana yer, yer osti qazilmalari, tabiiy boyliklar, o`simlik va hayvonot dunyosi vujudga keltirgan iqtisodiy va ilmiy imkoniyatlar, mehnat natijalari hamda boshqa mol-mulk muassasalari faqat respublikaning mulki bo`lishi lozim degan ma'noni ham bildiradi.

Siyosiy mustaqillik respublikada ishlab chiqariladigan maxsulot hajmlarini belgilash, litsenziya berish, shartnomalar va erkin iqtisodiy mintaqalarni vujudga keltirish, BMTga va boshqa xalqaro tashkilotlarga vakillar yuborish, chet ellardagi vatandoshlar bilan insonparvarlik aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlashni mustaqil hal qilish imkoniyatini olib beradi.

Yangi tuzilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligidagi har bir xalqning teng huquqli erkin rivojlanishini ta'minlash, jumxuriyatlarning siyosiy va iqtisodiy mustaqillik yo`lidagi intilishlarida keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

"Demokratiyaga tinimsiz aqliy va jismoniy mehnat qilib, ter to`kib, hayotning achchiq-chuchchugini obdon totib, qiyin, aytish mumkinki, hatto fojeali tajribalarni ham boshdan o`tkazib, og`ir sinov va ko`rashlarga mardona bardosh beribgina erishish mumkin1. Bu og`ir mashaqqatli ishni hal etish, qoyilmaqom qilib bajarish, birinchi navbatda, xalq zimmasiga, uning g`oyaviy va siyosiy yetukligiga bog`liq. Ommaviy ongning darajasi qanchalik yuqori bo`lsa, respublikalarning mustaqilligi ham shunchalik yuksak bo`ladi".

## IQTISODIY MUSTAQILLIK VA UNGA

## **ERISHISH YO`LLARI**

O`zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining moddiy asosini iqtisodiy mustaqillik tashkil etadi. Ko`p yillar mobaynida bizning diyorimiz xom-ashyo manbai, asosiy paxta yetishtiruvchi va uning haddan tashqari arzon narxlarga so

---

I.A.Karimov, O`zbekistonning siyosiy -ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari, T., 1995, 11 bet

tuvchi o`lka bo`lib keldi. O`zbekiston sobiq Ittifoqdan neft, mashina va uskunalar, don, chorva, oziq-ovqat mahsulotlari bilan birga extiyojimizni qondiradigan oddiy iste'mol mollarini ham chetdan keltirish bilan bog`liq o`ta vayron holdagi markazlashgan, rejali iqtisodiyotni, aholining past turmush darajasini meros qilib olgan edi.

Mustaqillikka erishgan kundan boshlab, Prezidentimiz tomonidan ilmiy ishlab chiqilgan beshta tamoyilga, ya`ni: 1) iqtisodiyotni mafkuradan batamom holi qilish; 2) davlatning o`zi bosh islo Hatchi bo`lishi; 3) taraqqiyot jarayoni qonunlariga asoslanish; 4) kishilarni ijtimoiy muhofaza qilish; 5) bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida ham ibratlari ishlar qilindi. Muxtoj, ko`p bolali, qarovchisiz qolgan oilalarga, qariyalar va yoshlarga, bolalarga, nafaqachilarga muntazam yordam berildi. Salomatlik posbonlariga, zahmatkash muallimlarga, jurnalistlar, ommaviy axborot xodimlariga, oliy o`quv yurtlari talabalari va professor-o`qituvchilarga ancha-muncha yengillik to`g`dirildi.

Amalga oshirilgan ishlar, mustaqillikni mustahkamlash yo`lidagi dastlabki qadamlar, ilk muvaffaqiyatlardir. Nihoyatda og`ir, murakkab, ancha vaqt va mablag`, xalqimizdan buyuk jasorat talab qiladigan ishlar hali oldinda turibdi.

Hozirgi asosiy vazifa, milliy istiqlolimizning taqdiri bilan bevosita bog`liq bo`lgan dolzarb muammo - mustaqilligimizning iqtisodiy omillarini mustahkamlashdir. Iqtisodiyotning asosiy vazifasi - xalqning o`sib borayotgan talabini qondirish va mamlakatni har tomonlama rivojlantirishdan iboratdir.

Ishlab chiqarish to`xtab qolsa, kishilarning butun ma`naviy hayoti to`xtab qolgan, jamiyat halok bo`lgan bo`lur edi. O`zbekistonning mustaqil davlat sifatida buyuk kelajak sari borishi uchun xozirdanoq o`z iqtisodiyotini barqarorlashtirishi, so`ngra uni muttasil o`stirishi kerak bo`ladi.

Iqtisodiyotni xarob qiladigan asosiy narsa uni siyosatga va mafkuraga bog`lab qo`yishdir. Iqtisodiy mustaqillikka erishishdan ko`ra siyosiy mustaqillikni qo`lga kiritish qiyinroqdir.

Mustakdillikning iqtisodiy zaminlarini mustahkamlash, milliy tiklanishga moddiy baza yaratish uchun sanoatning barcha turlari va tarmoqlarini zamонавиy talablar asosida barpo etishning ahamiyati juda katta.

Respublikada ishlab chiqariladigan juda katta miqdordagi xom-ashyo va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining asosiy qismini o`z tuprog`imizda, o`z yurtimizda tayyor mahsulot ishlab chiqarishga jalb etish lozim. Zamонавиy texnologiyalarni chet ellardan olib kelib qishloq joylarida va ishchi kuchi ortiqcha bo`lgan tumanlarda kichik qo`shma korxonalar tashkil etish zarurligini hayotning o`zi ko`rsatib turibdi.

Hozirgi davrda qo`shma korxonalar sonini ko`paytirish, yetishib chiqqan tadbirkor- ishbilarmonlarga keng imkoniyat yaratib berish, mulkchilikning barcha turlariga yo`l ochish, iqtidorli kadrlarni xorijiy mamlakatlarga yuborib o`qitish, maishiy xizmat va savdo korxonalarini, sanoat korxonalari va uy-joylarni xususiylashtirish O`zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

"...bugungi eng muhim hal etuvchi masala, -deydi I.A.Karimov, - kichik va o`rtalarning rivojlantirish, ularga keng imkoniyat va imtiyozlar tashkil qilib berishdir.

Qisqa muddat ichida ichki bozorni to`ldiradigan va eksport qilinadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik texnologiyalarni joriy etish konsepsiysi va milliy dasto`rini ishlab chiqish zarur"1.

Mustaqilligimizning iqtisodiy zaminlarini barpo etish va mustahkamlashning muhim omillardan yana biri - qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ko`paytira borishdan iboratdir.

Qishloq xo`jaligi mamlakatimiz xalq xo`jaligining eng muhim sohasi, uning ajralmas tarkibiy qismidir. Qishloq milliy daromadning juda muhim manbaidir. Respublikamizga kelayotgan valyuta asosan qishloq xujaligi hisobiga olinayapti.

Qishloqni oyoqqa turg`azish uchun davlat doimiy ravishda yordam berib kelmoqda. Keyingi yillarda dehqonlar daromad va qo`shimcha qiymat solig`idan ozod bo`ldilar. Qishloqlarni obod qilish niyatida qo`shimcha mablag`lar ajratib kelinmoqda. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida zamonaliviy texnologiya-

---

I.A.Karimov, "O`zbekistonning siyosiy -ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari", T., 1995, 40 bet

larni joriy etish, qishloq joylarda ixcham, yangi texnologiyaga asoslangan kichik korxonalarini vujudga keltirish, xalq xunarmandchiligini rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat berilayapti.

Olimlarning fikricha, barcha sug`oriladigan yerlar, respublika agrar bo`limi, agrar xo`jalik oqilona yuritadigan bo`lsa, oz emas, ko`p emas - 60-70 million kishini boqishga qurbi yetadi. Shuning uchun yerdan samarali va oqilona foydalanish masalasi katta ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda boshqa respublikalar, davlatlar bilan iqtisodiy aloqlar, davlatlararo munosabatlarni teng hamkorlikka asoslanib tiklash va uni yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Xalqimizning tub manfaatlariga javob beradigan zamonaliviy iqtisodiyotni barpo etishda bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o`tish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor - mollarni olish va sotish borasida haridorlar va sotuvchilar o`rtasida tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarning yig`indisidir. Bozor tovar-pul munosabatlariga asoslanadigan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida yuritiladigan iqtisoddir.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish butun dunyoda bo`lgani singari mustaqil O`zbekiston Respublikasi uchun ham muhim hayotiy extiyojdir. "Bozorga o`tish muqarrar. Bu davr talabi, obyektiv reallikdir. Ayni vaqtda bozor faqat maqsad emas, balki yangi qadriyatlarni shakllantirish, odamlar farovonligining sifat jixatdan tubdan yuqori darajasiga erishish usuli va vositasidir"1.

Mamlakatimizda o`tkazilayotgan xususiylashtirishda butun xalq

qatnashadi. Bu tadbir orqali davlat mulki fuqarolarga o`tadi, har bir kishi milliy boylikdagi o`z hissasiga ega bo`ladi. Kichik korxonalar, savdo va maishiy xizmat korxonalarifuqarolarga, muassasa va xujaliklarga sotiladi. Shu tariqa xususiy mulk rivojiana boshlaydi. Xususiylashtirish - bu faqat mulkka ega bo`lishgina emas, shu mulkni ishlatib iqtisodiyotni o`stirish va mustahkamlash ham demakdir. Xususiylashtirish natijasida mulkchilik xalqchillashadi. Bundan pirovard oqibatda xalq ommasining, umuman jamiyatning farovonligi ortadi.

Mamlakatimizda o`tkazilayotgan iqtisodiy islohatlarning maqsadi milliy valyutamiz, so`mimizni mustahkamlash, uni bosqichma-bosqich, jahoning kuchli valyutalari bilan konvertatsiyalashga, ya`ni erkin almashuviga erishishdir.

Hozirgi vaqtda mavjud sanoat va qishloq xo`jaligi korxonalarini zamonaviy texnik-uskunalar bilan jihozlab, ularga yangi texnologiya tadbiq qilish ham dolzarb muammolardan biridir. Buning uchun fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Davrimizning muhim bir xususiyati shundan iboratki, fan-texnika inqilobi hozirgi ishlab chiqarishni hamma tomonlariga, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi, insonning o`ziga va uning yashash muhitiga juda kuchli ta'sir o`tkazmoqda,

---

I.A.Karimov, "O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura", 61 -bet mehnat unumdarligini oshirish va butun jamiyatni taraqqiy ettirishning yangi-yangi istiqbollarini ochib bermoqda.

Mustaqillikning muhim sharti nafaqat rivojlangan zamonaviy texnologiyaga tayanish, balki iqtisodiyotni malakali ishchi kuchi bilan ham ta'minlashdan iboratdir. Shu sababli davlat industrial sohalarga yerli aholidayan yetishib chiqqan malakali ishchilar va mutaxassislar yetkazib berishga e'tiborni kuchaytirmoqda.

Prezidentimiz tomonidan ilmiy ishlab chiqilgan iqtisodiy islohatlar strategiyasini izchil ravishda amalga tadbiq etib, Respublikamizda isloh qilishning birinchi bosqichida salmoqli natjalarga erishdi. Hozir respublika jamiyatni isloh qilishning navbatdagi bosqichiga qadam qo`ydi. "Ikkinchisi bosqich bozor tizimlarining shakllanishi tugallanadigan davr bo`lib, soliq moliya va pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirishni, butun tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni ko`zda tutadi..."1.

## **MUSTAQILLIKNING MA'NAVİY ZAMINLARI**

O`zbekistan Respublikasining davlat mustaqilligi ma'naviy hayotimizda ham katta burilishdir. Zero, bu mustaqillik insoniyat tarixiy taraqqiyotining ilk bosqichlaridan ijtimoiy-

---

I.A.Karimov., "O`zbekiston iqtisodiy islohatlarini chukurlashtirish yo`lida", 174 bet

iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlanishining hozirgi bosqichlariga qadar yetib kelgan xalqimiz taqdirida yangi istiqbollar ochishi shubhasiz.

Dunyodagi har bir davlat katta-kichikligidan qat'iy nazar o`zining taraqqiyoti jarayonida ma'naviyatga ehtiyoj sez gan va sezadi. Bu tarixiy zaruriyatdir. Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tarixning burilish davrlarida ayniqsa beqiyos bo`ladi.

Ma'naviyatga bo`lgan talab va ehtiyoj hozirgi davrda O`zbekistonda kun va yil sayin kuchayib bormoqda. Bu bejiz emas, albatta, chunki kelajakda buyuk davlat egasi bo`ladigan komil insonni tarbiyalamasdan, ma'naviy, axloqiy

barkamol qilmasdan turib olg`a tomon rivojlanish, mustaqillik muammolarini hal etish mumkin emas. Bu birinchidan, ikkinchidan, hozirgi bozor iqtisodiyotiga o`tish borasidagi murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish fuqarolarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga, iymon-e'tiqodiga, g`oyaviy-siyosiy yetuklik darajasiga ko`p jihatdan bog`liqdir.

Insoniyat hayotida ma'naviyatga ehtiyoj sezilmaydigan sohaning o`zi yo`q. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ma'naviyat xalqqa, millatga, har bir insonga havodek, suvdek, quyoshdek zarur va bebahodir.

Inson kamoloti millat va mamlakat rivojiga asos bo`ladi. Buyuk davlat bo`lish uchun jamiyatning har bir a'zosi kamolotga erishgan, millat esa buyuk, oqil, dono, madaniyatli, ma'rifatli, dunyo tanigan bo`lishi lozim. Ana shu g`oyatda murakkab va mas'uliyatli vazifani bajarishda milliy ma'naviyatimiz asosiy omildir.

Ma'naviyatning bebaholigi uning turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qardosh qilishligida, ularning taqdirini o`zaro hurmat asosida yaqinlashtirishda ham yaqqol ko`rinadi. Ma'naviyat inson hayotini go`zallashtiradi, turmushiga mazmun va mohiyat bag`ishlaydi. Yuksak madaniyat va ma'naviyat sohibi bo`lgan inson otashin vatanparvar, yurti va xalqi ishiga fidoiy, qalbi pok, so`zi bilan ishi bir, ilmi xulqiga monand bo`ladi. Ma'naviyat - bu oldinga qarab harakat qilmoq, taraqqiyotning yuksak, olyi cho`qqilari sari tuxtovsiz intilmoq demakdir. Ma'naviy barqarorlik bo`lgan joyda taraqqiyot bo`ladi. "Ma'naviyat insonning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo`q joyda hech qachon baxt-saodat bo`lmaydi. Nafaqat ko`hna tarix, balki yangi tarix xam buning ko`plab misollarini biladi"<sup>1</sup>

Prezidentimiz qayd etganidek, "bir vaqtlar Markazning buyrug`ini kutib, bajarib, tepadan ko`rsatilgan chiziqlardan chiqmaslik odatimizga aylangan edi".

Goh oshkora, goh zimdan: "Sizlar o`z-o`zlarining mustaqil boshqarishga qodir emassizlar", "Sizlar mutye, qaram millatsizlar", "Sizlar uchun biz fikrlaymiz, nazariya yaratamiz, amru-farmon beramiz, sizlar esa bajarasiz, xolos", - deb miyamizga qo`yib kelishgan edi.

Yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, jamiyatimizning ruhiy poklanishida islom qadriyatlarning hissasi katta bo`lishi muqarrar. Din asrlar davomida odamlarning eng ulug` maqsadlar yo`lida birlashishga, ham-

I.A.Karimov, "O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura". T., 1993, 43 -45 bet

jihat bo`lishga undagan, din arboblari islom qadriyatlari va ilmlarning mag`zini va poklikka chaqiruvchi o`gitlarini odamlar diliga singdirib kelganlar.

"Islom dini, -deydi I.A.Karimov, -bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmeylik. U quruq aqidalar yig`indisi emas. Mana shu dinni ma'rifatli kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi ugitlarga amal qiladilar.

Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo`lishga, izzat-extirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar".<sup>1</sup>

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shavqat, ota-onalarga e'zoz, farzandlarga mehr-sadoqat, bo`lar insonni inson sifatida ulug`laydigan, axloqiy, ma'naviy jihatdan go`zal va barkamol qiladigan qadriyatlardan bo`lib hisoblanadi.

Mustaqil O`zbekistan Respublikasining Konstitutsiyasida farzandlarning jamiyat, oila hamda ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va mas'uliyatlari milliy qadriyatlarimiz asosida belgilab qo`yilgan. Unga muvofiq voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o`z ota-onalari haqida g`amxurlik qilishga majburdirlar.

Oliy o`quv bilimgohlari va o`rta maxsus bilim yurtlarining ham o`z o`quv rejalarini, o`quv dasturlarini respublikamizdagi o`zgarishlarga muvofiq qayta ko`rib chiqish kerak.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bog`chalardan tortib oliy o`quv yurtlarigacha bo`lgan ta'lif-tarbiya

I.A.Karimov, "O`zbekiston siyosi -ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari, 46 bet

tizimlarida Vatan tarixi va madaniyatini, jug`rofiya va iqtisodini, qadimiylar urs-odatlarimizni o`qitishga muhim siyosiy vazifa sifatida qaralmog`i lo zim. Bu esa, o`z navbatida, darsliklar va o`quv qo`llanmalarni milliy, ma'naviy nuqtai-nazaridan yangitdan qarab chiqishni taqazo etadi. Ma'naviyati rivojlangan xalq o`z-o`zini va o`zgalarni qadrlaydi, qaddini tik tutadi, mag`rur yashaydi, ro`y berayotgan har bir voqeя va hodisaga aql ko`zi bi-lan qaraydi, ilm-fan va tafakkurga asoslanib ish yuritadi, qiyinchiliklar oldida dovdirab qolmaydi, oliy maqsad sari intilishdan aslo to`xtamaydi, xalqi, millati, davlatining kelajagi buyukligiga qatyrian ishonadi.

## **MUSTAQILLIK MAFKURASI VA UNI HAYOTGA JORIY ETISH MASALALARI**

Mustaqillik tufayli o`z tarixiy taraqqiyotining tamomila yangi bosqichiga qadam quygan O`zbekiston Respublikasi oldida hozirgi paytda hal etilishi zarur bo`lgan yana bir muhim masala turibdi. Bu - milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotga tadbiq etish haqidagi masaladir. Dunyodagi har bir jamiyatning, har bir davlatning o`ziga xos, o`ziga mos keladigan, uning uchun xizmat qiladigan, tub maqsadlari va manfaatlarini himoya qiladigan mafkurasi bo`ladi. Mafkuraga ega bo`lmasdan turib bironqa ham jamiyat yashay olmaydi, uning rivojlanishi ham mumkin emas. Odamlar qaysi bir jamiyatda yashamasin, baribir, nimagadir ishonishi, nimagadir e'tiqod qilishi, qandaydir g`oyaga, ta'lifotga asoslanib ish kurishi, faoliyat kursatishi kerak.

O`zbekistonning hozirgi davri, bundan keyingi tarixiy taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqillikning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy zaminlarini yaratish va mustahkamlash uchun mafkura suv bilan havodek zarur. Buni hayotning o`zi ochiq-oydin ko`rsatib turibdi.

O`zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi davlatimiz fuqarolarini ulug` maqsad yo`lida birlashtirish va safarbar etishga ko`maklashadi.

Istiqlol mafkurasi butun O`zbekiston xalqining ruhini, g`urur-iftixonini, kerak bo`lsa qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug` kuchdir.

O`zbekistonning milliy istiqlol mafkurasining mohiyati va bosh maqsadi - O`zbekiston davlat mustaqilligi uchun xizmat qilish, uning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy zaminlarini yaratish va mustahkamlashda keng xalq ommasini safarbar etish.

Yangi mafkura odamlarda kelajakka ishonchni, umidvorlikni tarbiyalaydi, mehr-muhabbat, oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma'rifat tuyg`ularini

shakllantiradi va o`stiradi, ongimizga yorug`lik no`rini olib kiradi, insonlarni buyuk maqsad sari chorlaydi.

Agar xalqda mustaqillik xaqida tushuncha, bilim bo`lsa-yu, istiqlol to`g`risidagi g`oya amaliy ishlar bilan, mehnat bilan bog`lanib, e'tiqodga, dunyoqarashga aylanib ketmagan bo`lsa, bu mustaqillikning ma'naviy zamini bo`sh bo`lganining ifodasi bo`ladi.

Milliy istiqlol mafkurasi Respublikamiz mustaqilligini mustahkamlash, O`zbekistonni kelajakda buyuk davlatga aylantirish, inson xaq- huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni, demokratiyani to`la qaror toptirish, millat va mamlakatimiz istiqlol muammolarini birinchi o`ringa qo`yish yo`lida aniq maqsadga qaratilgan, asoslangan xulosaning muayyan tizimidir.

Milliy istiqlol mafkurasi respublikamizning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotiga maqsad va yo`nalish beradi. O`zbekistonning buyuk kelajagini yo`lchi yulduz kabi yoritib to`radi, xalqni olg`a tomon chorlaydi.

Milliy istiqlol mafkurasi bir millatning manfaati bilangina bog`langan emas, u O`zbekistonda istiqomat qilayotgan o`zbeklar, qozoqlar, tojiklar, ruslar, ukrainlar, yaxudiylar, xullas, respublikamizni o`zining jonajon Vatani deb bilgan, u bilan faxrlanadigan barcha millat va elatlarning teng huquqligini, qadr-qimmatini, manfaatlarini himoya qilishga ham qaratilgan.

Mafkura fuqarolarning, yoshlar, ijtimoiy guruxlar va qatlamlarning xullas, keng jamoatchilikning kundalik amaliy faoliyatida o`z ifodasini topa olsa, jamiyat rivojlanishiga o`z ta'sirini ko`rsatadi, ommani uyushtiradi, birlashtiradi, amaliy faoliyatga da'vat etadi. Prezident I.A.Karimovning asarlarida mustaqillikning eng dolzarb muammolari, ularning ilmiy-amaliy yechimlari chuqur va har tomonlama yoritib berilgan. Respublika ommaviy axborot vositalari xodimlari davlatimiz mavqeini dunyo miqyosida yanada oshirish, Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan mustaqil ichki va tashqi siyosatning insonparvarlik tinchliksevarlik mohiyatini jahon afkor ommasiga yetkazish singari o`lkan vazifalarни ado etishayapti.

Ommaviy axborot vositalari milliy istiqlol mafkurasini yanada jlonlantirish va joriy etish, asriy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish, mustaqillik va vatanparvarlik tuyg`ularini har bir inson qalbiga yetkazish borasida o`z faoliyatlarini anchagina kuchaytirdilar. Ular mustaqil O`zbekistan hayotini har tomonlama yoritayaptilar.

Jamiyatning, davlatning, insonning kelajagi oiladan boshlanadi. Oila - jamiyatning asosiy bo`g`inidir. Oilada singdirilgan tarbiya, Vatan, el-yurt, mustaqillik, ozodlik haqida beriladigan ilk tushuncha va tasavvurlar bolaning murg`ak qalbida bir umrga muhrlanib qoladi. "Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o`zining ko`p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo`ladi, oilada demokratik negizlariga asos solinadi, odamlarning talab-extiyojlari va qadriyatları shakllanadi... Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir"1.

Milliy istiqlol mafkurasi g`oyalarini omma ongiga singdirish va amalga oshirishning eng muhim va zarur shartlaridan yana biri - xalqimiz tarixini chuqur va mukammal - uni qanday bo`lsa shundayligicha, xolisona o`rganishni yo`lga qo`yish, buning uchun zarur bo`lgan barcha imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

T., 1993 yil, 47 bet

Milliy istiqlol mafkurasining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni aks ettiribgina qolmay, siyosiyboshqaruv tizimining faoliyatini ham o`zida ifodalaydi. Siyosiy bilimlar qanchalik mukammal bo`lsa, xalqning ongi o`sadi, faolligi oshadi. Mustaqillik milliy istiqlol mafkurasini hayotga keng va atroficha joriy etish borasida islom ta'lomitida mavjud bo`lgan imkoniyatlardan o`z o`rnida oqilona ijodiy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Din odamlarni harom-harish yo`llardan uzoqroq yurishga, yaxshi bo`lishga, o`zidan yaxshi iz qoldirishga undaydi. Islom dinida odamlarni ahillik va birodarlikka da'vat etadigan g`oyalar behisobdir. Islom dini odamlar diliga insof, sabr-toqat, halol mehnat, ahillik tuyg`ularini jo etmoqda. Milliy istiqlol mafkurasi - millat ravnaqi, xalqimizning farovonligi, jamiyatimizni porloq kelajakka undaydigan katta g`oyaviy kuchdir. U jamiyatdagi barcha kishilarni, ijtimoiy guruhlar, tabaqalarni bitta maqsad sari -O`zbekistonni kelajakda buyuk davlatlar safiga olib chiqishga da'vat etadigan ilmiy g`oyalar majmuasidir. "Hozir tarkib topayotgan umumxalq milliy mustaqillik mafkurasini shunday keng qo`lamli hodisalar jumlasiga kiritmoq lozim. Hech qanday mafkura davlat mafkurasi darajasiga ko`tarilmasligi kerak - biz o`zimiz uchun shunday xulosa chiqarib oldik...1

I.A.Karimov, "O`zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo`lida", T., 1995, 152 bet

Yangi mafkuraning asl ma'nosi eskicha aqidalardan holi bo`lgan, mustaqil va yangicha fikr lovchi kishilarni tarbiyalashdan iborat", -deydi I.A.Karimov.

## MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI

### 1. Mohiyat-mazmuni

O`zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasi, o`z mohiyatiga ko`ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o`tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog`laydigan, asriy orzu-istikclarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g`oyalar tizimidir.

#### Milliy istiqlol mafkurasi:

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi;
2. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug` bobokalonlarimizning o`lmas merosidan oziqlanadi;
3. Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g`oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi;
4. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi;
5. Jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O`zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;
6. Millati, tili va dinidan qatyi nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g`oyalariga sadoqat va o`zaro hurmat tuyg`usini qaror toptiradi;
7. Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo`l bilan singdiriladi.

Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, jamiyatni sog`lom, ezgu-maqsadlar sari birlashtirib, uning o`z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo`lib kelgan.

U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir.

Bu O`zbekistonda istiqomat qiladigan va o`z taqdirini shu muqaddas zamin bilan bog`lagan har bir kishining "Vatanim menga nima berdi" deb emas, balki "Men Vatanim ravnaqi uchun nima qilayapman" degan mas'uliyat tuyg`usi bilan yashashi demakdir.

Milliy mafkura haqida gapirganda shuni nazarda tutish kerakki, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi pluralizm, fikr va qarashlar erkinligi tamoyillarini to`liq ta'minlaydi. Asosiy Qonunimizning 12-moddasida bu qoida quyidagicha ifodalangan:

"O`zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o`rnatalishi mumkin emas". Bu qoida O`zbekistonda faoliyat ko`rsatayotgan partiyalar, harakat va ijtimoiy-siyosiy guruhlardan birortasining dasturiy g`oyalari yagona davlat mafkurasi bo`la olmasligini anglatadi. Milliy istiqlol mafkurasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen-ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron-bir dunyoqarash mutloqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi.

Milliy istiqlol mafkurasi, o`z mazmun-mohiyatiga ko`ra, O`zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning butun xalqimizning quyidagi umumiy manfaatlarini ifodalaydi:

1. Mamlakatning mustaqilligi, xududiy yaxlitligi, sarhadlar daxlsizligi;
2. Yurtning tinchligi, davlatning harbiy, iqtisodiy, g`oyaviy, ekologik, informatsion tahdidlardan muhofaza etilishi;
3. Mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlash;
4. Har bir oila va butun xalqning farovonligi;
5. Jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o`z-o`zini boshqarish tamoyillarining amal qilinishi.

Istiqlol mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg`ular, go`zal va hayotiy g`oyalari tizimini o`zida mujassam etishi;
- millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch -e'tiqod manbai bo`lishi;
- har qanday ilg`or g`oyani o`ziga singdirishi va harqanday yovuz g`oyaga qarshi javob bera olishi;
- zamon va davr o`zgarishlariga qarab, uzi ifodalaydigan manfaat, maqsad-muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olishi.

Bu vazifalarning bajarilishi fuqarolarimizni hozirgi shiddatkor hayot talablariga javob bera oladigan shaxslarga, yangi jamiyat qurilishining faol ishtirokchilariga aylantirishga xizmat qiladi.

## **2. Tarixiy va falsafiy asoslari.**

Milliy istiqlol mafkurasining ma'no-mazmunini belgilaydigan asoslaridan biri - bu xalqimizning qadimiy va boy tarixidir. Chunki tarix -buyuk murabbiy. U insonga ibratli xulosalar beribgina qolmasdan, ba'zan achchiq saboqlarni ham tan olishga undaydi.

Ona zaminimizda bundan necha asrlar avval yaratilib, to hanuz yurtimizga ko`rk bag`ishlab turgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an'analari haqida, Vatanimizning shonli tarixi to`g`risida tasavvur va tushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g`urur-iftixon tuyg`ularini uyg`otadi.

Xalqimizning o`ziga xos turmush tarzi, tafakkur va dunyoqarashi, hayotga, voqelikka munosabatining ifodasi bo`lgan xalq og`zaki ijodi namunalari, "Alpomish", "Shashmaqom" kabi san'at durdonalari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi milliy qaxramonlarimizning ibratli hayoti ham milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardir.

Mafkuramizning falsafiy asosini, avvalo, milliy-ijtimoiy tafakkurning mumtoz namunalari bo`lgan dunyoviy bilimlar, jahon falsafasi durdonalari belgilaydi. Olam va odamning

yaralishi va takomillashib borishi haqidagi diniy va ilmiy qarashlar, poklik, halollik, mardlik, komillik g`oyalari ham bugungi mafkuramiz shakllanishiga ta'sir o`tkazadi.

Buyuk donishmand ajdodlarimizning ozodlik to`g`risidagi g`oyalari, Xorazmiyning dunyoviy kashfiyotlari va Beruniyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari, Forobiyning adolatli jamiyat va Ibn Sinoning dualizm ta'lomit, Alisher Navoiyning komil inson haqidagi falsafiy mushohadalar, asrimiz boshidagi ma'rifatparvar ziyorolar faoliyati ham milliy g`oya va istiqlol mafkurasining teran tomirlaridir.

Istiqlol mafkurasining falsafasi, uning ma'no-mazmuni, asosiy g`oya va tamoyillari milliy davlatchiligidan qayta tiklab, jamiyatimizning taraqqiyot yo`lini nazariy va amaliy jihadan asoslab bergen Islom Karimov asarlarida chuqur ifodasini topgan. Ularda mamlakatimizning rivojlanish yo`li, uning o`ziga xos xususiyat va qonuniyatlarining amalga oshishi dialektikasi ilmiy nuqtai nazardan aniq belgilab berilgan.

Milliy istiqlol mafkurasining falsafiy asosi, shuningdek, qadimgi sharq, yunon, rim va boshqa falsafa maktablarining merosiga ham tayanadi.

Kususan, Sukrot, Aflatun, Arastu singari mu tafakkirlarning asrlar davomida o`z qadr-qimmatini yo`qotmay kelayotgan fikrlari, jahon falsafasining o`rta asrlar va yangi zamondagi namoyandalari qarashlari ham milliy istiqlol mafkurasi tamoyillarini asoslash va boyitish, ularga hayotiy ruh bag`ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konfutsiyning falsafiy hikmatlari, Aflatunning "G`oyalarni dunyosi va soyalar dunyosi" to`g`risidagi ta'lomit, Gegel dialektikasi, gumanistik zamonaviy falsafiy oqimlar ilgari surayotgan g`oyalarni ham milliy istiqlol mafkurasining umuminsoniy asoslaridir.

### **3. Milliy va umuminsoniy tamoyillari**

Istiqlol mafkurasi xalqimizning tabiatni, irodasi, orzu-tilishlarini ifodalaydigan qo`yidagi milliy xususiyatlarini zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

- xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo`lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo`lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-onalik, mahalla-kuy, umuman jamoatga yuksak xurmat-e'tibor;
- millatning o`lmas ruhi bo`lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga xurmat va kichikka izzat;
- mehr-muhabbat, go`zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi – ayol zotiga ehtirom;
- sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat va hokazo. Istiqlol mafkurasi quyidagi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi va ulardan oziqlanadi:
- qonun ustuvorligi;
- inson haq-huquqlari va hurfikrlilik;
- turli millat vakillariga xurmat va ular bilan bahamijihat yashash;
- diniy bag`rikenglik;
- dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik;
- o`zga xalqlarning ilg`or tajribalari va madaniyatini o`rganish va hokazo.

### **4. Ijtimoiy -iqtisodiy asoslari**

Milliy istiqlol mafkurasi, o`z mohiyatiga ko`ra, har bir oila va fuqaroning munosib turmush darajasini ta'minlaydigan farovon hayotga erishishga chorlaydi. Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug`ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini xalq va Vatan manfaati bilan o`zaro uyg`unlashtirib yashashga undaydi.

Mulkdor odamning jamiyatga ichida, xalq orasida faqat boyligi bilan emas, balki yuksak ma'nnaviy fazilatlari bilan ham ajralib turishi zarurligi, shaxsiy va oilaviy farovonlikka erishish imkoniyati har kimning o`z qo`lida degan hayot haqiqatini zamonaviy dunyoqarashi sifatida shakllantiradi.

"Har bir fuqaroning farovonligi - butun jamiyatning farovonligidir" g`oyasini ilgari suradi.

5. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g`oyasi O`zbekistan xalqining milliy taraqqiyot yo`lidagi bosh g`oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g`oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bonyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqaddas bo`lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o`zida mujassam etadi. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g`oyasida ozodlik tushunchasining ustuvor va yetakchi o`rinda turishi Vatan mustaqilligi barcha orzu-intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug` kelajagimizning asosi ekanidan dalolat beradi.

#### 6. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g`oyalari

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g`oyalari xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo`lidagi bosh g`oyasidan kelib chiqadi va o`zining ma'no-mohiyati, falsafasi, jozibasi bilan uni xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

#### **Yurt tinchligi**

Yurt tinchligi - beba ho ne'mat, ulug` saodatdir. Bashariyat o`z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. Yurt tinchligi - barqaror taraqqiyot garovi.

O`zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni uz orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari ruyobga chiqishining kafolati deb biladi. Shuning uchun doimo Yaratgandan tinchlik va omonlik tilaydi.

Lekin, afsuski, hayotda bu ezgu tilaklarning ijobat bo`lishiga doimo qarshilik qiladigan kuchlar ham bor. Ular o`zlarining g`arazli maqsadlari, nafs balosi yo`lida bashariyatni hamisha nizo-adovat, urush va qirg`inlar domiga tortib keladi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, keyingi besh ming yil mobaynida odamzot un besh mingdan ziyod katta-kichik urushlarni boshdan kechirganini ko`ramiz. Bu urush va tinchlik, xavfsizlikni ta'minlash masalasi hanuzgacha insoniyat oldidagi eng olamshumul muammo bo`lib qolayotganidan dalolatdir.

Holbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo`lgan taqdirdagina o`z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy yuksaklikka ko`tariladi.

Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug`bek Movarounnaxrga hukmronlik qilgan qirq yil mobaynida mamlakatda tinchlik-barqarorlik ustuvor bo`lgani sababli ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan, bonyodkorlik ishlari rivojlangan, kuhna zaminimiz go`llab-yashnagan.

Aksincha, urush va nizolar insonni odamiylik qiyofasidan ayiradi, jamiyatni butkul tanazzul botqog`iga botiradi. Yigirma yildan buyon o`zaro harbiy mojarolar tufayli sivilizatsiyadan batamom uzilib, dunyoning eng qoloq mamlakatlaridan biriga aylanib qolgan Afg`oniston - buning yaqqol dalilidir.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq biz yurt tinchligini eng asosiy boylik sifatida asrab kelmoqdamiz. Bugungi va keyingi nasllar ham ko`p mehnat va mashaqqatlar evaziga qo`lga kiritilgan mana shu beba ho ne'matni asrab-avaylashi zarur. Shundagina ular xalqimizning asl orzu-intilishlariga, istiqlol yo`lida jon fido etgan ajdodlarimiz ruhiga munosib bo`la oladi.

Yurt tinchligi - Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog`liqidir. Birovga qaram bo`lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim.

Yuksak ma'naviyat, siyossiy madaniyat, millatning g`oyaviy va mafkuraviy yetukligi - yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir. Xalqimiz uchun azal-azaldan muqaddas bo`lgan g`oya jamiyatdagи turlicha fikr va qarashga ega bo`lgan barcha kuch va harakatlarni birlashtirishga va shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Komil inson**

Komil inson g`oyasi ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo`lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olajanob g`oyadir.

Bu g`oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat bobida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg`urmagan xalqning, millatning kelajagi yo`q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum.

Komil inson g`oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo`lib kelgan. U islam falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma'no-mazmun kasb etgan. Barkamol inson haqidagi yuksak g`oyalar Abu Nasr Forobi va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniqsa, teran ifoda topgan.

Hazrat Navoiyning "Kamol et kasbikim, olam uyidin Senga farz o`lmag`ay g`amnoq chiqmoq, Jahondin notamom o`tmak biaynih, Erur hammomin noplak chiqmoq" degan jumlesi har bir inson komillikni o`ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi. Erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g`oyalar hayotiy e'tiqodi bo`lgan insonlargina bunyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog`lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga kutarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga muhim e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda Sog`lom avlod harakatining keng tus olgani, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug`vor maqsadni amalga oshirish yo`lidagi muhim qadamlardir.

### **Ijtimoiy hamkorlik**

Insoniyat XX asrda amalga oshirayotgan eng muhim g`oyalardan biri -jamiyatdagi turli toifalar, siyosiy kuchlar va partiyalar o`rtasidagi ijtimoiy hamkorlikdir.

Ijtimoiy hamkorlik murosa falsafasi bo`lib, xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo`lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiyligi maqsad yo`lidagi hamjihatligini ta'minlaydi.

Natijada jamiyatda tinchlik va totuvlikning, barqaror taraqqiyotning mustahkam kafolati vujudga keladi. Jamiyatni sun'iy ravishda bo`lib, turli qarama-qarshiliklarni mutlaqlashtiradigan ta'limotlardan farqli ularoq ijtimoiy hamkorlik g`oyasi bu tabiiy rang-baranglikni milliy taraqqiyot manfaatlariga bo`ysundiradi.

### **Bu qanday shakllarda amalga oshiriladi?**

Birinchidan, jamiyatning eng ustuvor maqsad va manfaatlarini o`zida mujassam etadigan ilg`or g`oyalar milliy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi.

Ikkinchidan, jamiyatdagi har bir ijtimoiy toifa yoki guruh o`zining dasturiy maqsadlari va amaliy faoliyatini ana shu g`oyalar bilan uyg`unlashtirishi milliy taraqqiyotning zaruratiga aylanadi.

Uchinchidan, har bir shaxs, ijtimoiy mavqeい, dunyoqarashi va e'tiqodidan qat'iy nazar, jamiyatning ustuvor maqsad va manfaatlarini aks ettira digan milliy g`oyalarning amalga oshishi uchun o`zini mas'ul deb bilishi bu jarayonning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Ijtimoiy hamkorlik masalasini atroflicha o`rgangan aksariyat G`arb mamlakatlarida uning tamoyillari jamiyat hayotiga oqilona tadbiq etilib, taraqqiyotning barcha sohalarida salmoqli natijalar bermoqda.

Aholining turli qatlamlari orasidagi munosabatlar va o`zaro hamkorlikni yaxshilash jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlashga zamin yaratadi. Aksincha, ana shu hamkorlikning izdan chiqishi yoki munosabatlarning yomonlashuvi bu barqarorlikning bo`zilishiga olib keladi, ijtimoiy beqarorlik, siyosiy boshboshoqlik va milliy parokandalikni keltirib chiqaradi.

Binobarin, ijtimoiy hamkorlikni yo`lga qo`yish va rivojlantirish hammaning, birinchi galda, davlat va jamoat tashkilotlari, jamiyatning ilg`or vakillari bo`lgan ziyolilar zimmasiga katta mas'uliy yuklaydi.

Jamiyatimizdagи ijtimoiy hamkorlik muhitiga zarar yetkazishi mumkin bo`lgan har qanday xavf-xatarning oldini olish, ularni bartaraf etish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko`rish kerak.

## **Millatlararo totuvlik**

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Har bir millat - Yaratganning mu'jizasidir. Bu olamdagи tabiiy rang-baranglik bilan jamiyatdagi milliy o`ziga xoslik dialektikasini ifodalaydi.

Millatlararo totuvlik g`oyasi-umumbashariy qadriyat bo`lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo`lib xizmat qiladi.

Bu g`oya bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo`lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o`rtasida o`zaro xurmat, do`stlik va xamjihatlikning ma`naviy asosidir.

Bu g`oya har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to`la ro`yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Muayyan mamlakatga nom bergen (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o`rtasidagi hamjihatlik ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, bu g`oyaning ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

Millatlararo hamjihatlikka rahna soluvchi illat, bu – tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g`oyalari ta'siriga tushgan jamiyat halokatga yuz tutishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo`lgan fashizm g`oyasi bunga yaqqol misol bo`la oladi.

O`zbekiston xududida qadim-qadimdan ko`plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomatqilib keladi. Ular o`rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo`limgani xalqimizning azaliy bag`rikengligini ko`rsatadi.

Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o`zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga xos bo`lgan oliyjanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi.

## **Dinlararo bag`rikenglik (tolerantlik)**

Dinlararo bag`rikenglik g`oyasi - xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo`lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, oliyjanob g`oya va niyatlar yo`lida hamkor va hamjihat bo`lib yashashini anglatadi. Qadim-qadimdan din aksariyat ma`naviy qadriyatlarni uzida mujassam etib keladi. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiat bilan bog`liq.

Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezbilik g`oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do`stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat va bag`rikenglikka da'vat etadi.

Hozirgi zamonda bu g`oya ezbilik yo`lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a`zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Azal-azaldan diyorimizda islom, nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov va sina gogalarning mavjud bo`lishi, turli millat va dinka mansub qavlamlarning uz diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig`idir.

Tariximizning eng murakkab, og`ir davrlarida ham ular o`rtasida diniy asosda mojarolar bo`limgani xalqimizning dinlararo bag`rikenglik borasida katta tajriba to`plaganidan dalolat beradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda undan ziyod konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko`rsatmoqda. Ularning uz faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risida"gi qonunida uz ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo`lib, ulug` va mushtarak g`oyalar yo`lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi.

## XOTIMA

Falsafa-o`zining mohiyatiga ko`ra insonparvar fandir. U muayyan sinflarning, ijtimoiy guruhlarning, siyosiy partiyalarning ehtiyojlarini qondirishgina emas, balki insonning baxtsaodati, kamolotini ta'minlashga, jamiyatimiz milliy davlatini mustaxkamlab millatlar o`rtasida hamkorlik, hamjixatlikni rivojlantirishga, shu asosida respublikamizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy sohalarda ro`y berayotgan ziddiyatlarni tinchlik asosida bartaraf etishga va shu kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishga qaratilgan insonparvarlik, insonsevarlik ruhi bilan sug`orilgan fandir. Falsafa fanini azaldan qiziqtirib kelayotgan masalalar umuminsoniy qadriyatlar bilan bog`liq bo`lgan muammolardir. Inson erki va huquqlarini himoya qilish, yer yuzida tinchlikni saqlash, qurollanish poygasini tuxtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, xavfli kasalliklarni, ocharchilik, irqchilik, millatchilikning oldini olish, atrof muhitni muxofaza etish, fan-texnika yutuqlaridan insoniyat hayotini yaxshilash yo`lida foydalanish kabi umumbashariy muammolar xozirgi davr uchungina emas balki kelajak hayot uchun ham juda muhim va katta ahamiyatga ega bo`lgan falsafiy muammolardir.

Ularni chuqur va atroflicha taxlil qilish kishilarning falsafiy fikrlash mahoratini oshirishni talab qiladi. Falsafa fani qotib qolgan emas, u mustaqil rivojlanib borayotgan fandir. Buning asosiy sababi hayotning uzidadir. Chunki hayot murakkab, ziddiyatlari, doimiy ravishda o`zgarib turadigan jarayondir. Shu sababli hayot inson uchun eng katta falsafiy maktabdir. Hayotning o`zgarishi bilan falsafaning muammolari ham qonuniy ravishda o`zgarib turadi. Hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyotiga o`tish o`z navbatida yangicha falsafiy tafakkurni talab etadigan bir qator muammolarni o`rtaga tashlamoqda.

"Biz egallahimiz kerak bo`lgan yana bir murakkab masala bor, - deydi Prezidentimiz I.A.Karimov, - bu odamlar ruhiyatini o`zgartirish, bozor psixologiyasini shakllantirishdir"<sup>1</sup>.

---

Karimov I.A. O`zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., 1995,44-bet.

Yangi xayotiy masalalarga eskicha yondoshib bo`lmaydi. Shunday ekan falsafa muammolariga o`zgarmas, qotib qolgan qoidalar sifatida qaramasdan, ularni hayot bilan taqqoslab, hayot talablari asosida rivojlantirib, ilmiy bilish va amaliy faoliyatga tatbiq etish kerak. Buning uchun falsafaning ayrim qoidalarini emas, balki uning butun ruhini chuqur va atroflicha o`zlashtirib olish lozim.

Falsafa hozirgi davrimizning buyuk ma'naviy, aql-idrok boyligidir. Uni mukammal egallab olish - davr talabidir. Ushbu darslikda yosh avlodlar qalbida falsafa faniga qiziqish uyg`otib, ularning ijodiy tafakkurlash madaniyatini shakllantirishga hissamizni qo`shgan bo`lsak oldimizda to`rgan maqsadga erishdik deb bilamiz.

Biz XXI asrda yashayapmiz, biz yanada yangi buyuk ishlar oldida to`ribmiz. Siz bilan bizning vazifamiz davr oldimizga quyayotgan barcha talablarga munosib javob qaytarishdir. Istiqbolimizni aniq va ravshan tasavvur etib xalqimizga tinch va farovon turmushni ta'minlashdir, jahon maydonida o`zimizga munosib o`rin egallab olishdir.

Shunday ekan, xar bir kasb egasi uz sohasiga bir tomonlama emas balki xar tomonlama yondashishi va bu yondashish natijasida topilgan yangiliklarni ochib fan va texnika rivojiga o`z hissasini qo`shish kerak.

## **ADABIYOTLAR**

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh, kabi muqaddasdir
2. Karimov I.A.Istiqlol va ma'naviyat
3. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat
4. "Toshkent ovozi" gazetasi. 1995 yil 8-sentabr.
5. "Muloqot" Jurnal. 1995 yil 7-8 son.
6. "Toshkent Oqshomi" gazetasi 13-sentabr 1995 yil.
7. "Toshkent Oqshomi" gazetasi 1995 yil 31-may.
8. "Guliston" jurnal 1995 yil 2-son.
9. "Xalq ta'limi" 1995y 3-4 son.
10. "Xalq so`zi" 1996 yil 15-avgust.
11. "O`zbekiston adabiyoti va sanoati" gazetasi. 1996 yil 12-iyul.
12. I.A. Karimov. O`zbekiston: Miliy istiqlol, siyosat, mafkura.T., 1993 i, 43-44 betlar.
13. Karimov I.A. O`zbekiston: Miliy istiqlol, siyosat, mafkura.T., 1993 i, 43-44 betlar.
14. "Xalq so`zi" 1994 yil 2 sentabr, "Mustaqillik va ma'naviyat", Toshkent, 2001 yil
15. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T, 1992 yil, 29 bet.
16. I.A.Karimov "O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., 1993, 43 -45 betlar
17. I.A.Karimov, O`zbekistonning siyosiy -ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari, T., 1995, 11 bet
18. I.A.Karimov, "O`zbekistonning siyosiy -ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari", T., 1995, 40 bet
19. I.A.Karimov, "O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura", 61 -bet
20. I.A.Karimov., "O`zbekiston iqtisodiy islohatlarini chukurlashtirish yo`lida", 174 bet
21. I.A.Karimov, "O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,

- mafcura". T., 1993, 43 -45 betlar
22. I.A.Karimov, "O`zbekiston siyosiy -ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari", 46 bet
  23. I.A.Karimov, "O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, T., "O`zbekiston", 1993 yil, 47 bet
  24. I.A.Karimov, "O`zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo`lida", T., 1995, 152 bet

## MUNDARIJA

Insoniyat istiqboli.....	3
1.Xalq orzusi - milliy g`oya ko`zgusi.....	3
2. Jahon taraqqiyotining hozirgi davrdagi o`ziga xos xususiyatlari.....	14
3. Hozirgi zamon umumbashariy muammolari, ularni hal qilish yo`llari va istiqbollarli.....	16
4. Inson va insoniyat, ular taqdirining mushtarakligi.....	26
Xazrati inson.....	30
Inson falsafasi .....	33
Falsafada inson muammosi, uning asosiy jihatlariInson ongi, ma'naviyati, dunyoqarashini shakllantirish falsafaning asosiy vazifasi.....	33
Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish -uning g`oyaviy-madaniy yuksalishining omili.....	46
Inson ma'naviy kamolotida vatanparvarlik, yuksak odob-axloq.	
Tarbiyasining ahamiyati.....	51
Inson bunyodkorlik faoliyatining usishi - ma'naviy kamolot mezonı.....	58
Ozod shaxs ma'naviyati.....	65
Inson fazilati bilan ulug`.....	68
Uyatchanlikni qanday tushunmoq kerak?.....	69
Qizlik farosatiga nimalar kiradi?.....	72
"Qadriyat" tushunchasining falsafiy taxlili.....	76
Milliy qadriyatimiz va istiqlol mafkurasi.....	80
Inson - milliy qadriyat.....	94
Xurmat - ezgu amal. Farzand burchi.....	95
Insoniylik fazilatlariAzizu mukarram bulay desangiz.....	97
Insoniylik fazilatlariBarchasidan a`lo - yaxshilik.....	98
Insoniylik fazilatlariG`urur dimoq dorlik emas.....	99
Mustaqillik -asriy orzumiz.....	100
Fuqarolik jamiyati va siyosiy madaniyat.....	105
Siyosiy mustaqillik -davlat barqarorligining omili...	111
Iqtisodiy mustaqillik va unga erishish yo`llari.....	116
Mustaqillikning ma'naviy zaminlari.....	122
Mustaqillik mafkurasi va uni hayotga joriy etish masalalari.....	126
Milliy istiqlol mafkurasi.....	131
1. Mohiyat -mazmuni.....	131
2. Tarixiy va falsafiy asoslari.....	134
3. Milliy va umuminsoniy tamoyillari.....	136
4. Ijtimoiy -iqtisodiy asoslari.....	137

5. Milliy istiqlol mafkurasingin bosh g`oyasi.....	138
6. Milliy istiqlol mafkurasingin asosiy g`oyalari.....	138
Yurt tinchligi.....	138
Komil inson.....	140
Ijtimoiy hamkorlik.....	142
Millatlararo totuvlik.....	134
Dinlararo bag`rikenglik (tolerantlik).....	145
Xotima.....	146

## **D. B. YU l d a sh ye v a**

### **MUSTAQILLIK VA INSON FALSAFASI**

**Mas'ul muxarrir - Soliyeva F.S.  
 Muxarrir - Ochilov T.X.  
 Tekshirishga berildi 2004 yil 11.08  
 Bosishga ruxsat etildi 2004 yil 10.09.  
 Qog`oz o`lchami 84x108 1/32  
 Shartli bosma taboq 8,2  
 Buyurtma 107, Adadi 1000 nusxa**

---

**703051, Samarqand shaxar  
 V.Abdullayev kuchasi, 3 uy  
 O`zR. F.A. YA.G`ulomova nomidagi Arxeologiya Institutida chop etildi**